R.S. AMRIDDINOVA





EKSKURSIYA ISHINI TASHKIL QILISH





75.81
A625

Tuzuvchi:

R.S. Amriddinova– «Xalqaro turizm va turizm servisi» kafedrasi assistenti

Taqrizchilar:

I.S.Tuxliyev-	«Xalqaro turizm va turizm servisi» kafedrasi mudiri, i.f.n., professor.
R.Hayitboev	«Xalqaro turizm va turizm servisi» kafedrasi katta o`qituvchisi

© R.S. Amriddinova. SamISI. 2009

MUNDARIJA:

	Kirish.....	4
1-Mavzu.	Ekskursiya- turistik mahsulotning tarkibiy qismi.....	5
2-Mavzu.	Ekskursiya xizmatlarini tayyorlash texnologiyasi.....	11
3 –Mavzu.	Ekskursiya matnini tayyorlash.....	15
4 –Mavzu.	Ekskursiyaning texnologik xaritasi.....	19
5 –Mavzu.	Ekskursiyalar o'tkazish metodlari.....	23
6 –Mavzu.	Ekskursiya xizmatlari hikoyasining mazmunini tayyorlash.....	28
7 –Mavzu.	Ekskursiyani olib borish texnikasi.....	36
8 –Mavzu.	Gidning nutq madaniyati va uning kasbiy xususiyatlari..	42
9-Mavzu.	O'zbekistonning ziyoratchilik ekskursiya maskanlari.....	53
10-Mavzu.	Turizmda maxsus turlar.....	60
11-Mavzu.	Turizmdagi maxsus turlarning tasnifi, tavsifi va geografiyasi.....	70
12-Mavzu.	Turizm sohasida ko'ngilochar faoliyat.....	82
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	87

SAMARQAND IQTISODIYOT
VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

KIRISH

«Ekskursiya ishini tashkil qilish» fani turizm mahsulotini tushunish va yaratish uchun zarur. Kursga ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar hamda mustaqil ish kiradi.

Ushbu kurs turizm korxonalarida ishlash uchun zaruriy bilimlarni beradi, ekskursiya mahsulotini yaratish jarayonini, uning ko'p komponentligini ko'rsatib beradi, aholining turli guruhlari uchun ekskursiya xizmatlari ko'rsatishni tashkil etishni belgilab beradi. Unda ekskursiyaning ko'p variantliligi va ekskursiya sikllariga, shuningdek turizm korxonalarida uslubiy ishlarni tashkil etishga doir barcha masalalar ko'rib chiqilgan.

«Ekskursiya ishini tashkil qilish» kursining **maqsadi** - talabalarga turizm -ekskursiya korxonalarida ishlash uchun zarur bilimlarni orttirishda yordam berishdir.

Kursni o'qitish **vazifalari**: ekskursiya ishini rivojlantirish masalalari, ekskursiya xizmatlari ko'rsatish hajmlarini kengaytira borish rezervlari, ekskursiya mahsulotini yaratish va o'tkazishga oid asosiy talablar, ishlab chiqarish ekskursiyalari va muzey ekskursiyalari asoslari, bolalar bilan va turistlarning boshqa toifalari bilan ekskursiya ishi olib borish xususiyatlarini ko'rib chiqish va boshqalar.

«Ekskursiya ishini tashkil qilish» fani «Turizm asoslari», «Turizm menejmenti», «Turizmning maxsus turlari», Operatorlik xizmatlarini tashkil etish» va «Turizm marshrutlarini ishlab chiqish», «Turizm marketingi» fanlari bilan bevosita bog'langan.

Mavzu 1. Ekskursiya- turistik mahsulotning tarkibiy qismi

Reja:

1. «Ekskursiya ishini tashkil qilish» fanining predmeti va obekti.
2. Ekskursiyaning mazmuni va mohiyati.
3. Ekskursiyaning asosiy xususiyatlari.

1. «Ekskursiya ishini tashkil qilish» fanining predmeti va obekti

O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risidagi» qonunda: "**Turizm**—jismoniy shaxslarning, doimiy, yashash joyidan 12 oydan oshmagan muddatga, beradigan joyida ish haqi to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmasdan, davolanish, o'rganish, ish yoki boshqa maqsadda sayyohati hisoblanadi."

Turist 24 soatdan kam bo'lmagan va bir yilgacha muddatga, har qanday haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmasdan hamda belgilangan muddatda mamlakatni tark etish majburiyati bilan qonun orqali taqiqlanmagan turli maqsadlarda boshqa mamlakat hududida sayyohatqiladigan shaxsdir.

Sayohlik sanoatini rivojlantirish an'analari va umumiy iqtisodiy, texnika va ijtimoiy yutuqlar o'rtasida bevosita aloqalar mavjuddir. Jahondagi sanoati rivojlangan mamlakatlardagi hayot tarzining o'sish darjasi, xodimlar ta'tillarining muddatlarining o'sishiga va nafaqa bilan ta'minlashning yetarli ravishda yuksak darajasini ta'minlash bilan sayyohlikning rivojlanishiga fanga ta'sir ko'rsatadi. (eng ko'p kelishi Fransiya, AQSH, Ispaniya, eng ko'p mablag' sarflaydigan sayyohlar AQSH, Germaniya, Yaponiya).

Turizm - jismoniy shaxsning doimiy istikomat joyidan soglomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshka maksadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq tulanadigan faoliyat bilan shugullanmagan xolda uzogi bilan bir yil muddatga junab ketishi (sayoxat qilishi):

Ekskursiya faoliyati—vaqtinchalik bo'ladigan mamlakatda sayohatchilarni sayyohlik resurslari bilan tanishtirish maqsadidagi faoliyatni tashkillashtirish bo'lib, bunda joylashtirish yuzasidan xizmat ko'rsatish nazarda tutilmaydi.

Sayyohlik tabaqalariga **xalqaro va milliy** sayyohlik qo'shiladi, shuningdek, mamlakat doirasidagi sayyohatlik kiritiladi.

Tunab qoladiganlar turistlar hisoblanadi, kun davomida kelib-ketuvchilar **ekskursiyachilar** deb hisoblanadi.

Turizmning **ichki, xalqaro, kiruvchi, chiquvchi** ko'rinishlari mavjud.

- ***Ichki turizm*** – o'z davlati chegarasi doirasida doimiy yashovchi fuqarolarni vaqtinchalik tashrif buyurovchi joyda (to'lanadigan faoliyatsiz) turstik maqsadlarda sayoxat qilishga aytiladi.
- ***Xalqaro turizm*** –vaqtinchalik kelgan joyida faoliyati to'lanmaydigan, doimiy yashaydigan mamlakat chegarasidan tashqariga turistik maqsadlarda safar qilish tushuniladi.
- ***Kiruvchi turizm***- faoliyati to'lanmaydigan turistik maqsadlarda doimiy yashamaydigan shaxslarni o'zga mamlakat xududiga tashrifi, sayohati hisoblanadi.
- ***Chiquvchi turizm*** – bir mamlakat xududida doimiy yashovchi shaxsni boshqa mamlakatga faoliyati to'lanmaydigan sayohati, tashrifi hisoblanadi.

Turizmdagi iste'mol turizm tovarlari va xizmatlarining qiymati sifatida aniqlanib, ular turist yoki ekskursiyachilarning bevosita talablarini qondirish uchun foydalaniladi. Bularga keluvchilarga qilinadigan xizmatlar to'plami — joylashtirish, ovqatlantirish, dam olish, sport, ekskuriya va boshqa tadbirlar harajatlari kiradi.

Turizm mahsulotlari — deyilganda moddiy va nomoddiy xizmatlar to'plamining iste'mol qiymati tushunilib, ular turistning iste'mol talablari uchun zarur bo'lib, uning sayyohlik yuzasidan sayohat qilishi davrida vujudga keladi va faqatgina ushbu saayyohat tufayli vujudga keladi.

Turizm tovarlari — deyilganda ishlab chiqarish sohasi faollarining mehnat mahsuloti tushunilib, ular sotish uchun yaratilgan hamda aksariyat hollarda turistlar yoki ekskursiyachilar foydalanishi uchun mo'ljallangan.

«Ekskursiya ishini tashkil qilish» fanining predmeti - turizmda ekskursiya jarayonini to'g'ri va qiziqarli tashkil etishni o'rgatishdir.

«Ekskursiya ishini tashkil qilish» fanining obekti- mamlakatimizda mavjud tarixiy, madaniy, me'moriy, tabiiy va boshqa resurslardan foydalanib, turizmning asosiy tarkibi bo'lmish ekskursiya xizmatlarini sifatli o'tkazish texnika, texnologiyasini o'rganishdir.

2.Ekskursiya mazmuni va mohiyati

[illegible] *lotinchadan. Exscursio* – *sayoxat*) bu gid (ekskursiyachi) rahbarligida ilmiy yoki madaniy maqsadlarga diqqatga

sazovor joylarni, muzeylarni individual yoki jamoa bo'lib tomosha qilishdir.

Yoki boshqacha ta'riflaganda:

Ekskursiya - bu tanishish yoki o'rganish maqsadida aniq belgilangan reja bo'yicha o'tkaziladigan, mavzuli hikoyalar bilan olib boriladigan biror ob'ektni ko'rsatish jarayonidir. Har bir ekskursiyaning mazmuni (xususiyati) *hikoya qilish, namoyish etish, ma'lumot berishdan* iborat. Agar namoyish etish(tanishtirish) bo'lmasa bunday madaniy, ilmiy jarayon ekskursiya emas, balki oddiy *ma'ruza* yoki *suhbatga* hisoblanadi.

Ekskursiyada aynan **hikoya qilish** va **namoyish etish** asosiy xususiyatlardir. Lekin ko'rilayotgan narsalar haqida chuqur tahlil, ma'no, tushuncha berilmasa, bu ishtirokchilar uchun faqatgina diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish bo'ladi. Ekskursiyaning mazmuni ham ko'rilayotgan obektlarga qiziqarli ma'lumotlarni aytib berishdan iborat.

Gidning ob'ekt haqida aniq faktlar, hodisalar, jarayonlarga asoslanib hikoya qilayotganlari sayyohlar ongida ko'rayotganlari bilan bog'lanib umumlashadi. Shu tarqa gid sayyohlarga ob'ektlarni to'g'ri ko'rishni o'rgatadi. Bu jarayonda ekskursiyaning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan atrof-muhitni emotsional qabul qilish katta rol o'ynaydi. Gid sayyohlarni nafaqat eshitish va ko'rishga, balki voqea hodisalarni his etishga majburlashi kerak. Ko'rgan va eshitganlar sayyohlarga javob hissiyotini uyg'otish zarur (hayrat, quvonch, g'urur).

Ekskursiya—bu nafaqat vaqt o'tkazish, balki jismoniy va ruhiy kuch sarflashni talab qiluvchi, bo'sh yoki o'qish vaqtidagi intellektual faoliyati[illegible].

Ekskursiya o'zining ko'rgazmaliligi, daromadliligi, hissiyotliligi bilan insonlar[illegible]runiy qiyofasi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

B.V.Kanelyanov ekskursiyaning qo'yidagi 6 ta xususiyatlarini ajratgan:

- vaqtdavomiyligi (2 soatdan 1 kungacha);
- sayyohlar guruhining mavjudligi (10-15 kishi);
- malakali mutahassis - *gidning* mavjudligi;
- ekskursiya ob'ektini ko'rib chiqish;
- ob'ektlar bilan harakatda va to'xtab tanishish (avtobusdan tushib);
- ekskursiya yo'nalishini belgilab beruvchi aniq mavzuning mavjudligi.

Hozirda ekskursiya amaliyotida ekskursiyaning asosiy xususiyatlarini belgilashda erkin qaralmoqda. Masalan: turistlar guruhi bir necha kishidan iborat (1-2 kishi) bo'lishi mumkin; ob'ekt bilan tanishish uchun avtobuslardan tushish shart emas (agar ob'ekt yaxshi ko'rinsa).

B.V.Yemelyanov ko'rsatgan ekskursiyaning boshqa xususiyatlari esa o'zgarmay qoladi.

Ekskursiyaning albatta maqsad va vazifalari aniq bo'lishi shart. Chunki, shular ekskursiya ob'ektlari, marshrutlari, adabiyot manbalarini tanlashda va "gid portfeli"ni yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Lekin ekskursiyaning eng asosiy xususiyatlari uni o'tkazishda ekskursiya uslublaridan foydalanishdir, ya'ni namoyish va hikoya qilishning uyg'unligidadir(bir-birini to'ldirish).

3.Ekskursiyalar tasniflashning ahamiyati

Tasniflash (klassifikatsiya) — bu aniq bir belgilarga qarab bir turdagi predmetlarni bo'limlarga, klasslarga ajratishdir.

Ekskursiyani tasniflash —ekskursiyani olib borish harakteriga, xususiyatlariga, mazmuniga qarab guruhlarga ajratishdir. Bu esa ekskursiya amaliyotida katta ahamiyatga ega. Ekskursiyani tasniflash gid ishini tashkil etishda yordam beradi.

Ekskursiyaning barcha turlarini qo'yidagi xususiyatlari bo'yicha tasniflash mumkin:

- mazmuniga ko'ra;
- qatnashuvchilar tarkibiga ko'ra;
- o'tkazish joyiga ko'ra;
- o'tkazish shakliga ko'ra;

Mazmuniga ko'ra ekskursiya *ko'rgazmali* va *tematik* turlarga bo'linadi. *Mavzuli* ekskursiyalar o'z navbatida qo'yidagi guruhlarga bo'linadi:

- tarixiy;
- harbiy-tarixiy;
- ishlab chiqarish ob'ektlari;
- madaniy;
- adabiy;
- arxitektura qurilishi.

Qatnashuvchilar tarkibiga ko'ra:

- katta yoshdagi odamlar uchun;
- maktab yoshidagi bolalar uchun;
- yosh bolalar uchun;
- mahalliy aholi;
- boshqa shahardan kelganlar;
- horijiy mehmonlar uchun.

Qatnashuvchilar tarkibiga ko'ra ekskursiya ob'ektlari, ma'lumotlar, hikoya mazmunlariga o'zgarishlar kiritiladi. Xorijiy mehmonlar ekskursiya davomida gidga ko'proq savol berishadi va u bunga tayyor turishi kerak. Gid hikoya qilib berayotgan ma'lumotlar hammaga ma'lum ekanligini unutmasligi, haqiqatdan uzoqlashmasligi ham muhimdir. Gid uchun sayyohlar tarkibini o'rganish, bilish ekskursiyani samarali o'tishining asosidir.

Ekskursiyaning o'tkazish joyiga ko'ra:

- shaharda;
- shahardan tashqarida;
- ishlab chiqarish ob'ektlarida;
- muzeylarda;
- madaniy (diniy) inshootlarda;
- tabiat yon bag'rida;
- cho'llarda bo'lishi mumkin va b.bo'lishi mumkin.

Shahar ekskursiyalari ko'rgazmali va tematik bo'ladi. Unda shaharning barcha joylarini yoki bir qismini ko'rsatish mumkin(eski shahar, bozorlari, maydonlar).

Shahardan tashqarida ekskursiya avtobusda va piyoda tashkil etilishi mumkin. Avtobusli ekskursiyalar odatda 100 km dan uzoq bo'lmaydi. Piyoda ekskursiyada guruhni aniq joygacha maxsus transportda olib boriladi, so'ng qolganida ular piyoda borishadi (Masalan,poyezd, vertolyot, teploxodda). Shahardan tashqari ekskursiyalar bir necha xil bo'ladi.

Birinchidan, ekskursiya faqat oxirgi punktda o'tkaziladi (o'rmon, tog', kichik shahar).

Ikkinchidan, ekskursiyada yo'l-yo'lakay diqqatga sazovor joylar marshrut bo'ylab ko'rsatiladi.

Uchinchidan, har ikkisini umumlashtirilgan holda o'tkaziladi. Bunda ekskursiyani oxirgi punktida guruhni qabul qilib oluvchi turistik tashkilot gidi yoki muzey xodimlari ekskursiyani olib boradi.

Ishlab chiqarish korxonalari- zavod, fabrikalar, temir yo'l vokzallari, qishloq xo'jalik korxonalari, ilmiy tadqiqot institutlari, aeroportlar ekskursiya ob'ektlari hisoblanadi.

Muzeylarda (galereya, ko'rgazma) ekskursiyalarni tashkil etish eng ko'p tarqalgan ekskursiyalar guruhiga kiradi, qatnashuvchilar soni ham boshqa guruhdan ko'ra ko'proq bo'ladi.

Madaniy-diniy inshootlar ekskursiyalarida diniy mavzularga oid mustaqil ekskursiyalar tashkil etiladi. Ekskursiyalarning tematikasi bir-

biridan kamdan-kam hollarda ajralgan bo‘ladi. Chunki tarixiy materiallardan barcha ekskursiya turlarida foydalaniladi.

Tayanch iboralar: Turizm, ekskursiya, kursning predmeti, kursning obekti, turizm mahsulotlari, turizm tovarlari, ekskursiya faoliyati, ekskursiyani tasniflash, ekskursiyaning xususiyati, ekskursiyani o‘tkazish joyi.

Mustaqil nazorat qilish uchun savollar:

1. «Ekskursiya ishini tashkil qilish» fanining predmeti va obekti.
2. Ekskursiyaning maznuni va mohiyati haqida tushuncha bering.
3. Ekskursiya nima?
4. Ekskursiyaning asosiy xususiyatlari.
5. Turizm turlari haqida tushuncha bering.
6. Ekskursiyaning o‘tkazish joyiga ko‘ra ekskursiya qanday turlarga bo‘linadi?

Mavzu 2. Ekskursiya xizmatlarini tayyorlash texnologiyasi

Reja:

1. Ekskursiya xizmatini tayyorlashda ijodiy guruh tashkil etish
2. Mavzular uchun ob'ektlar tanlash.
3. Ko'rgazmali materiallardan foydalanish va ekskursiya marshrutini aniqlash.

1.Ekskursiya xizmatini tayyorlashda ijodiy guruh tashkil etish

Ekskursiyani tayyorlash ekskursiyani tuzuvchilardan ijodiy yondashuvni talab qiladi. **Ekskursiyani tayyorlash**—bu shahar va hududlarning ekskursiya imkoniyatlaridan kelib chiqib, turistik korxonaning doimiy mijozlari ehtiyojiga asoslangan holda, ekskursiyaga yangi mavzular ishlab chiqishdir.

Yangi *ekskursiyani tayyorlash* jarayoni o'z ichida mavzuni aniqlash, ekskursiya maqsad va vazifalarini qo'yish, ob'ektlarni tanlash va o'rganish, ekskursiya marshrutlarini tuzish, ekskursiya mavzusi bo'yicha adabiy manbalarni o'rganish, mutaxassislar bilan konsultatsiyalar olib borish, ekskursiyaning asosiy matnini (kontrolniy tekst) yozish, "gid portfeli"ni taxlash, ekskursiyani o'tkazish metodikasini tanlash va texnologik xaritasini tuzishdan iboratdir.

Ekskursiyani tayyorlash negizida pedagogik bilimning bosh prinsipi va talablari: o'qitish va tarbiyaning bog'liqligi, hikoyalarda ketma-ketlik, fikrlarning aniq va tushunarli bo'lishi, hissiyot, sayyohlar yoshi xususiyatlari hisobga olingan holda bo'lishi shart.

Yangi ekskursiya mavzusini ishlab chiqishda 3-6 kishidan iborat ijodiy guruh (gidlar) yig'iladi. Ular orasidan rahbar tanlanadi. Ijodiy guruhning har bir a'zosi o'z g'oyalari, materiallarini taqdim etadi va bu materiallar umumlashtiriladi.

Har bir ekskursiya o'zining aniq mavzusiga ega va shu mavzu asosida namoyish va hikoyalar tayyorlanadi. Ayniqsa, bu ko'p mazmunli ob'ektlar namoyishida muhimdir. Chunki bitta ob'ektni har xil mavzularda yoritish mumkin.

Ekskursiya mavzusi shahar arxitekturasi, ijodkor hayoti, ko'cha tarixi, ekologik ahvol, hayvonot olami, shaharning iqtisodiyoti va hokazo bo'lishi mumkin.

Ekskursiya **nomi (nomlanishi)** ham uning mazmunini ochib beradi(Moviy gumbaz ostida, Sharq taronasi-qalb durdonasi, Marg'ilon-2000 yoshda). Ekskursiya nomini belgilayotganda qo'yidagilarga yo'l

qo'ymaslik kerak: so'zlarni qisqartirmaslik, abbreviaturalardan, xorijiy leksikonlardan olingan so'zlardan foydalanmaslik. Ekskursiya nomi o'zining individualligi, tez yodda qolishi, yoqimli eshitilishi, mazmunga to'g'ri kelishi bilan ajralib turishi kerak.

Oldindan maqsad belgilamay ekskursiyani tayyorlash mumkin emas. **Ekskursiya maqsadlari** – vatanparvarlik, mehnatni sharaflash, estetik va ekologik tarbiya, shahar tarixi va davlat iqtisodiyotiga qo'shgan hissasini o'rganish, o'lka tabiati bilan tanishish va boshqalar bo'lishi mumkin. Ekskursiyaga uchtadan ziyod maqsad qo'yish noto'g'ri bo'ladi, chunki hech qaysisiga erishmaslik mumkin.

2. Mavzular uchun ob'ektlarni tanlash

Ekskursiya *obektlari*- tabiat manzaralari- tog', daryo, g'or, qo'riqxonalar; muzeylar; qasrlar, favvoralar, maydonlar, arxeologik yodgorliklar bo'lishi mumkin.

Obektlar quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

- obektning talimiy ahamiyati;
- mashhurligi;
- takrorlanmas, ekzotik bo'lishi;
- hozirgi ahvoli;
- manzili.

Ekskursiya obektlari baholanib, adabiy manbalar o'rganilgandan so'n[illegible] har bir obekt uchun kartochka tuziladi. *Kartochkaga* quyidagi ma[illegible]otlar kiritiladi:

- [illegible]ktnomi;
- obekt bilan bog'liq tarixiy voqealar (yili);
- obekt manzili;
- [illegible] va voqealar haqidagi malumotlar manbai;
- [illegible]g saqlanganlik holati;
- [illegible] nazorati ostida;
- [illegible]sqacha malumot(muallifi, qachon qurilgan, yozuvlar);
- kar[illegible]ka t[illegible]an kun va masul shaxs.

Yuqoridagi [illegible]limlarga qo'shimchalar kiritish mumkin.

Ekskursiya [illegible]ktlarini o'rganishni territoriya xaritasini tuzish bilan ya[illegible]ish [illegible]a muvofiqdir.Xaritada diqqatga sazovor joylar maxsus be[illegible] bil[illegible]anadi va shu marshrut bo'ylab ekskursiya harakatlanadi (m[illegible]abi i[illegible]0; 1:10000; 1:5000).Umumiy qabul qilingan belgilar yo[illegible]q uni ijodiy guruhning o'zi belgilaydi.

Ekskursiya obektlari o'rganilib, xarita-sxema tuzilganidan so'ng, obektlarni saralash bosqichi boshlanadi. Obekt mazmunan ekskursiya maqsadiga to'g'ri kelishi kerak. Obektlar asosiy va qo'shimcha bo'ladi.

Asosiy obektlarga ularsiz ekskursiya mavzusini yoritish mumkin bo'lmagan obektlar kiradi.

Qo'shimcha obektlar alohida epizod, fakt, detallarni tushuntirib berishga yordam beradi.

Mavzu bilan bog'liq bo'lmagan obektlarni yoritmaslik kerak. Chunki u sayyohlarni chalg'itishi va ketma-ketlikni buzishi mumkin.

Ekskursiya amaliyotida 2-3 soat davomida shaharning 5-10 ta obektini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

4. Ko'rgazmali materiallardan foydalanish va ekskursiya marshrutini aniqlash

Ko'rgazmali materiallarni tanlashdagi mezonlar quyidagilar:

- ularni ishlatishning zaruriyligi va maqsadliligi;
- ommabop lik qiymati, yani ushbu ko'rgazmali qurol hikoyani qanchalik boyitishi, tushunarli qilishi mumkin;
- g'aroyibligi;
- ifodaliligi;
- saqlanganlik holati.

Rasmlar, xarita-sxemalar, reproduksiyalar 18x24sm o'lchamli karton asosli, tiniq va aniq tasvirga ega bo'lishi shart. Avtobusda ko'rsatishga mo'ljallangan ko'rgazmali qurollar 24x30sm o'lchamli bo'lishi zarur(orqa qatorga o'tirganlar ko'rishlari uchun).

Ko'rgazmali materiallar ro'yxati, tarkibi ekskursiyaning butun hayotiy davrida o'zgartirilib, takomillashtirib borilishi mumkin.

Ekskursiya marshruti- bu ekskursiya guruhi bosib o'tadigan yo'l. Marshrut ixcham, har bir obektga 10-15 daqiqa vaqt ajratilib, ishlab chiqilishi kerak.

Marshrut *xronologik, tematik* va *tematik-xronologik* tartibda tuziladi. Obektlar har joyda joylashganligi sababli xronologik tartibga rioya qilish qiyin bo'ladi. Shuning uchun tematik marshrut tuzish osonroq bo'ladi.

Marshrutni tuzishda obektlardan takroriy harakatlanishga yo'l qo'ymaslik kerak. Lekin bunga ham hamma vaqt erishib bo'lmaydi.

Marshrutni ishlab chiqish ekskursiya marshruti sxemasini tuzish bilan yakunlanadi (ko'cha va maydonlar nomi, avtobusdan tushish joyi, avtobus tezligi- sekin-30km.s; o'rta-40-50km.s; tez-60—km.s).

Tayanch iboralar: Ekskursiyani tayyorlash, ekskursiya mavzusi, ekskursiya rejasi, ekskursiya maqsadi, ekskursiya obektlari, kartochka, asosiy va qo'shimcha obektlar, ko'rgazmali materiallar, ekskursiya marshruti

Mustaqil nazorat qilish uchun savollar:

1. Ekskursiya xizmatining maqsad va vazifalari ayting
2. Ekskursiya xizmatini tayyorlashda ijodiy guruh nima uchun tashkil etiladi?
3. Mavzular uchun ob`ektlar tanlash jarayoni haqida so`zlab bering.
4. Ko'rgazmali materiallardan foydalanish xususiyatlari.
5. Asosiy va qo`shimcha obektlar haqida nimalarni bilasiz?
6. Obekt kartochkasi haqida malumot bering.
7. Ekskursiya marshruti nima?
8. Marshrutni tuzishda nimalarga e`tibor berish zarur?

Mavzu 3. Ekskursiya matnini tayyorlash

Reja:

1. Ekskursiyaning asosiy matni.
2. Gidning individual matni.
3. "Gid portfeli"ning ahamiyati

1. Ekskursiyaning asosiy matni

Ekskursiya marshruti tasdiqlangandan so'ng ijodiy guruh ekskursiya matnini tuzishni boshlaydi. Ekskursiya amaliyotida u *asosiy matn* (kontrolniy tekst) deyiladi. Unga ijodiy guruh ishlab chiqqan ekskursiyani olib borish uchun barcha materiallar kiritiladi. Eng muhim malumotlar tanlanib, xulosalar qilinadi. Asosiy matnda foydalaniladigan materiallar manbaini ko'rsatish zarur.

Matn ham xronologik tartibda va ham ekskursiya obektlarining marshrut bo'ylab joylashganligiga qarab tuzilishi mumkin, yani, mavzular yoritilishi ketma-ketligiga qarab.Asosiy matnda shuningdek, chiqishlar, xulosalar, mavzular orasidagi mantiqiy o'tishlardan tuzilgan materiallar ham kiritiladi. Unda mavzuga taaluqli, lekin ekskursiyani ishlab chiqishda nazarda tutilmagan obektlar ham kiritilishi mumkin. Bu keyinchalik o'sha mavzuda ekskursiya variantlarini ishlab chiqishda kerak bo'ladi.

Amaliyotda uch soatlik avtobusli ekskursiyada asosiy matnning hajmi 40-50 varag'ni, piyoda ekskursiyada 25-30 varag'ni (14 shrift, 1.5 interval) tashkil etishi belgilangan.

Ijodiy guruh tomonidan ishlab chiqilgan va turistik tashkilot tomonidan tasdiqlangan ekskursiyaning asosiy matni gidlar individual matnini tuzishda asos bo'ladi. Asosiy matnni tayyorlashda yana bir muhim talab, bu titul varag'ining mavjudligidir.Unda yangi ekskursiyani ishlab chiqgan turistik- ekskursiya tashkiloti nomi, ekskursiya mavzusi, ijodiy guruh tarkibi, ekskursiya tasdiqlangan sana ko'rsatiladi.

Ijodiy guruhning barcha azolari, keyinchalik ushbu mavzuda ekskursiya olib bormoqchi bo'lgan gidlar ham o'zlarining individual matnlarini tuzadilar.Ular asosiy matnga mos kelishi, materiallarni hikoya qilish tartibi esa,marshrut obekti qanday tartibga joylashganligiga qarab, hikoya qilinishi shart.

2. Gidning individual matni

Individual matn –bu hikoya qilib berishga tayyor ekskursiya mahsulotidir,yani ekskursiya hikoyasi uchun matndir.Individual matn tarkibi 3 qismdan iborat: chiqish(vstupleniye), asosiy qism, xulosa.

Chiqish va xulosa qismi asosiy qismdan tubdan farq qiladi,ular ekskursiya obektlari bilan o'zaro bog'liq emas.Bular ko'proq maruza, suhbatga yaqinroqdir.

Chiqish *tashkiliy* va *axborot* qismlariga bo'linadi.*Tashkiliy* qismda gid o'zining ismi sharifini, ekskursiyani tashkil etgan muassasa nomini, avtobus haydovchisini tanishtiradi, mavzu va marshrutni elon qiladi, ekskursiya davomiyligini, uning yakun topish joyini(ushbu joyga xoxlovchilar avtobusni tark etishi mumkin), avtobusda o'zini tutish haqida aytib o'tadi.

Axborot qismida gid ekskursiya mazmunini qisqacha bayon qiladi, sayyohlar ko'radigan diqqatga sazovor obektlarni, kichik mavzularni(podtemalar)sanab o'tadi.

Chiqish 5-7 daqiqadan oshmasligi va uni marshrutga harakatni boshlamasdan avval o'tkazish kerak.Chiqish eng masuliyatli bosqichdir va u yaxshi bo'lishi shart.Shu bosqichda sayyohlar bilan aloqa o'rnatiladi, ular gid haqida ilk taasurotni oladilar. Yaxshi chiqish gid muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Malakali gid aynan chiqish paytida guruh bilan o'zaro tus olish nuqtasini topib, ularni o'ziga jalb qilib, o'z ishining ustasi sifatida ekskursiyaning muvaffaqiyatini taminlaydi.

Asosiy qism namoyish etish va hikoya qilish uyg'unligida shakllanadi va ular bilan *mantiqiy o'tishlar* (logicheskiy perexod) bilan bog'langan, har xil obektlarga yo'naltiladigan mavzulardan tushkil topadi. *Mantiqiy o'tishlar* oldingi mavzular mazmunidan kelib chiqib, keyingi mavzuni hikoya qilishga yordam berishlari kerak. Mantiqiy o'tish umumlashtirish, taqqoslash, to'ldirish harakteriga ega bo'lishi mumkin. Mazmunli, chiroyli mantiqiy o'tish gidning yaxshi uslubiy tayyorgarligi va yuqori professionalligidan darak beradi.

Ko'pgina hollarda birinchi mavzuni tugatib, ikkinchi obektga o'tish jarayonida gidlar ekskursiya mazmuniga to'g'ri kelmaydigan rasmiy o'tishlardan foydalanadilar.Masalan:"Hozir biz sizlar bilan u tomonga borib, ... ni ko'ramiz" yoki "ana endi biz boshqa yodgorlikka o'tamiz".Bunday rasmiy o'tishlar ekskursiyaning xom ishlanganligidan dalolat beradi,ular ekskursiyaning alohida qismlarnini bir-biri bilan bog'lanishiga yo'l qo'ymaydi.

B.V.Yemelyanov fikricha, rasmiy o‘tishlarni gidlarning sistematik xatosi deb hisoblash noto‘g‘ri.Ular obektlar orasidagi harakat bir necha soniyani tashkil etganda, majbur ishlatiladi(obekt avtobusdan tomosha qilinayotgan bo‘lsa).Masalan:"endi tezda o‘ng qo‘l tarafga qarang,nazdimizda... yodgorligi".

Xulosa qismida gid ekskursiya mavzusi bo‘yicha xulosa va yakun yasaydi, sayyohlar savollariga javob beradi.

3. "Gid portfeli"ning ahamiyati

Professional muhitda "gid portfeli" deb, namoyish etish, ko‘rish qatorlariga yetishmayotgan bo‘g‘inlarni to‘ldirish va tiklash uchun mo‘ljallangan ko‘rgazmali qurollar jamlanmasiga aytiladi. Bu ayniqsa, ko‘rsatmoqchi bo‘lgan obektlar bizgacha o‘zgargan hollarda yetib kelgan yoki umuman saqlanmagan hollarda muhimdir. Shunda rasmlar, chizmalar obektning birinchi holatini tiklashga yordam beradi.

"Gid portfeli"da yana ekskursiya mavzusiga taaluqli shaxslar rasmi, kartinalar reproduksiyasi, geologik xaritalar, harbiy voqealar tasvirlangan xarita-sxemalar, ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsuloti namunasi, gerbariylar, geologik namunalar, magnitofon tasmalari, yani ekskursiya sharhini yanada boyitidigan boshqa illyustrativ materiallar kiradi.

Ko‘rgazmali qurollarni tanlashdagi mezonlar quyidagilar:

- ularni ishlatishning zaruriyligi va maqsadliligi;
- ommabop lik qiymati, yani hikoyani ushbu ko‘rgazmali qurol qanchalik boyitishi, tushunarli qilishi mumkin;
- g‘aroyibligi;
- ifodaliligi;
- saqlanganlik holati.

Rasmlar, xarita-sxemalar, reproduksiyalar 18x24sm o‘lchamli karton asosli, tiniq va aniq tasvirga ega bo‘lishi shart.Avtobusda ko‘rsatishga mo‘ljallangan ko‘rgazmali qurollar 24x30sm o‘lchamli bo‘lishi zarur(orqa qatorga o‘tirganlar ko‘rishlari uchun).

Ko‘rgazmali qurollar ro‘yxati, tarkibi ekskursiyaning butun hayotiy davrida o‘zgartirilib, takomillashtirib borilishi mumkin.

Tayanch iboralar: Ekskursiyaning asosiy matni, asosiy matni tuzish tartibi, gidning individual matni, individual matni tarkibi, mantiqiy o‘tishlar, "Gid portfeli", illyustrativ materiallar.

SAMARQAND IQTISODIYOT
VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Mustaqil nazorat qilish uchun savollar:

1. Ekskursiyaning asosiy matnini tayyorlash jarayoni?
2. Ekskursiya asosiy matnining mazmuni va mohiyatini tushuntiring.
3. Gidning individual matni nima?
4. Individual matn tarkibi necha qismdan iborat?
5. "Gid portfeli" va uning ahamiyati haqida malumot bering.
6. Ko'rgazmali qurollarni tanlashdagi mezonlar qaysilar?

Mavzu 4. Ekskursiyaning texnologik xaritasi

Reja:

1. Ekskursiya texnologik xaritasining mohiyati
2. Sinov uchun ekskursiya o‘tkazish
3. Sinov uchun ekskursiyani mutaxassislar tomonidan baholanishi.

1. Ekskursiya texnologik xaritasining mohiyati

Ekskursiyaning texnologik xaritasi - bu sinov ekskursiyani qabul komissiyasiga topshirishdan oldin, ekskursiyani tuzishdagi ijodiy jarayon oxirida tuziladigan yakuniy hujjatdir.Unda (gid o‘zining hikoyasida foydalanishi uchun) ekskursiyaning mavzusi, maqsad va vazifalari, marshrutning optimal varianti, uning davomiyligi, masofasi, obektlar, to‘xtash joylari, mavzuchalar, tashkiliy va metodik ko‘rsatmalar, sharh va hikoyaning metodik usullari ko‘rsatiladi. Sayyohlarga konkret obektlarda ekskursiya mazmunini qanday yoritish samaraliroq ekanligini texnologik xarita ko‘rsatadi. Uning *maqsadi*- gidga ekskursiyani olib borishda ijobiy natijaga erishish yo‘llarini ko‘rsatishdir.Bundan tashqari, ekskursiyaning texnologik xaritasi ekskursiya faoliyatini olib borish, turistik-ekskursiya tashkilotini sertifikatlashtirish uchun talab qilinadigan asosiy hujjatdir.

Ekskursiyaning texnologik xaritasi

Ekskursiya mavzusi----------
davomiyligi(soat)----------
masofasi(km)----------
mualliflar----------
ekskursiyaning mazmuni----------
Ekskursiyaning marshruti, shuningdek marshrut varianti(yozgi, qishgi);-----

Marshrut bo‘ylab harakatlanish uchastkasi	*To‘xtash joylari*	*Ko‘riladigan obektlar*	*Davomiy ligi*	*Axborotning asosiy mazmuni*	*Tashkiliy ko‘rsatma*	*Metodik ko‘rsatmalar*
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*

Jadval-1 Ekskursiyaning texnologik xaritasi

Ekskursiya matni kabi texnologik xarita ham, uch qismdan iborat:*chiqish*, *asosiy qism* va *xulosa*.

Chiqish va xulosa ekskursiya obektlari bilan bog'liq emas va xaritada tasvirlangan grafikdan (asosiy qismdan) oldin va keyin joylashadi.Unda gid sayyohlarni ekskursiya mazmuni va hikoyasiga e'tiborini jalb qilish uchun nimalarni e'lon qilishi shart bo'lgan ko'rsatmalarni yozadi(texnologik xaritada matn grafalar hisobga olinmagan holda yoziladi).Kirish qismida uning variantlari ko'rsatilishi mumkin, undan foydalanish ekskursiya guruhi tarkibiga bog'liq bo'ladi.

1. Grafa. "Marshrut bo'ylab harakatlanish uchastkasi"da ekskursiya guruhi harakatlanadigan ko'chalar, xiyobonlar, shosselar, maydonlar ko'rsatiladi.Birinchi bo'lib ekskursiya boshlanadigan joy ko'rsatiladi.So'ngra texnologik xaritaga ko'ra, ekskursiyaning ilk mavzusini ochib beruvchi obekt joylashgan ko'cha(xiyobon)yoziladi.Keyin oldingi obektdan keyingi obektgacha bo'lgan yo'l qismlari ko'rsatiladi.

2. Grafa. "To'xtash joylari"ga avtobus to'xtaydigan va undan tushmasdan obektlarni ko'rish, yoki avtobus to'xtab sayyohlarning avtobusdan tushish joyi, shuningdek, piyoda ekskursiya boshlanadigan marshrut nuqtalari ko'rsatiladi.

3. Grafa. "Ko'riladigan obektlar" da sayyohlarga to'xtash joylariga, avtobusda va piyoda harakatda ko'rsatiladigan ,aniq obektlar ro'yxati beriladi.Bu yerda ham asosiy va ham qo'shimcha obektlar ko'rsatilishi mumkin.Obektning to'liq nomi, mualliflar ismi sharifi yoziladi.

4. Grafa. "Davomiylik" da obektni ko'rsatish va uni hikoyasi uchun kerakli vaqt ko'rsatiladi. Bu vaqt oralig'ida obektni erkin tomosha qilish ekskursiya rejasiga kiritilgan bo'lsa, keyingi obektgacha harakat vaqtini ham hisobga olib ko'rsatilishi kerak.

5. Grafa. "Axborotning asosiy mazmuni"da marshrutga mavzuchalar(podtema) va ularga qisqacha annotatsiyalar beriladi .Mavzuchalar ekskursiya mavzusining tarkibiy qismidir.U bir yoki bir necha obektga yoritilishi mumkin.Bu obektlardagi axborot mazmuni hamda ekskursiyadagi sayyohlar kategoriyasiga bog'liq.Mavzuchalar ekskursiya materialining ichki mantiqiga asosan mavzuni ketma-ket yoritadi.

6. Grafa. "Tashkiliy masalalar"da ekskursiya guruhining obekt oldidagi holati, ularning xavfsizligini taminlash, tarixiy va madaniy obektlar oldida o'zini tutish qoidalari, sanitariya-gigiyenik talablar ko'rsatiladi.Tavsiyalar aniq berilishi shart.Masalan, avtobus teatr kassasi oldida to'xtatilsin; guruh Sher-dor madrasasi oldida yig'ilsin;sexga

kirishdan oldin xavfsizlik qoidasi eslatilsin va obektni ko'rib chiqish tartibi tushuntirilsin.

7. Grafa. "Metodik ko'rsatmalar"da ko'rsatish va hikoya qilib berish bilan bog'liq gidga ko'rsatmalar beriladi.U yerda ko'rsatish jarayonida gid e'tibor berishi lozim bo'lgan obektning konkret detallari, tahlil ketma-ketligi, ko'rsatish va hikoya qilishda qo'llaniladigan metodik usullar tavsiyasi, "gid portfeli" materiallaridan foydalanish bo'yicha maslahatlar, mantiqiy o'tish variantlari, sitatalar uchun materiallar beriladi. Metodik ishlanma tuzilganidan so'ng uni mutaxassislarga ko'rsatib, keyin turistik-ekskursiya muassasasi rahbari qarori bilan tasdiqlatish zarur.

2. Sinov uchun ekskursiya o'tkazish

Sinov uchun (probnoye) ekskursiya o'tkazish – bu yangi ekskursiya tuzish jarayonidagi eng hayajonli va yakunlovchi bosqichdir. Unda turistik- ekskursiya tashkilotlari rahbarlari, ijodiy guruh azolari, gidlar, ilmiy xodim va mutaxassislar taklif etiladi. Ular yangi ishlab chiqilgan ekskursiya sifati haqida xulosalar berishlari shart.

Sinov ekskursiyani odatda ijodiy guruh rahbari yoki ijodiy guruh azolaridan biri o'tkazadi. Sinov ekskursiyaga taklif etilganlarga ekskursiyani *mulohazalar kartochkasi* (kartochka proslushivaniya)beriladi. Savol-javoblar yordamida ekskursiya sifati baholanadi. Kartochkaga quyidagi malumotlar qayd etiladi(turistik- ekskursiya tashkilotlari o'z variantlarini tuzishda uni asos qilib olishlari mumkin):

1. Ekskursiyani ko'rib chiqish kartochkasi.
2. Ekskursiyaning nomi.
3. Ekskursiya turi.
4. Ekskursiya davomiyligi.
5. Ekskursiyaning mazmuni: qo'yilgan maqsadga mosligi, materiallar to'liqligi umumiy va mahalliy materiallarning muttanosibligi, mavzuchalar bo'yicha umumlashtirish.
6. Ekskursiyani olib borish metodikasi: ekskursiya tarkibi(chiqish, asosiy qism, xulosa), obektlar va mavzuchalarga vaqtning to'g'ri taqsimlanganligi, gidning guruh bilan munosabati, mantiqiy o'tishlar, namoyish va hikoya qilishning metodik usullari, ekskursiyada foydalaniladigan ko'rgazmali vositalar.
7. Ekskursiyani olib borish texnikasi:obektlarni tomosha qilishda joy tanlash, guruhni obekt oldida joylashtirish, mikrofondan foydalanish, savol-javoblar, gidning avtobus haydovchisi bilan munosabati.

5. Gidning nutq madaniyati: bilim darajasi, aniqlik, mantiqiylik, obrazlilik, hissiyotlik.
9. Ishtirokchilar ko'rib chiqishdan so'ng xulosalar: ekskursiya mazmunining ma'no va texnologik xaritaga mos kelishi, ekskursiyani umumiy baholash.
10. Gidga maslahatlar.

3. Sinov ekskursiyani mutaxassislar tomonidan baholanishi

Sinov ekskursiya tugaganidan so'ng munozaralar boshlanadi. Ekskursiya jarayonidagi mazmun, texnika, madaniyat barchasi baholanadi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanadi. Ular orasidan ayniqsa, quyidagilar aytib o'tiladi: namoyish jarayoning yaxshi, to'liq o'tib berilmaganligi, ekskursiyada rasmiy mantiqiy o'tishlardan foydalanish, chiqishdagi ma'muriy qismlarning ishonarli bo'lmaganligi, zamonaviylik bilan bog'lanmaganligi...

Barcha munozaralardan so'ng, kamchiliklarni qayta ko'rib chiqish uchun ijodiy guruhga vaqt beriladi va yana ekskursiyani qayta topshirish taklif etiladi. Komissiya ekskursiyani ijobiy baholaganidan so'ng, turistik- ekskursiya muassasasi rahbari qarori bilan ekskursiya qabul qilinadi va muassasa ishlari rejasiga kiritiladi.

Tayanch iboralar: Ekskursiya texnologik xaritasi, sinov uchun ekskursiya o'tkazish, mulohazalar kartochkasi, Sinov ekskursiyani mutaxassislar tomonidan baholanishi.

Mustaqil nazorat qilish uchun savollar:

1. Ekskursiyaning texnologik xaritasining mohiyati haqida gapirib bering?
2. Texnologik xarita necha qismdan iborat?
3. Sinov uchun ekskursiya o'tkazish va uni tasdiqlash.
4. Mulohazalar kartochkasining mohiyati.
5. Sinov ekskursiyani mutaxassislar tomonidan baholanishi.

Mavzu 5. Ekskursiyalar o‘tkazish metodlari

Reja:

1. Ekskursiyani olib borish
2. Ekskursiya obektlarini namoyish etish metodlari:
   - *oldindan ko‘rib chiqish;*
   - *ko‘rish orqali rekonstruksiyalash;*
   - *voqealarni lokalizatsiyalash;*
   - *ko‘rganlarni taqqoslash;*
   - *“gid portfeli”dagi ko‘rgazmali vositalarni ko‘rsatish;*
   - *obektni avtobus harakati paytida ko‘rsatish;*
   - *panoramali ko‘rsatish.*

1. Ekskursiyani olib borish

Avval aytib o‘tilganidek, ekskursiya bu diqqatga sazovor, tarixiy joylarni ko‘rsatish va ularning ushbu o‘lka iqtisodiyoti, madaniyati, tabiyatiga tutgan o‘rni haqida hikoya qilish bilan harakterlanadi. Ekskursiyaning bu ikki elementi bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir.U yoki bu obektlarning mavjudligi hikoya mazmunini belgilaydi, hikoyaning o‘zi esa, ko‘rsatish uchun aniq obektning mavjudligini talab qiladi. Lekin shuni yodda tutish kerakki, ekskursiya uchun eng muhimi ko‘rsatish, namoyish etishdir.*U aniq bir reja texnologik xarita asosida olib boriladi.* Namoyish etish-obektlar tahlili, zaruriy tushuntirishlar, xulosalar bilan to‘ldiriladi.

V.A.Sichinava fikricha, ekskursiyaga muhim rol o‘ynaydigan ko‘rgazmali vositalar 3 turga bo‘linadi:

* ekskursiya marshrutidagi haqiqiy(asosiy) ekskursiya obektlari;
* qo‘shimcha illyustrativ materiallar(gid portfelidagi ko‘rgazmali materiallar);
* so‘zli-obrazli material gid mahoratiga bog‘liq bo‘lib, voqealarni yorqin tushuntirib berish evaziga erishiladi:

2. Ekskursiya obektlarini ko‘rsatish metodlari

Obektlarni namoyish etish metodi oson emas va u quyidagilarga bog‘liq: harakat vositasi, ishtirokchilar tarkibi, ommaviy qiymati, mashhurligi, namoyonligi, saqlanganlik holati.

Ko‘rsatish, namoyish etish texnologiyasida ikkita qismni ajratish mumkin. Birinchisi, sayohatchilar e’tiborini obektga jalb etish va uni atrofidagi binolardan ajratib ko‘rsatish maqsadida uning tashqi ko‘rinishini

so'z bilan ifodalash. Unda: a) qo'l harakatlari bilan obekt joyi ko'rsatiladi(chapda, o'ngda, ikki qavatli bino yonida...), b) obektning tashqi ko'rinish xususiyatlari sanab o'tiladi(balandligi, rangi, detallari soni, joylashishi, devordagi yozuvlari...).

Ko'rsatish, namoyish, ko'rsatishning mazmunli qismi, ko'rsatishning metodik usullaridan foydalanishni taqozo etadi. Ekskursiya nazariya va amaliyotida bu metodlar Yemelyanov rahbarligidagi bir qator mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

-- *Oldindan tomosha qilib chiqish* metodi haqida Yemelyanov quyidagicha yozadi(1976y): "Bu metod sayohatchilar yodgorlik yonida turganlarida va allaqachon yodgorlikni ko'rib bo'lganlaridan so'ng ishlatiladi. Masalan," Sizning qarshingizda bobokalonimiz Amir Temur haykali ".Gid bu bilan sayohatchilar e'tiborini obekt tomon qaratishni, uning umumiy ko'rinishiga, detallariga e'tibor berishni taklif etadi. Yodgorlikni birinchi marotaba ko'rayotganlarga *oldindan tomosha qilish* metodi kitoblarga, otkritkalarga ko'rganlari bilan ro'parasidagini taqqoslash imkonini beradi. *Oldindan tomosha qilish* metodi ekskursiya obekti kattagina maydonni egallagan bo'lsa ham(masalan,Xo'ja Ismoil al-Buxoriy majmui, Ichan-qala), 1,5-2 daqiqa davom etishi kerak. Ushbu jarayon boshlanishidan avval, sayohatchilarga obekning u yoki bu detaliga e'tiborni yo'naltirish maqsadida maslahatlar berish mumkin"

Ko'rish orqali rekonstruksiyalash(zritelnaya rekostruksiya) metodi bu obekt saqlanib qolgan obekning avvalgi holatini xayolan tiklashdir. Bu metod ekskursiyada o'tmishdagi arxitektura yodgorliklari va muzeylarni ko'rsatayotganda, ular bizgacha asl holatini saklab qolmaganda, keng qo'llaniladi.Obektlarning ko'pginasi avvalgi ko'rinishini yo'qotgan,qayta qurilgan, ularning atrofi ham o'zgargan.

Shu va boshqalarning saqlanib qolgan qismi gidga *ko'rish orqali rekonstruksiyalashni* olib borishga yordam beradi.Ko'rishdagi taasurotlarga suyangan holda u so'z orqali ko'rilayotgan obekni tiklaydi.Verbal rekonstruksiyalashdan tashqari gid "gid portfeli"dagi ko'rgazmali vositalardan foydalanishga mumkin: o'tmish rasmlari, kartinalar, sxemalar.

Davlat voqealari, davlat arboblari, madaniyat ustalari yashab, ijod qilgan joylarni ko'rsatishda ham *ko'rish orqali rekonstruksiyalash* metodidan foydalanish mumkin. Ushbu metoddan foydalanish giddan obekt haqida keng va to'liq malumotni talab qiladi. U obektning avvalgi holatini o'zicha tasavvur etishi kerak. Ko'rish orqali rekonstruksiyalash

bilan parallel ravishda gid obrazli hikoya qilish orqali bu obekt bilan bog'liq voqea, hodisalarni qayta tiklaydi.

Ko'rish orqali rekonstruksiyalash metodi shahar, uning alohida viloyatlari, korxonalar kelajagini hikoya qilishda ham ishlatiladi(sxema, maket, rasm, chizmalar yordamida).

Voqealarni lokalizatsiyalash metodi- bu tarixiy voqealar yoki biror bir hodisani aynan bo'lib o'tganidek, aniq lokal sharoitda ko'rsatishdir. Tiklanayotgan tarixiy voqea "mana shu yerda","shu yo'nalishda", "shu joyda" iboralari bilan ifodalanadi. Voqealarni lokalizatsiyalash metodi ko'rish orqali rekonstruksiyalash metodi bilan birgalikda ishlatiladi. Masalan, aynan mana shu stolda Sadriddin Ayniy o'tirib, o'zining o'chmas asarlarini yaratgan, deb gid yozuvchi stolini ko'rsatadi. Yoki «mana shu minora teppasidan jinoyatchilarni tashlab yuborib qatl etishgan» deb Ichan-qal'adagi qatl minorasini ko'rstish mumkin.

Voqealarni lokalizatsiyalash metodi ishtirokchilarga kuchli emotsional tasir ko'rsatadi.Voqealar tasirli hikoya qilinsa, sayyohlar xuddi shu voqeaning ishtirokchisiga aylanadilar.Professional ekskursiya amaliyotida bu metod o'z aksini "joy hokimiyati"(mesto vlasti) iborasiga topgan.

Ko'rganlarni taqqoslash metodi - bu ko'rilayotgan obektni boshqa obektlar bilan taqqoslashdir. Bu yerda obektning ham o'xshash tomonlari va ham o'ziga xos xususiyatlari taqqoslanadi. Taqqoslash so'zda, ko'rganlarda va hatto xayolan bo'lishi mumkin. Masalan, boshqa shaharlarda joylashgan mashhur obektlar bilan taqqoslash.Taqqoslash ifodali bo'lishi kerak, shundagina sayyohlar uni eslab qolishadi.

Taqqoslash metodini qo'llash sayyohlarga masalan, obektning o'lchami, shakli, rangi va boshqa xususiyatlarini konkret tasavvur etishga imkon beradi.

Taqqoslash bilishning universal vositasidir. K.D.Ushinskiy shunday degan «Dunyodagi barcha narsani biz taqqoslash orqali bilib olamiz. Oldimizda yangi predmet tursayu, biz uni biror narsaga tenglashtira olmasak, farqlay olmasak, biz bu predmet haqida hech narsa deya olmasdik».

"Gid portfeli"dagi ko'rgazmali vositalarni ko'rsatish metodik usuli yordamida ekskursiya jarayonidagi ko'rish qatorida paydo bo'ladigan «bo'shliqlar» to'ldiriladi. Bu vositalar ekskursiya obektlari joyini olmaydi, ular qo'shimcha o'rganish manbai hisoblanib, aniq voqealar, tarixiy hodisalarni qayta tiklashga yordam beradi. Bu metod ko'rish orqali rekonstruksiyalash va voqealarni lokalizatsiyalash metodlari bilan birlashab ketadi(buzilib ketgan madrasa, masjidlarning oldingi rasmlari

ko'rsatiladi. Masalan, Imom al-Buxoriy madrasasi). So'zli rekonstruksiya qanchalik kuchli bo'lmasin ko'rgazmali vositalarsiz obektni tasvirlash qiyin bo'ladi.

Geografik ekskursiyalarda paleontologik namunalar ko'rgazmali vosita sifatida ishlatiladi. Namunalarni oldindan saralab, keyin material tayyorlash kerak(fauna, flora).

Obektni unga o'rnatilgan memorial taxta bilan ko'rsatish metodik usuli ham ekskursiyada ko'p ishlatiladi. Avval obektning o'zi ko'rsatilib, tahlil qilinadi. Qo'shimcha vositalar sifatida ko'rish orqali rekonstruksiyalash metodidan foydalanish mumkin(ekskursiya obekti o'zgarishlarni boshdan kechirgan bo'lsa).Keyinchalik esa voqealar xotirlanib, memorial taxta qo'yilganligi aytib o'tiladi. Memorial taxta haqida hikoya qilish kerakmi, yo'qmi mutaxassislarning fikri har xil. Buni gid ekskursiya jarayonida vaziyatdan kelib chiqqan holda hal qilishi lozim.

Obektni avtobus harakati paytida ko'rsatish. Avtobusli ekskursiya hozirda eng ko'p tarqalgandir. Gid obektlarni harakatda shunday hikoya qilib berishi kerakki,ular sayyohlar xotirasiga muhrlanib qolsin.Bu albatta oson ish emas.Obektlar sayyohlar nazaridan sanoqli soniyalarda o'tib ketadi. Shuning uchun ularning e'tiborini oldindan jalb qilish zarur. Sayyohlar obektni ko'rishidan avval, u haqida umumiy malumotlarni oldindan berib borish kerak.Obektni nimalar atrofida ko'rishlarini, uning asosiy belgilarini aytib, sayyohlarni tomosha qilishga yo'naltirish lozim.Bu vaqtda ekskursiyaning "ko'rsatishdan xikoya qilishga" qonuni buzilgandek ko'rinadi. Lekin bu ekskursiya analiyotidagi kam uchraydigan holatlar va gid bunday paytda zaruriy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Panoramali ko'rsatish- bu sayyohlarga aniq bir nuqtadan bir nechta obektlarni umumiy tanishtirishdir. Panoramali ko'rsatish asosan tabiatyon bag'rida tashkil etilgan ekskursiyalarda foydalaniladi. Masalan, Registon maydonini tomosha qilishdan avval maydonni panoramali ko'rsatish uchun qulay nuqta mavjud. Ushbu nuqtadan maydondagi har uchala madrasa ham ajoyib manzarada ko'rinib turadi. Yoki tog'larda maxsus shunday ekskursiyalar rejalashtiriladiki, bir nuqtadan tog'lar cho'qqisi zanjirli ko'rinadigan joylarga ekskursiya tugaydi.

Obektning oldida harakatlanish- memoriy ansamblarni, maydonlarni, tabiat komplekslarini tomosha qilishda foydalaniladi. Bu sayyohlarga obektning obekt xususiyatlarini yaxshilab o'rganish imkonini beradi. Bazida uni bir nuqtadan qilish qiyin bo'ladi.

Obekt oldida harakatlanish sayyohlarga o‘sha davr voqealariga guvoh bo‘layotganlik hissini beradi.

Tayanch iboralar: Ekskursiyani olib borish, ekskursiya obektlarini namoyish etish metodlari: oldindan ko‘rib chiqish; ko‘rish orqali rekonstruksiyalash; voqealarni lokalizatsiyalash; ko‘rganlarni taqqoslash; "gid portfeli"dagi ko‘rgazmali vositalarni ko‘rsatish; obektni avtobus harakati paytida ko‘rsatish;panoramali ko‘rsatish.

Mustaqil nazorat qilish uchun savollar:

1. Ekskursiyani olib borish jarayoni haqida tushuncha bering.
2. Namoyish etishning metodik usullari haqida nimalar bilasiz?
3. Ekskursiya obektlarini namoyish etish metodlari nima?
4. Ko‘rish orqali rekonstruksiyalash(zritelnaya rekostruksiya) metodi nima?
5. Voqealarni lokalizatsiyalash metodi haqida tushuncha bering
6. Ko‘rganlarni taqqoslash metodi nima?
7. "Gid portfeli"dagi ko‘rgazmali vositalarni ko‘rsatish metodik usuli haqida nimalar bilasiz?
8. Obektni avtobus harakati paytida obektlarni namoyish etishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Mavzu 6. Ekskursiya xizmatlari hikoyasining mazmunini tayyorlash
Reja:
1. Ekskursiya xizmatlari hikoyasining mohiyati
2. Ekskursiyani olib borishning maxsus metodik usullari
3. Diqqat(e'tiboor) krizisi va uni bartaraf etish yo'llari

1. Ekskursiya xizmatlari hikoyasining mohiyati

Hikoya qilish ham ob'ektni ko'rsatish kabi ekskursiya jarayonining asosiy qismidir. Ular yordamida ekskursiyaning mavzu, maqsad va vazifalariga mos ob'ektlar haqida ma'lumotlar beriladi. Hikoya qilish jarayoni ko'rsatishning ajralmas qismidir va unga bo'y sunadi, aynan shu jihati bilan ekskursiya ma'ruzadan farq qiladi.(maruzada illyustrativ materiallar ko'rsatish shart emas).Shuni yodda tutish kerakki, ekskursiya ob'ektlari haqida asosiy taasurotlarni, uning tarixiy, madaniy voqealar bilan bog'liqligini sayyohlar aynan hikoya qilish orqali bilib oladilar. Hikoya ham marshrutdan tashqarida va aniq ob'ektlarsiz mavjud bo'lmaydi.

Hikoya induktiv metod asosida yaralishi mumkin, ya'ni xususiylikdan umumiylikka, kuzatuvdan xulosaga. Yoki deduktiv- ya'ni umumiylikdan xususiylikka. Ekskursiya amaliyotida ko'pincha induktiv metoddan foydalaniladi, yani ko'rish ob'ektini tahlil qila turib, gid umumiy xulosalarga keladi.

Ekskursiya maqsadiga erishish, mavzularning to'liq yoritilishi hikoya qilishning to'g'ri tanlangan metodik usullariga bog'liq. Bu usullar - ***ekskursiya ma'lumotlari, tasvirlash, tushuntirish, oldindan sharhlash, izohlash, sitatalardan foydalanish, adabiy montaj.***

Ekskursiya ma'lumotlari ob'ektlar haqida lo'nda, aniq xususiyati, faktlar to'plamidir. Ma'lumotda ob'ekt haqida faqat asosiy faktlar beriladi: nomi, qurilgan yili, muallifi, o'lchamlari...

Ekskursiyaning bu metodik qo'llanmasida masalan, «Registon» maydoni haqida quyidagicha ma'lumot beriladi:

Samarqand ko'rki bo'lmish «Registon» maydoni uchta o'ziga xos madrasalar majmuasidan iborat, Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida vujudga kelgan. Registon majmuasining muhim qismini tashkil etadigan «Ulug'bek» madrasasi 1417-1420 yillari (XV asr) qurilgan. «Sherdor» madrasasi Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir tomonidan 1619-1636 yillari (XVII asr) Mirzo Ulug'bek xonaqohi o'rniga qurdirilgan. «Tillaqori» madrasasi Mirzoyi karvonsaroyi o'rniga 1646-1647

yillari(XVII asr) Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir farmoyishiga ko'ra, madrasa va jome' masjidga mo'ljallab qurilgan.

Hikoya qilishning bunday metodik usulidan mazkur ob'ekt ekskursiya jarayonida ikkinchi darajali ob'ekt bo'lganda, foydalaniladi(sharhli, ko'prejali ekskursiyalarda).

Tasvirlash- bu ob'ekt haqida to'liq malumotlarni hikoya qilish, uning asosiy xususiyatlari va sifatlarini sanab o'tish, ob'ekt bilan bog'liq asosiy voqealarni tasvirlashdir. Masalan, yana shu "Registon" maydonidagi madrasalarni tasvirlab beramiz:

«Ulug'bek» madrasasi- Samarqanddagi «Registon» maydonining muhim qismini tashkil etadigan «Ulug'bek» madrasasi 1417-1420 yillari (XV asr) nihoyatda mahobatli qilib qurilgan. Samarqand ko'rki bo'lmish «Registon» maydoni Mirzo Ulug'bek davrida vujudga kelgan. Ulug'bekning podshohlik davrida Movarounnahrda, ayniqsa, Samarqandda iqtisod va tijorat, fan va madaniyat, me'morlik yuksaldi. U ko'pgina ilmiy asarlar va she'rlar yozgan, kuy bastalagan.

«Sherdor» madrasasi- Sherdor madrasasi Registon majmuasiga kiradigan obida bo'lib, u Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir tomonidan 1619-1636 yillari (XVII asr) Mirzo Ulug'bek xonaqohi o'rniga qurdirilgan. «Sherdor» madrasasi «Ulug'bek» madrasasining ro'parasida bir o'q chizig'i bo'ylab joylashgan. O'rta Osiyo me'morligida ko'p uchraydigan qo'sh uslubdan foydalanilgan. «Sherdor» so'zi "Sher aksi bor ", degan ma'noni anglatadi.

«Tillaqori» madrasasi- Samarqand «Registon»ida eng keyingi qurilgan, nihoyatda xushbichim va o'ziga xos madrasadir. Ulug'bek davrida qurilgan Mirzoyi karvonsaroyi o'rniga 1646-1660 yillari (XVII asr) Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir farmoyishiga ko'ra, madrasaga va jome' masjidga mo'ljallab qurilgan. «Registon» majmuidagi «Ulug'bek» va «Sherdor» madrasalariga uyg'unlashib ketgan.

Ob'ektni. *tasvirlash* metodidan masalan, avtobusli ekskursiyada, sayyohlar avtobusdan tushmaganlarida foydalaniladi. Tasvirlash 2-3 daqiqadan oshmasligi kerak.

Tushuntirish- bu metodik usul yordamida ob'ektning ichki xususiyatlari oydinlashtiriladi, biror-bir hodisa, fakt sababi aniqlashtiriladi, chuqur tahlil qilinadi(ushbu ob'ekt ekskursiyada asosiy bo'ladi).

Masalan, yana shu "Registon" maydonini olsak. Ekskursiyada bu asosiy ob'ekt bo'lsa, gid o'z hikoyasiga yuqorida berilgan ma'lumotlariga qo'shimcha qilib, quyidagi malumotlarni kiritadi, ob'ektni chuqurroq tushuntiradi:

«Ulug'bek» madrasasini hikoya qilayotganda- Amir Temur avlodidan hisoblanmish Ulug'bek o'z davrida fan tarixidagi eng yirik ilmiy maktab - falakiyot maktabi asoschilaridan biri bo'lgan. Ulug'bekning podshohlik davrida Movarounnahrda, ayniqsa, Samarqandda iqtisod va tijorat, fan va madaniyat, me'morlik yuksaldi. Madrasa qurilishida maxsus qurilish materiallari va ranglardan foydalanilgankim, ularning kimyoviy tarkibi hanuzgacha sir bo'lib qolmoqda. Qo'li gul ustalar o'sha davrning barcha imkoniyatlaridan foydalanib, Movarounnahrda eng chiroyli madrasalardan birini barpo etishgan.

«Sherdor» madrasasini hikoya qilayotganda – «Sherdor» madrasasi Ulug'bek madrasasining ro'parasida bir o'q chizig'i bo'ylab joylashgan. O'rta Osiyo me'morligida ko'p uchraydigan qo'sh uslubdan foydalanilgan. Peshtoq ravog'i tepasi diqqatga sazovor: qizg'ish zarhal sher oq ohuni quvmoqda. Quyosh bodomqovoq, qiyiq ko'zli yuz shaklida tasvirlanib, zarhal tusil yog'du bilan hoshiyalangan. Madrasa peshtoqiga Yalangto'sh Bahodirni ulug'lovchi she'r bitilgan. «Sherdor» so'zi "Sher aksi bor ", degan ma'noni anglatadi...

« Tillaqori » madrasasini hikoya qilayotganda - «Tillaqori» madrasasining masjidi ichiga boshqa bir katta obida qurishga yetadigan miqdorda oltin sarflangan. Shuning uchun ham madrasa "Tillaqori ", ya'ni "tilladan ishlov berilgan", deb ataladi. Podshohlikdan ko'ra binokorlik ishlarini afzal ko'rgan Yalangto'sh Bahodir 1656 yili vafot qildi. Vasiyatiga ko'ra, uni Dahbeddagi Maxdumi A'zam ziyoratgohiga dafn etishadi. .

Oldindan sharhlash- hikoya qilishning bunday metodik usuli sayyohlar qiziqarli, boy ekskursiya ob'ektlari to'plangan joyda kelib qolganlarida ishlatiladi. Bu yerda ob'ektlar shunchalik ko'pki sayyohlar u haqda tezroq bilishni istaydilar(Xivadagi Ichan-qal'a, Samarqanddagi al-Buxoriy majmuasi, Moskvadagi Qizil maydon). Bunday paytda gid ob'ektning nomi va u haqda qisqacha ma'lumot berishi kifoya(bu ob'ekt texnologik haritaga kiritilmagan bo'lishi ham mumkin). Bu bilan u sayyohlarning qiziquvchanligini(lyubopitstvo) tinchlantirib, marshrut bo'yicha yana ob'ektlarni hikoya qilaveradi.

Izahlash- ishlab chiqarish jarayonida, ob'ekt namoyish etilayotganda bu metoddan foydalaniladi. Masalan, ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etilgan ekskursiyalarda yig'ish sexida ishlayotgan konveerlar(traktor,kombayn, avtomobil yig'ish sexida) harakati kuzatilayotganda gid qisqa ma'lumotlar yordamida guruh kuzatayotgan

jarayonni izohlaydi. Barcha e'tibor ob'ekt, hodisa, voqealarning maxsus xususiyatlariga qaratilishi shart.

Sitatalardan foydalanish- tarixiy voqealarni yorqin ifodalash, sayyohlar ko'z oldida obrazlar, hodisalarni jonlantirish maqsadida tarixiy hujjatlar, adabiy asarlardan qisqa bir parchani matnga kiritishdir. Sitata qisqa, lo'nda, aniq, kerakli joyda va vaqtda ishlatilishi shart. Sitatalardan meyoridan ortiq foydalanish ham noto'g'ri, sayyohlar gidning mavzu bo'yicha shaxsiy fikriyo'q deb o'ylashadi.

Sitatalarni 10x15 sm o'lchamli kartochkalarga yozish kerak. Bu ayniqsa, yangi mavzu bo'yicha ekskursiya ilk marotaba olib borilayotgan bo'lsa. Gid sitatani to'liq qog'ozga qarab o'qimasligi, eshituvchilarga qarashi va har zamondagina qog'ozga ko'z tashlashi mumkin.

Adabiy montaj- bu hikoya qilishning murakkab metodik usulidir.Unda bir yoki bir necha mualliflar badiiy asarlaridan, xotira daftarlaridan, hujjatlardan, maqolalardan parchalar tanlanadi va gid undan voqealar yoki mashhurlar obraziniqayta tiklashda foydalanadi.

Tanlangan parchalardan tayyorlangan matn ma'no va badiiy jihatdan yaxlit bo'lishi kerak. Sayyohlar nima haqida gap ketayotganini, voqealar dinamikasini his etishlari muhimdir.

Adabiy montaj usuli adabiy va tarixiy mavzuli ekskursiyalarda qo'llaniladi. Gidlar bu usuldan kam foydalanadilar, chunki bu usul ulardan adabiyot va tarixni yaxshi bilishlarini, artistlik qobiliyatini talab qiladi.

2. Ekskursiya olib borishning maxsus metodik usullari

Yuqorida ko'rib chiqilgan metodik usullar ekskursiyani olib borishning asosiy usullari hisoblanadi, lekin ular hammasi emas. Gid qanchalik malakali bo'lsa, ekskursiya maqsadiga erishish uchun u shunchalik ko'p metodik usullardan foydalanadi. Bunday samarali uşullar quyidagilar:

Voqea qatnashuvchilari bilan uchrashuv- bunda yozuvchilar, shoirlar, olimlar, mehnat va urush qahramonlari jalb etiladi. Uchrashuvlar ekskursiyani bezaydi va uni yanada qiziqroq bo'lishiga olib keladi. Lekin bunday uchrashuvlar mantiqan asoslangan va yaxshi tayyorgarlik ko'rilgan, ko'riladigan savollar aniq belgilangan bo'lishi kerak. Uchrashuvlar albatta, ekskursiya mavzu va maqsadiga mos bo'lishi, uning tarkibiy qismiga aylanishi lozim. Uchrashuvga taklif qilinganlar chiqishi uzoqqa cho'zilmasligi va gid bergan malumotlarni qaytarmasligi zarur.

Tanishuv paytida qo'llaniladigan metodik usul bu suhbatdir. *Suhbat* taklif etilgan mehmonning kichik chiqishidan so'ng boshlanadi. Suhbat murakkab metodik usuldir va agar u gid tomonidan boshqarib borilmasa, kutilgan natijani bermasligi va hatto ekskursiya jarayonini buzishi mumkin.

Ovoz yozish asmalarini eshitish- bu metodik usulni gidlar o'z tajribalarida tez-tez qo'llaydilar. Mashhur yozuvchi, shoir, bastakorlar hayoti va ijodiga bag'ishlangan adabiyot va sanat mavzusidagi ekskursiyalarda, ular yashab, ijod qilgan joylar tomosha qilinayotganda asarlaridan parchalar qo'yib eshitiladi. Lekin bu ham uzoq davom etmasligi va mantiqiy davomiylikni buzmasligi kerak.

Ritualdan foydalanish metodida sayyohlar urush bo'lib o'tgan joylarni, qabristonlarni, muqaddas olovni ziyorat qilganlarida bir daqiqa sukut saqlab, u yerga gullar qo'yadilar, motamsaro kuylar eshitadilar, posbonlar marosimini kuzatadilar, halok bo'lganlarni xotirlaydilar.

Bu ritual o'zining tarbiyaviy ahamiyatiga ega bo'lishi uchun gid guruh bilan oldindan tushuntirish ishlarini olib borishi kerak. Gid sayyohlarga bu marosimning muhimligini ishontirsagina uni o'tkazish mumkin.

Tadqiqot metodidan gidlar bolalar, yoshlar guruhi bilan ishlaganda foydalanadilar. Bu yerda guruh bilan kichik tadqiqot ishlarini olib borishga to'g'ri keladi, natijada esa gid aytganlari tasdiqlanishi kerak. Masalan, botanika bog'ida daraxt halqalarini sanab chiqish orqali uning yoshini aniqlash. Daryodagi suv oqimi tezligini oddiy cho'p bilan hisoblash.

Nemelyanov o'z kitobida tadqiqot usuliga quyidagi misolni keltiradi: Armanlarning yodgorligi hisoblanmish Zvartnots cherkovida tadqiqot usulidan foydalanish mumkin. U yerda joylashgan quduqlar chuqurligini yoqilgan qog'ozni tashlash orqali bilish mumkin. Yorug'likda quduqning devorlarini ham ko'rinadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etilgan ekskursiyada ham bolalar korxonada ma'lum vaqt mobaynida necha turdagi mahsulot ishlab chiqilayotganini kuzatadilar. Bu usul sayyohlarni faolroq bo'lishga undaydi va shu bilan ekskursiya qiziqarliroq o'tadi.

Suhbatlashuv metodik usuli bu auditoriya e'tiborini jalb qilish maqsadidagi maxsus notiqlik (oratorlik) metodidir. Gid nutqi ham rasmiy chiqishlar tarkibiga kiradi va o'zining maxsus xususiyatlariga ega. Har bir notiqlik nutqi eshituvchilarga chiqish mavzusini anglashga, o'rganishga qiziqish uyg'otishi kerak. Ekskursiya mazmuni qiziqarli bo'lsagina u eshitiladi. Ammo notiqlik sanati qanchalik qiziqarli bo'lmasin baribir

odamning eshitish qobiliyati asta-sekin pasayadi. Buni gid ham juda yaxshi biladi. "Zaiflashgan e'tibor" bilan kurashish uning asosiy vazifasidir. Gid diqqat, e'tiborni saqlab qolish yo'llarini mohir notiq sifatida bilishi kerak. Diqqat, e'tiborni aktivlashtirish yo'llaridan biri bu savol-javob usulidir.

Gid auditoriyaga mavzu bo'yicha savol beradi, bir ozdan so'ng o'zi yana shu savollarga javob beradi. Bu bilan u sayyohlarga ikkilanish hissini paydo qiladi, ularni aniqlab, tegishli xulosalarga keladi. Masalan: Nima deb o'ylaysiz, shu bino qanaqa memoriy uslubga tegishli? Mazkur voqea ushbu tarixiy davrga qanday rol o'ynaydi?

Tabiiyki, gid berilgan savollarga hamma vaqt ham javob kutmasligi kerak. Uning o'zi bu savollarga to'liq javob beradi. Lekin savol sayyohlar e'tiborini muammoga qaratadi, qiziqishni shakllantiradi, diqqatni jamlaydi.

3. Diqqat (e'tibor) krizisi va uni bartaraf etish yo'llari

Diqqat qilish - bu odam ruhiy faoliyatini yo'naltirish va shaxs uchun biror ahamiyatga ega ob'ektga fikrni jamlashdir. Ekskursiya materiallariga sayohlarning diqqatini jalb etish uchun gid ularning fikrlash faoliyatlarini to'g'ri yo'naltirishi kerak. Ekskursiya mavzusi dolzarb, namoyish ob'ektlari va hikoya uyg'unlashgan, mazmunli, tushunarli, yangiliklarga boy bo'lsa, sayyohlar diqqati barqaror bo'ladi. Hatto qiziqarli axborot ham ko'p bo'lsa, diqqat krizisiga olib keladi. Gid bu jarayon bilan kurashishni o'rganishi kerak.

Lekin gid hikoyasining qaysi daqiqalaridan diqqat krizisi boshlanadi? Ekskursiya olib borish bilan bog'liq bunday ilmiy tadqiqotlar no'malum. Har bir gid o'z tajribasida diqqat krizisi muammosi bilan to'qnashadi. Uning davomiyligi ko'pgina sabablarga bog'liq: barchaga ma'lum eskirgan ma'lumotlar; gid nutqida obrazlilik va his-hayajonning yo'qligi; namoyish bilan hikoya o'rtasida bog'liqlikning yo'qligi; guruh xususiyatlari(yoshi, millati) gid tomonidan hisobga olinmaganligi...

Diqqat krizisi boshlanish vaqti haqidagi ma'lumotlarni ma'ruza metodikasidan olish mumkin. Auditoriya oldidagi notiqlik chiqishlari xususiyatlarining tadqiqoti shuni ko'rsatmoqdaki, eshituvchilardagi birinchi diqqat krizisi ma'ruzaning 14-18 daqiqasida, ikkinchisi birinchisidan so'ng 11-14 daqiqada, uchinchisi 9-10 daqiqadan so'ng, to'rtinchisi 8-9 daqiqadan va keyinchalik diqqat krizisi orasidagi interval qisqarib boraveradi. (Har 4-5 daqiqada). Birinchi ko'rsatkich yosh auditoriyaga, ikkinchi yoshi katta auditoriyaga tegishlidir.

Bu ma'lumotlardan gidlar ham foydalanishlari mumkin. Ular shubhasiz notiqlar kategoriyasiga kiradilar. Lekin bino ichida o'qiladigan ma'ruzalardan farqli ravishda ekskursiya jarayoniga tashqi muhit, shovqin va boshqa omillar gidlarning ishini murakkablashtiradi.

Ekskursiyada ekskursiya ob'ektlari, tashqi fon o'zgarib turadi, bu esa sayyohlar diqqat e'tiboriga yaxshi tasir ko'rsatadi. Lekin materialni hikoya qilish jarayoni tanaffuzsiz, bir ob'ekt oldida 10-15daqiqa davom etsa, yoki avtobusda harakatlanayotganda atrof-muhit o'zgarishsiz qolsa, diqqat krizisi boshlanadi. Diqqat krizisning birinchi alomatlarini ob'ekt oldida hikoya boshlashdan so'ng 4-5 daqiqalarda aniqlash mumkin: Sayyohlar bir-biriga savol bilan murojaat qiladi; hikoyaga e'tibor pasayadi(buni ko'z qarashlardan anglash mumkin); ba'zilari guruhdan chetlashib ob'ektni o'zlari tomosha qiladilar.

Diqqat krizisini yengib o'tish va sayyohlar diqqatini yuqori darajada saqlash, guruh faolligini oshirish uchun gidlar oldindan psixologik – pedagogik usullar o'ylab chiqarishlari kerak. Sayyohlar diqqatini saqlab qolish uchun quyidagi metodik usullar tavsiya etiladi.

Birinchi va eng asosiysi – ekskursiya obektlarini ko'rsata olishdir. Metodik ko'rsatmalarga muvofiq 3 soatlik shahar ichidagi avtobusli sharhli ekskursiyada 10-15 tagacha asosiy ob'ektlar kiritish mumkin. Shundan kelib chiqib har bir ob'ekt hikoyasiga 4-5 daqiqa vaqt sarflanadi, demak ekskursiya ishida shu vaqt *me'yor* sifatida qabul qilinadi.

Eslatib o'tamiz: namoyish etish sayyohlar diqqatini faollashtirishga samarali rol o'ynashi uchun u konkret, obrazli, faol, mantiqan ketma-ket, mavzuni yoritishga yordam berishi kerak.

Diqqat krizisini bartaraf etishga tavsiya etiladigan yana bir vosita bu «gid portfeli» dagi ko'rgazmali vositalardir. Marshrut uchastkalarida ob'ektlar kam bo'lganda va gid 10-15 daqiqadan ziyod gapirayotganida, ulardan foydalanish ayniqsa, juda muhimdir. Ko'rgazmali vositalar qariyb barcha ekskursiyalarda mavjuddir. Ko'rgazmali vosita sayyohlar diqqatini jalb qilib, hikoyaga qiziqish uyg'otadi. Endi ular eshitish orqali qabul qilishdan ko'rish orqali qabul qilishga o'tadilar va ekskursiya materiallarini yanada faolroq qabul qiladilar.

Ekskursiya mazmuniga diqqat qilish krizisini bartaraf etishda ekskursiyaning u yoki bu qismida yorqin faktlar qiziqarli epizodlarni kiritish tavsiya etiladi. Hikoyada taqqoslash uchun raqamli materiallardan foydalanilsa, yaxshi samara beradi (Moskva 800 yillik, Marg'ilon 2000 yillik, Samarkand esa,2750 yillik tarixga egadir). Bunday taqqoslash ifodali eshitiladi va sayyohlar tomonidan yaxshi qabul qilinadi.

Diqqat e'tiborni saqlab qolish maqsadida qo'llaniladigan yorqin faktlar, aniq misollar ekskursiya tarkibiga mantiqan kirishib ketishi, mavzudan chiqib ketmasligi kerak. Faktlar me'yoridan ziyod yoki mavzu bilan bog'lanmagan bo'lsa, ekskursiyaga bo'lgan qiziqishni so'ndiradi. Bunga ekskursiya matnini tuzishda, albatta e'tibor berish zarur.

Diqqat krizisini bartaraf etishning yana bir usuli bu hikoyalarda latifa, hazillardan foydalanishdir. Latifa aqliy va jismoniy bosimni bartaraf etadi. Kulgu, latifaning yana bir yaxshi tomoni, u guruh va gid o'rtasidagi muhitni iliqlashtiradi, ishonch uyg'otadi. Lekin gid shuni yodda tutishi kerakki, eshituvchilarni atayin kuldirish, mavzuga mos kelmaydigan latifa aytishga harakat qilishi noto'g'ridir. Diqqatni faollashtirish uchun hazilni qo'llayotganda u me'yorida va madaniyatli bo'lishi kerak.

Sayyohlar diqqatini jalb etishning yana bir yo'li savol-javob metodidir. Bu haqda o'tgan mavzularda aytib o'tilgan edi. Diqqat qilish krizisi bilan kurashishda eng yaxshi vosita bu aniq, yetarli, puxta ko'rib chiqilgan ob'ektlarni namoyish etishdir.

Tayanch iboralar: Ekskursiya xizmatlari matni, ekskursiyani olib borishning maxsus metodik usullari, ekskursiya ma'lumotlari, oldindan sharhlash, tasvirlash, tushuntirish, izohlash, sitatalardan foydalanish, adabiy montaj, diqqat (e'tibor) krizisi.

Mustaqil nazorat qilish uchun savollar:

1. Ekskursiya xizmatlari hikoyasining mohiyati tushuntirib bering.
2. Ekskursiyani olib borishning maxsus metodik usullari.
3. Ekskursiya malumotlari, oldindan sharhlash metodik usullarini tushuntiring.
4. Tasvirlash, tushuntirish, sitatalardan foydalanish, adabiy montaj metodik usullarini tushuntiring.
5. Diqqat krizisi nima?
6. Diqqat krizisini bartaraf etish yo'llarini aytib bering.

Mavzu 7 Ekskursiyani olib borish texnikasi

Reja:

1. Ekskursiyani olib borish texnikasining mazmuni.
2. Ekskursiyada tanaffus.
3. «Gid portfeli» materiallarini namoyish etish.

1. Ekskursiyani olib borish texnikasining mazmuni

Har bir ekskursiya samaradorligi nafaqat tanlangan ob'ekt, ishlab chiqilgan marshrut, gid bilimiga, balkim ekskursiyani olib borish texnikasiga ham bog'liq. Ekskursiya jarayonidagi tartib, materiallarni qabul qilish uchun yaratilgan sharoitlar aynan texnikaga bog'liq. Ekskursiyada jarayonida uni olib borish texnikasi gid professional ustaligining tarkibiy qismi bo'lib, uning ekskursiya guruhini boshqarishdagi rahbarlik mahorati amalda sinaladi.

Ekskursiyani *olib borish texnikasiga* quyidagilar kiradi:

* gidning guruh bilan tanishishi;
* sayyohlarning avtobusdan tushishi;
* avtobusdan ob'ektgacha bo'lgan harakat;
* gidning ob'ektoldida joylashishi;
* avtobusga qaytish;
* tuzilgan reja-sxemaga mos ravishda ekskursiya rejasiga amal qilish;
* sayyohlar bilan savol-javob o'tkazish;
* ekskursiya jarayonida individual matndan foydalanish;
* «gid portfeli» va ovozyozish tasmasidan foydalanish;
* mikrofon bilan ishlash.

Guruh bilan tanishishi. Gid guruh yoniga borib, yoki avtobusga chiqishdan avval guruh bilan tanishishi kerak. Shu maqsadda salomlashib, o'zining familiyasi, ismi, sharifi, ekskursiyani tashkil etgan turfirma nomini va avtobus haydovchisini tanishtiradi.Keyin ekskursiya mavzusini e'lon qilib, sayyohlarni marshrutga qiziqtirish uchun bir necha mashhur yodgorlik bo'ylab yurishni sanab o'tadi, marshrutni qisqacha harakterlaydi, uning davomiyligi, boshlanish va tugash vaqti, joyini e'lon qiladi.

Gid chiqish so'zining oxirida ekskursiya jarayonida sayyohlar o'zlari qanday qoidalari kerak aytib o'tadi: avtobus harakat paytida o'rindiqlarni tark etmaslik, to'xtash joylarida gidni ogohlantirmay biror yerga ketib qolmaslik, faqat o'z joyiga o'tirish, avtobusda chekmaslik, haydovchiga halaqit bermaslik. Ekskursiya amaliyotida

o'rnatilgan guruh bilan muloqot qoidalariga gid o'z harakatlarini ekskursiya boshidanoq moslashtirishi muhimdir.

Avtobusda gidning o'rni. Chiqish so'zini gid salonning oldingi qismida sayyohlarga qaragan holda tik turib so'zlaydi. (avtobus harakatlanishidan oldin). Keyin o'ng tarafdagi birinchi qatorda, o'z ish joyiga o'tirib, yo'l-yo'lakay sayyohlar chap va o'ng tomonlarga nimalarni ko'rayotganlarini hikoya qilib boraveradi. Hikoyani gid sayyohlarga yuzma-yuz turib hikoya qilishi mavjud qoidalarga ko'rsatilmagan (shart emas!).

Avtobusdan tushish va sayyohlarning keyingi harakati. Ob'ektni kuzatish uchun belgilangan to'xtash joyiga birinchi bo'lib gid tushadi, avtobus oldidan chetroqqa o'tib, guruhni kutadi. Avtobusdan ob'ektgacha, ob'ektdan ob'ektgacha va ob'ektdan avtobusgacha bo'lgan harakatlar birdamlikda amalga oshiriladi. Gid o'rni guruh boshida bo'ladi. Gid guruh harakatini kuzatishi, tarqalishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Guruh boshi va oxiri o'rtasidagi masofa 8 -10 metrdan oshmasligi lozim. Gid guruh harakati tezligi(tempi) ekskursiya yaxlitligini buzmasligiga erishishi zarur.

Guruh harakati tezligi uning tarkibiga (bolalar, yoshlar, o'rta yosh, yoshi katta), joy relefiga (toqqa chiqish), yo'llar ahvoliga (tabiat qo'ynida tashkil etilgan ekskursiyalar), ishlayotgan sehlardagi xavfli zona va boshqalarga bog'liq. Piyoda ekskursiyada, yoki ekskursiyaning piyoda qismida harakat tezligi osoyishta, sekin bo'ladi.

Harakat paytida hikoyani davom etmaslik kerak. Chunki uni faqat gidga yaqin turganlar eshitishi mumkin. Harakat paytida sayyohlar savoliga javob berish yoki shunchaki suhbatlashish maqsadga muvofiqdir. Suhbat mazmuni ekskursiya mavzusiga mos kelsa yanada yaxshiroq bo'ladi. Ekskursiya ob'ektiga yetib kelgach, gid hikoyasini boshlashidan oldin, barcha guruh a'zosi yetib kelganiga ishonch hosil qilish kerak. Lekin avval guruhni ob'ekt oldida to'g'ri joylashtirish lozim.

Uzoq vaqtli shahar va shahar tashqarisidagi ekskursiyada sanitariya to'xtash yoki suvenirlar olish uchun to'xtash tashkil etilgan hollarda, gid ekskursiya davomiyligi va avtobus to'nash vaqti soati va daqiqasini aniq e'lon qilishi shart.

Guruhning ob'ekt oldida joylashishi. Guruhning ob'ektlar oldida joylashishi eng avvalo ularning xavfsizligini ta'minlash kerak. Ayniqsa bu ob'ekt yonida qurilish ishlari olib borilayotganda, transport harakatlanayotganda, ishlab chiqarish sehlarida, tabiat yon bag'rida tashkil etilgan ekskursiyalarga tegishlidir. Ekskursiyani tuzgan ijodiy guruh tomonidan bitta ob'ektni ko'rib chiqish uchun, ikkita va hatto bir nechta

nuqta belgilanishi mumkin. Hammasi ekskursiya marshrutiga bog'liq. Masalan, [illegible] ob'ekt atrof-muhit bilan birga ko'rsatilganda [illegible] inshoot, tabiat ob'ektlarining alohida detallari tahlil [illegible] tanlanadi. Ekskursiyaning texnik xaritasida guruhning [illegible] nuqtalari, ko'rsatilishi shart. Nuqta tanlanganda sutka vaqti, yil fasli, mavsumini hisobga olish zarur. Yozning issiq kunlarida [illegible] joylashtirish kerak, quyosh nurlarini tomosha qilishga halaqit bermasligi uchun. Yomg'ir paytida panaroqqa joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Ob'ektoldida guruhning eng qulay joylashish varianti bu yarim aylana shaklidir. Gid shu yarim aylananing bir chekkasida sayyohlarga yarim o'girilgan holda turadi. Gid qo'l harakatlari bilan ko'rsatib sayyohlarni shundan holda tomosha qilishlarini iltimos qiladi. Ekskursiya amaliyotda gid shu yarim aylanaga o'rtasida turadigan hollari ham uchraydi. Bunday holatda gid nikoyasini barcha sayyohlar eshitadi, ovozni ko'p baland qilish ham shart emas, lekin ob'ektga orqa tomoni bo'ladi, bu esa gidning qo'l bilan ko'rsatishlari hamma vaqt ham to'g'ri yo'nalishda bo'lishini ta'minlamaydi.

Agar ob'ektoldida bir vaqtning o'zida bir nechta guruh joylashgan bo'lsa, ular orasida shunday masofa saqlash kerakki, o'z hikoyalari bilan gidlar bir-birlariga, guruhlar esa tomosha qilishiga halaqit bermasinlar.

Sayyohlarni avtobusga qaytishi. Avtobusga avval sayyohlar, so'ngra gid chiqadi va hamma o'z o'rnini egallaganmi, qiziqadi. Sayyohlarni sanab chiqish tavsiya etilmaydi. Tadbir qatnashchilarining hammasi joylashishga shoshib hosil qiluvchi haydovchiga harakatni boshlashini ishora qilishi mumkin.

Ekskursiyani olib borish vaqtiga amal qilish bu gid bajarish lozim bo'lgan [illegible] texnik xaritadagi barcha talablarga aniq rioya etishi kerak. Ekskursiyada bir mavzuga ajratilgan vaqt daqiqasigacha ko'rsatiladi. Belgilangan vaqtga rioya qilish gid professional ustaligi darajasi bilan bog'liq, va [illegible] amaliy tajribani talab etadi. Lekin gidga bog'liq bo'lmagan sabablar tufayli ekskursiya vaqti qisqaradi (kechikkan avtobus, [illegible] yig'ilmagan guruh...). Shunda gid ba'zi mavzularga ajratgan asosiy [illegible] mavzularni saqlagan holda, ko'rsatish va hikoyalardagi ikkinchi darajali [illegible] olib tashlab ekskursiyani olib borish zarur. Ekskursiyani olib borish jarayoni ko'pgina tashqi omillarga ham bog'liq, shuning uchun gid o'zi materiallarni qisqartirishga tayyor bo'lishi va buni sayyohlarga bilmay amalga oshirish muhimdir.

2. Ekskursiyalarda tanaffus

Ekskursiyalarda tanaffus – asosiy tarkibiy qismi bo'lib, oldindan rejalashtiriladi. Ular marshrut bo'yicha, mavzuga bog'liq namoyish ob'ektlari mavjud bo'lmaganda, ekskursiyalarda maqsadlidir. Bunday tanaffuslar maqsadi – sayyohlar hikoyadan dam olishadi va bir-birlari bilan qiziqarli faktni muhokama qilishadi. Yana sayyohlarga ekskursiya ob'ektlarini mustaqil aylanib chiqishlari uchun tanaffus beriladi, bu ularga mavzuni yanada chuqurroq anglashiga yordam beradi. Tanaffus paytida gid sayyohlar harakatini ohista yo'naltirishi zarur.

Kutilmagan hodisalarga reaksiya. Ekskursiya jarayonida kutilmagan hodisalar har xil bo'ladi: shovqinli to'y marosimi, tez o'tib borayotgan yong'in o'chirish mashinasining sirenasi, birdaniga paydo bo'lgan itlar to'dasi va boshqalar albatta sayyohlar e'tiborini tortadi. Bunday paytlarda gid o'zini qanday tutishi kerak? Eng avval ko'rmayotganga olmasligi lozim. Yaxshisi ekskursiyani to'xtatib, tasodifiy hodisalar tinchib ketmagunicha yoki guruhning unga qiziqishi pasaymaguncha kutishi kerak. Bo'lib o'tayotganlarga gid qisqacha ma'lumot bersa ham yaxshi bo'ladi. Masalan: to'ylar soni, to'ydagi eng qiziqarli voqealar haqida. Kutilmagan holatlarni to'g'ri qabul qilib, ekskursiya mavzusini yoritishga yordam bermasada, hodisani ekskursiyaning qo'shimcha ob'ekti sifatida qarash lozim.

Sayyohlar bilan savol-javoblar. Ekskursiya jarayonida qatnashchilarga savol tug'ilishi tabiiy. Agar unga tezda javob berilsa bu ekskursiya ketma-ketligini buzib auditoriya diqqatini ekskursiyaning asosiy mazmunidan jalg'itishi mumkin. Gid avtobusdagi chiqish so'zida yoki hikoyani boshlashidan avval tug'iladigan savollarga u ekskursiya oxirida javob berishi haqida sayyohlarni ogohlantirishi kerak va u shu pozitsiyaga amal qilishi lozim. Agar namoyish adresli, materiallar chuqur tahlil qilingan, faktlar aniq, xulosalar mantiqiy bo'lsa, savollar va tushunmovchiliklar paydo bo'lmaydi.

Ekskursiya jarayonida individual matndan foydalanish. B.V.Yemelyanov individual matndan foydalanish bo'yicha qo'yidagicha tavsiyalarni beradi:

«Gid ma'ruzachi kabi o'zining individual matnidan foydalanishi mumkin. Shuning uchun hikoyaning asosiy mazmunini maxsus kartochkaga ko'chirish tavsiya etiladi. Kartochkada ob'ekt haqida ma'lumotlar, hikoyaning asosiy mazmuni, yodgorlik tahlili sxemasi,

sitatalar, tarixiy sanalar, raqamli materiallarning qisqacha mazmuni sharhi yoziladi.

Kartochkadan foydalanishning bir xususiyati mavjud. Ekskursiya jarayonida gid hamma matnni o'qimaydi, faqatgina unga qarab hikoya mazmunini aniqlashtiradi. Shahar va ayniqsa shahardan tashqaridagi ekskursiyalar tanaffusi paytida u kartochkani ko'rib chiqib, hikoya materiallarini xotirasiga qayta tiklaydi. Kartochkalar ekskursiya jarayonida foydalanish uchun qulay bo'lishi kerak. Ularning tavsiya etilgan o'lchami A4 formatli qog'ozning to'rtdan bir qismi yoki yarmi. Adashmaslik uchun kartochkalarni raqamlab chiqish zarur. Ekskursiyada individual matn yozilgan kartochkadan foydalanish har bir gidning o'z huquqidir(malakasi, bilimidan qat'iy nazar)».

Mikrofondan foydalanish. Ekskursiya muvaffaqiyati ko'p hollarda mikrofonga ham bog'liq. Avtobusdagi mikrofondan foydalana olmaslik, nosoz mikrofon gid tayyorgarligiini puchga chiqaradi. Shuni yodda tutish kerakki, kuchaytiruvchi vosita orqali eshitilayotgan ovoz tembri ko'pincha tushunarsiz va xirillab chiqishi mumkin. Ba'zida t, p, s, sh, ch harflarida ortiqcha jarang paydo bo'ladi.

Mikrofondan foydalanishda yuzaga keladigan kamchiliklarni quyidagicha bartaraf etish mumkin: a) aniq artikulyatsiya; b) nutq tezligini pasaytirish; v) mikrofonni ovoz havosi bosimiga bir maromda sag'lab turish kerak.

Avtobusda har xil turdagi mikrofonlar o'rnatilgan. Gid ekskursiya boshlanishida, avvai, guruh yig'ilmasidan, haydovchi yordamida mikrofon ishlashini tekshirishi zarur (bir nechta so'z aytib ko'rish, og'izgacha ushlash masofasini aniqlash...).

3. «Gid portfeli» dagi materiallarni namoyish etish

«Gid portfeli» dagi materiallarni namoyish etish - bayon etiladigan materiallar talab qilsagina amalga oshiriladi. Bu ham ob'ekt haqida hikoyada qo'shimcha illyustrativ materiallar sifatida (muallif portreti, binoning ilk ko'rinishidagi rasmi) va ham ekskursiya marshrutida mavzu bo'yicha ob'ektlar bo'lmaganda foydalanish mumkin. Eksponatlar hammaga ko'rinishi uchun bosh balandligida ko'rsatiladi. Namoyishdan so'ng eksponatni sayyohlar qo'liga bermasligi kerak, chunki bu ularni keyingi hikoyaga diqqat qilishlarga xalaqit beradi. Faqatgina tanaffus paytida namoyish etilgan vositalarni sayyohlar qo'liga berish mumkin. Lekin «gid portfeli» dagi ko'rgazmali vositalarni tarqatma materialga

aylantirib, vaqtni ketkazishi noto‘g‘ri. Faqat ba’zi eksponatlar tarqatma materiallar sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Tayanch iboralar: Ekskursiyani olib borish texnikasi, gidni guruh bilan tanishishi; sayyohlarning avtobusdan tushishi; avtobusdan ob’ektgacha bo‘lgan harakat;guruhning ob’ekt oldida joylashishi; avtobusga qaytish; texnologik sxemaga mos ravishda ekskursiya rejasiga amal qilish;sayyohlar bilan savol-javob o‘tkazish; ekskursiya jarayonida individual matndan foydalanish; «gid portfeli» va ovoz yozish tasmasidan foydalanish; mikrofon bilan ishlash; ekskursiyada tanaffus, «Gid portfeli» materiallari.

Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar:

1. Ekskursiyani olib borish texnikasi haqida gapiring.
2. Gidni guruh bilan tanishishi jarayonini tushuntiring.
3. Sayyohlarning avtobusdan tushishi va avtobusdan ob’ektgacha bo‘lgan harakat jarayonini tushuntiring.
4. Guruh ob’ekt oldida qanday joylashishi kerak?
5. Nima uchun sayyohlar bilan savol-javob o‘tkaziladi?
6. Ekskursiya jarayonida individual matndan foydalanish ahamiyati haqida so‘zlab bering.
7. Mikrofon bilan ishlash texnikasini tushuntiring.
8. Ekskursiyalarda tanaffusning ahamiyati nimada?

Mavzu 8. Gidning nutq madaniyati va uning kasbiy xususiyatlari

Reja:

1. Gid nutqiga qo'yilgan talablar.
2. Gid nutqining tarkibi.
3. Hikoya qilishda ovoz kuchining ahamiyati.
4. Noverbal muloqot
5. Gidning guruh bilan munosabati.

1. Gid nutqiga qo'yilgan talablar

Har bir gidga qo'yilgan proffesional talab – bu yuqori darajali nutq madaniyatiga ega bo'lishidir. Gid so'z ustasi bo'lmasa ekskursiyaning muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun u notiqlik san'ati asoslarini egallashga intilishi kerak.

Mazkur bo'limda faqatgina individual matn va ekskursiyani o'tkazishda zarur bo'ladigan, rioya qilish zarur bo'lgan, nutq madaniyatining bir necha qoidalari yoritiladi.

Gidning nutq madaniyati asoslarini original mualliflik ishlanma sifatida qabul qilish noto'g'ri. Axir ming yillar ichida notiqlik san'ati bo'yicha yozib kitoblar yozilgan. Notiqlik san'ati bo'yicha adabiyotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, Ye.A.Nojinning «Ittifoq orotorlik san'ati asoslari», A.A.Vvedenskaya va L.R. Pavlovalarning «Nutq madaniyati va san'ati», Deyl Karnegining "Rasmiy chiqishlar orqali insonga ta'sir ko'rsatish va o'ziga ishonchni kuchaytirish" asarlarida bu masala batafsil yoritilgan.

Demak, Gid o'z faoliyatining muhim qismi hisoblanmish notiqlik madaniyati haqida nimalarni yodda tutishi va hisobga olishi shart? No'tiqning nutq madaniyati nima?

Ye.A.Nojin bu haqida qo'yidagilarni yozadi:

«Notiqning nutq madaniyatini ko'pincha to'g'ri nutq ya'ni, umumiy qabul qilingan, til me'yorlariga to'g'ri keladigan nutq deb hisoblashadi. **Notiqning nutq madaniyati** - bu mazkur auditoriyaga aniq holat, qo'yilgan vazifaga mos ravishda, eng yaxshi ta'sir etishni ta'minlovchi til materiallarini ishlatishdir».

Gid shuni yodda tutishi kerakki uning sayyohlar nazdidagi nutqi bu og'zaki nutq va u yozma nutqdan tarkibi, jumlalar hajmi bilan farqlanadi. Notiqlik chiqishlar uchun qisqa va uncha murakkab bo'lmagan jumlalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki ularni eshitish ham osonroq. Uzun jumlalarga qarshi qadimiy notiqlar shunday degan «uzun

jumlalar eshituvchining quloq'iga va ham notiqning nafas olishiga yomon ta'sir qiladi».

Og'zaki nutq –ovoz bilan ifoda etilgan yozma nutqdir. Gid individual matn, to'plangan adabiy, ilmiy, gazeta, arxiv, statistik materiallarni albatta, og'zaki nutq qoidalariga moslashtirishi maqsadga muvofiqdir.Tadqiqotlar shuni isbotlamoqdaki, yozma nutqlarga ovoz berilganda eshituvchilar axborotning 50 % ni, chiqishlar og'zaki nutq me'yorlari bo'yicha tuzilgan bo'lsa, axborotning 90 %ni qabul qilishar ekan. Bu tadqiqotlar ma'ruzachi nutqi samaradorligini harakterlaydi. Ekskursiya chiqishlarida esa, gidga yana tashqi muhit halakit beradi, bu esa jonlantirilgan yozma nutqni qabul qilish samaradorligiyanada pasaytiradi.

Og'zaki nutqda gap tartibi o'zining erkinligi bilan farq qiladi. Yozma nutqda sistematik, bir-biriga bog'liq, mantiqan to'g'ri bayonlar, fikrlar harakterli bo'lsa, og'zaki nutq ko'pincha vaziyatli bo'lib, ko'pgina qo'shimchalar holatga, eshituvchilar reaksiyasiga qarab kiritiladi. Og'zaki nutqda tabiiyki, ba'zida so'zlar tartibi buzilgan va aynan shu tufayli so'zlashda jonlilik va tabiiylikka erishiladi. Notiqning nutq madaniyatining eng muhim elementlaridan biri bu *so'zlarni to'g'ri ishlatishdir*. So'zlar to'liq, mazmuniga ko'ra va boshqa so'zlar bilan uyg'unlashgan holda ishlatilsagina, shundau auditoriyaga ta'sir qiladi.

Gid nutq madaniyatining muhim ko'rsatgichlari bu so'zlarning to'g'ri talaffuzidir. Auditoriya hamma vaqt buzib talaffuz qilingan so'zlarga e'tibor berishadi. Agar talaffuzdagi xatolar takrorlanaversa bu auditoriya ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, so'zlarni qabul qilishgaxalaqit beradi.

Ko'pgina hollarda qahramonlarning familiyasi, ismi, geografik joylar, har xil xorijiy atamalarning talaffuzida qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Bunday paytda gid lug'atdan foydalanish kerak bo'ladi (lug'atni har bir kitob magazinidan olish mumkin).

Nutqda «keraklicha e'tibor berilmoqda», "yuksak pog'onalarga ko'tarish", «asosiy maqsad qilib qo'yish» va shu kabi shtamplardan foydalanish nutqni ma'nosiz, jonsiz, obrazsiz qilib qo'yadi.

So'zli shtamplarning yana bir turi biri bu kanselyarizmdir. Kanselyarizm-bu rasmiy- ishchi yozma nutqning standartlashtirilgan aylanmasidir. Ularni notiqlarning radio, televideniya orqali chiqishlaridan, gazeta, jurnallar sahifalaridan o'qiymiz. Ulardan qutilish qiyin, takrorlanaverib ular bizning nutqimizda kirib bormoqdalar. Lekin gid ulardan foydalanishga ehtiyotbo'lishi, ular bilan kurashishi kerak.

Gid uchun yana *professional terminlar* va *xorijiy so'zlar* ham «xavf» tug'dirish mumkin. Birinchidan, har ikkisi ham mazmuniga mos ravishda

talaffuz qilinishi. Ikkinchidan, aytilgan so'z har kimga ham tushunarli bo'lmasa, ularning mazmunini oddiy va aniq tushuntirish. Ishlatiladigan terminlar mag'zini chaqishi kerak. Bu azaliy muammo notiqlarga Aristotel davridan mavjud. U «mohir notiq nutqni shunday tartiblashi kerakki, xorijiy so'zlar nutqda «sezilmay» o'tib ketishi va "aniq ma'noga ega bo'lish" kerak» deb hisoblagan. Ekskursiya hikoyasiga professional terminlar va xorijiy so'zlardan foydalanish nutqni soxtalashtiradi, gid va guruh o'rtasidagi aloqani buzadi.

Notiq nutqi boyligi va serjiloligi uning sinonimlardan foydalanishiga bog'liq. Sinonimlar ma'no jihatidan bir-biriga yaqin, shakli jihatdan har xil so'zlardir. Ular fikrni aniq va yorqin ifodalashga, so'zlarning takrorlanmasligiga yordam beradi. Masalan: «aytish» so'zi quyidagi sinonimlarga ega: bayon qilish, izhor etish, so'zlash, gapirib berish... Ba'zi so'zlar sinonimlari faqat og'zaki nutqda ishlatiladi. Stilistik bezatilgan so'zlar nutqga ekspressiv – hissiy tus berib, notiqning aytganlariga munosabatini belgilaydi.

Notiq uchun eng zo'r topilma bu xalq maqollari va naqllaridir. Maqollarda ming yillardan beri isbotini topgan xalq haqiqati yotadi. Ularda xursandchilik va g'am, qahr, muhabbat, hasad, hazil ifoda etiladi. Maqollar va naqllar mehnatni ulug'laydi, dangasalikni qoralaydi, yaxshilikni, insonchini mustahkamlaydi. Ular nafaqat nutq ifodaliligini kuchaytiradi, chiqishlarga mazmun va o'tkirlikni, chuqurlashtiradi, balki eshituvchilar yuragiga yo'l topadi, ularning hurmat va e'tiborini qozonishga yordam beradi. Shuning uchun nutqda maqollar va naqllar alohida o'ringa ega. Nutqda maqol va naqllardan foydalanishdagi muvaffaqiyat, ular qanchalik to'g'ri tanlanganligiga bog'liq.

Hozirgi paytda xalq maqolalari va ijodi to'plamlari soni juda ko'p va ular gidning qo'l ostida bo'lishi kerak. Ular yordamida individual matn jonliroq va ishonchliroq bo'ladi.

2. Gid nutqining tarkibi

Kamgaplik va sergaplik. *Kamgaplik* – bu nutqni keraksiz va ma'nosiz so'zlardan ozod qila olishdir. Kamgaplik bu notiqning shunday gapirish qobiliyatiki, nutqda «so'zlar kam bo'lsa, fikrlar kengroq» bo'lishi va notiq fikrlarni aniq, qisqa, shu bilan birga o'shqin va hissiyotli ifodalashi muhimdir. Sitseron shunday degan ekan: "Notiqning buyukligi u nafaqat kerakli so'zni aytishida, balki keraksizni aytmasligidadir".

Gidlar uchun Sitseronning ushbu fikrlari juda muhim. Unga ekskursiya jarayonida kam vaqt ajratilgan, shunga qaramay chiqishning kam so'zlik muammosini hisobga olmaslik noto'g'ridir. Namoyishning har bir ob'ekti – bu bir necha daqiqa ajratilgan yangi hikoya va ana shu qisqa muddatda gid katta hajmli axborotni joylashtirishi kerak. Qisqa, obrazli, his-hayajon bilan o'z fikrini ifoda etish bu gidning professional sifatidir.

Sergaplik ekskursiya maznun, mohiyatini buzadi. Ortiqcha so'zlar nutq tabiiyligini buzadi. Asosiy fikr esa bir "to'da keraksiz so'zlar" orasidan qiyinchilik bilan chiqadi. Bundan 2000 yil avval "Ilohiyot haqida» traktining muallifi shunday degan: Ortiqcha vazn nafaqat bizning jismimizga, balki nutqimizga ham zarardir. U nutqni haqiqatdan uzoqlashtirib, eshituvchiga teskari ta'sir etishi ham mumkin".

Sergaplik nafaqat madaniyatsizlik alomati balki, notiq tasvirlanayotgan ob'ekt haqida tushunchaga ega emasligidan darak beradi.

Mantiqiy ma'noga ega bo'lmagan "parazit" so'zlar ham nutqni buzadi. Masalan, «shunaqa», «aytish mumkinki», «aytaylik», «qisqacha qilganda», «xo'sh», «umuman aytganda». Bu so'zlar jonli og'zaki nutqning alomatlari. Gid aynan shunga intilishi kerak. Lekin bular asossiz takrorlanaversa, parazit so'zlarga aylanadi. Tabiiy, parazit so'zlarni notiqning o'zi payqamaydi. Lekin bular auditoriyaning jig'iga tegadi. Bularni albatta bartaraf etish choralarini ko'rish lozim.

3. Hikoya qilishda ovoz kuchining ahamiyati

Ovoz kuchi – gid nutq texnikasining asosiy komponentidir. Gid ovozini avtobusda, muzey zalida, masjidda, zavod sehida, ochiq havoda bo'ladimi auditoriya yaxshi va aniq eshitishi zarur. Aks holda ko'rilgan tayyorgarlik keraksiz, mohiyatsiz bo'lib qoladi.

Har bir gid ham kuchli ovozga ega emas, shuning uchun ularning nutqi hammaga yetib borishi uchun ekskursiyada joy to'g'ri tanlanishi (shovqindan uzoqroqqa), guruh to'g'ri joylashtirilishi, o'z joyini to'g'ri tanlash, shamol qaysi tomonga esayotganiga e'tiborga olish.

Nutq texnikasining yana bir muhim jihati uning *tezligidir*(tempi) va u ekskursiyani olib borishda albatta hisobga olishinishi lozim. Ovoz tezligi(tempi)– bu nutq elementlarini talaffuz qilish tezligidir. O'zbek millatining normal nutq tezligi-daqiqasiga 120 ta so'zdir. Bu tezlikda bir betli 14 shrift 1,5 intervalda terilgan informatsiya 2-2,5 daqiqada o'qilishi kerak.

Ekskursiyada nutq tezligi o'zgaradi. U individual matnning har bir qismlari mazmuni, ob'ekt oldida hikoyaga ajratilgan vaqt, gidning emotsional tayyorgarligi, kutilmagan hodisalarning ro'y berishiga bog'liq. To'g'ri nutq tezligini tanlashda ba'zida uni tezlashtirish axborotni qabul qilishni ham tezlashtiradi. Lekin haddan ziyod tez tezlig (bir birlik vaqtda) qabulni susaytiradi(inson psixikasining "o'tkazib yuborish" qobiliyati kutariladi) va gid harakatlari bekorga sarflanadi. Tez nutq kuchli diqqatni talab qiladi, eshituvchilarni charchatadi va ular gidni quloq solishni to'xtatadilar.

Juda ham sekin nutq auditoriyani «uxlatadi», ularga fikrni kuzatish qobiliyati susayadi, oxirigacha eshitilmaydi. Sekin nutq eshituvchilarni hikoyaga «sovuqqon» qilib qo'yadi va ularni zeriktiradi.

Gid nutq tezligini o'zgartira olishni bilishi muhimdir. Biror narsani *ta'kidlash, ajratish* zarur bo'lsa, nutq tezligini sekinlashtirish (Masalan: xulosalar, tushunchalarni) va agar nutqda iftixor, g'ururni ifodalash kerak bo'lsa, tezligini tezlashtirish zarur.

Ekskursiya vaqtida nutq tezligini boshqara olish uchun, gid o'zining odatiy, shoshilmay aytadigan nutqi tezligi(tempini) bilishi zarur. O'z nutq tezligini bilish uchun 600-700 ta so'zni baland o'qib, unga sarflangan daqiqaga taqsimlash kerak. Mana shu vaqt gidning nutq tezligii bo'ladi va uni zaruriy mashg'ulot bilan o'rtacha o'zbekcha talaffuz nutqi tezligiga moslashtirib borish mumkin. Chunki aynan shu tezlikda (daqiqa 120 ta so'z) mazmun yaxshi qabul qilinadi.

Notiqlik va gid nutqida *tanaffus* muhim rol uynaydi. **Tanaffus** – bu ovoz yangrashining vaqtinchalik to'xtashi, uning jarayonida nutq organlari faoliyati to'xtaydi va u nutqlar oqimini uzadi. Tanaffus bu jimlikdir. Lekin jimlik ham ifodali bo'lishi mumkin. K.S.Stanislavskiy tanaffus haqida shunday degan. «Tanaffus – bizning nutqimizning asosiy va muhim elementidir».

Notiqlik san'ati nazariyasida tanaffusning bir necha *klassifikatsiyalari* mavjud: *xezitatsiya* tanaffuslari ya'ni uylab olish, fikrlash tanaffuzlari; *intonatsion – mantiqiy* tanaffuslar- bir nutq taktini boshqasidan ajratadigan, mexanik shakllanadigan taktlar; *psixologik* tanaffuslar- ular yordamida masalan, butun bir jumlalarga mazmun beriladi («ularsiz nutq jonsiz» degan Stanislavskiy); *intonatsion-sintaksis* tanaffuslar- holatli, fiziologik tanaffuslar kiradi.

Ko'pgina gidlar o'z nutqlarida *intonatsion-sintaksis* tanaffuslarni noto'g'ri ishlatadilar, ularsiz grammatik qoidalarga asoslangan to'g'ri nutqning o'zi mavjud emas. Intonatsion-sintaksis tanaffuslar yozma

nutqdagi tinish belgilariga amal qilinib, davomiyligi bilan ajralib turadi. Eng qisqa tanaffus – vergul o'rniga, eng uzuni nuqtaga to'g'ri keladi.

Notiqlik san'atining nazariyachisi fransuz D.Doriaxa shunday degan: «Kimki o'z nutqida tanaffus qilsa - to'g'ri nafas oladi, yaxshiroq talaffuz qiladi va osonroq artikullaydi. Tinish belgilarini to'g'ri qo'yish – bu o'z nutqi tezligini his etish va uni boshqarish demakdir...bu degani aniq so'zlash va uni boshqalar tushunishiga yordam berish, bu degani nima so'zlayotganni o'zi tushunish demakdir».

Gid o'z *diksiyasini* nazorat qilish lozim. Diksiya – bu nutqdagi bo'g'inlar va so'zlarning aniq – tiniq talaffuz etish darajasidir. Tovushlar va bo'g'inlarni «yutish» har kunlik suhbatda kechirimli, lekin rasmiy chiqishlarga bu nutq sifatini pasaytirib, mazmunni qabul qilishga to'sqinlik qiladi. Yaxshi diksiyaga ega bo'lish bu har qanday holatda faol energiyali nutq tezligini saqlab qolishga ko'maklashadi, eshituvchilarga maqsadni yetkazadi.

Amaliyotda har bir notiqning diksiya bilan muammosi bor, uni takomillashtirish uchun doimo o'z ustida ish olib borish kerak (nutq texnikasi bo'yicha metodik qo'llanmalarga berilgan tavsiyalarga amal qilgan holda).

Barcha qo'llanmalarda nutq texnikasini takomillashtirish vositasi sifatida har xil tez aytishlar keltirilgan. Ular bizning nutq apparatimizning uzluksiz qayta tiklashni talab qiluvchi, tovushlardan iborat so'zlar uyg'unligidan tarkib topgan. O'z nutqimizni takomillashtirish ustida ishlash uchun bir nechta tez aytishlar doimo takrorlab turish lozim:

"Oq choynakka oq qopqoq, ko'k choynakka ko'k qopqoq".

"Qishda kishmish pishmasmish, pishsa kishmish qishmasmish".

«Guldonda gulgulladi».

«Qahraton qishda Qodir qishloqda qishladi».

Tez aytishlar bilan qanday ishlash bo'yicha L.A.Vvedenskiy va L.G.Pavlovalar tavsiyalaridan foydalanish mumkin: "Sekin, har bir tovushni aniq talaffuz qilib, tez aytish matnini o'qing. Biroz tanaffus qiling, shoshilmang, magnitofonda yozib, eshitib, takrorlang. Har bir alohida tovush talaffuzi aniq, ravonligiga ishonch hosil qilgach, tezlikni tezlashtiring. Birinchi holatdagidek talaffuzga rioya qilib, aniq, ravon takrorlang, lekin ikki baravar tezroq. Iboralar aniq, ravonliliga erishgach tezlikni oshiring. Tez aytishni bunday qayta ishlash metodini har bir matnda qo'llang."

Rostov Davlat Universitetining «Turizm va ekskursiya ishi» yo'nalishi bo'yicha talim olayotgan talabalar nutqlarini takomillashtirish

maqsadida tez aytishlardan tashqari, har kun 20 daqiqadan she'riy matnlarni o'qishlari va har kunlik hayotlarida o'z nutqlarini kuzatishlari tavsiya qilinadi. Bu ishlar 1,5-2 oydan so'ng o'z natijasini beradi. Talabalar nutqi ravon va diksiyalari yaxshiroq bo'ladi. Ular katta ishtiyoq bilan publistik chiqishlarni, ilmiy yoki madaniy tadqiqotlar elementlari mavjud ekskursiya matnlarini o'qiydilar.

Gid nutqidagi yana bir muhim sifat bu *hissiyotlik*, ya'ni notiqning his-hayajonga, tuyg'uga berilib so'zlashidir. Bir turdagi his -hayajon bilan masalan, Ulug' Vatan urushidagi g'alaba, olimlar kashfiyotlari, o'lkaning ekologik muammosi haqida gapirib bo'lmaydi.

Gid nutqi ham aqlga va ham ongning emotsional-sezgirlik tomonlariga ta'sir o'tkazishi kerak. Psixofiziologlarning fikricha, hissiyotlar (emotsiya) bilan gapirish nutqni qabul qilish sxemasini o'zgartiradi, fikrlash, xotira va diqqatga ta`sir qiladi.

Tanishib chiqqan o'quv qo'llanmaning bu bo'limi gid nutqi texnikasi va madaniyatini takomillashtirish bo'yicha resentlar jamlanmasi emas. Uning vazifasi – gidga tili ustida ishlash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilab olishga yordam berishdir.Ijodiy shaxsga esa bu jarayon uzluksiz davom etishi kerak. Boy, to'g'ri, toza, obrazli, ifodali, eshituvchiga tushunarli nutqni shakllantirish gid professional ustaligini takomillashtirish ishlarining tarkibiy qismlaridir.

4. Noverbal muloqot

Jest va mimikalar(noverbal muloqot)- notiq o'z tuyg'ulari va fikrlarini har xil harakatlar bilan chambarchas bog'liqligidir. Ular o'z-o'zidan, nutq mazmunidan kelib chiqqan holda paydo bo'ladi. Intonatsiya, urg'ular va talaffuzlar bilan ritmik uyg'unlashgan holda, jestlar auditoriya e'tiborini chiqishlarning u yoki bu qismiga qaratishga, bildirilayotgan fikrlarga notiqning munosabatini belgilashga yordam beradi.

Notiqlik san'ati nazariyasida notiqlar foydalanadigan, chuqur ishlab chiqarilgan jestlar tasnifi mavjud. Jestlarning quyidagi turlarga ajratish mumkin: *ritmik, emotsional (hissiyotli), ko'rsatuvchi rekonstruksiyalovchi, ishora qiluvchi, tasviriy, simvolik* va boshqalar.

Ekskursiya amaliyotida *ko'rsatuvchi rekonstruksiyalovchi, ishora qiluvchi* jestlardan foydalana olishni bilish kerak.

Ko'rsatuvchi jestlarni qarashlar, bosh harakati, qo'l barmoqlar bilan amalga oshirish mumkin. Ko'rsatuvchi jestlarda birinchi darajali rol qo'lga beriladi. Ko'rsatuvchi jestni ko'rsatilishi mumkin bo'lgan

obektlar mavjud bo'lganda ishlatish tavsiya etiladi (yodgorlik, yodgorlik fragmenti, memorial taxta, tabiat ob'ekti).

. *Rekonstruksiyalovchi* jestlar sayyohlarga saqlanmagan bino va inshootni tasavvur qilishga yordam beradi. Bu jestlar bilan gid sayyohlarga kerakli tasavvurlarni paydo qila olishi kerak.

Ishora qiluvchi jestlar sayyohlarni ob'ektlar oldida to'g'ri joylashishlarini ta'minlaydi. Ular yordamida guruhning bir ob'ektdan ikkinchi ob'ektga harakatlari yo'naltiriladi, avtobusdan tushish yoki aksincha o'zo'rinlarini egallash taklif etiladi.

Kerakli (zaruriy) jestlardan tashqari gid ma'nosiz, "parazit" jestlar haqida ham tushunchaga ega bo'lishi kerak. Ular parazit so'zlar kabi chiqishlarga salbiy ta'sir qilib, ma'nosini buzadi. Bular tez-tez takrorlanayotgan bosh harakati, soch turmagini to'g'rilash, kostyum tugmasini o'ynash, boshni qashish va boshqalar. Bunday takroriy harakatlar eshituvchilarni charchatadi.

Gid nafaqat o'z nutqini balki, noverbal muloqat tili hisoblanmish o'z jestlarini ham diqqat bilan kuzatishi kerak. Chunki ozni-ko'pmi gidning guruh bilan munosabati samaradorligi ularga ham bog'liq. Jestlarni ongli, ifodali ishlatish qoidalari yaxshi ton qoidalari bilan o'xshash: ular bilan tug'ilmaydi, ular o'rganilib, hayotiy me'yorga aylanadi.

Notiq his-tuyg'ularining muhim ko'rsatgichi bu uning *yuz ifodasi. minikasidir*. Mimika eshituvchilarga notiqni yaxshi tushinish, qanday hissiyotlarni boshdan kechirayotganini anglashga imkon beradi. Mimika ko'pgina tuyg'u va kechinmalarni uzata oladi: xursandchilik, g'am, nafrat, taajub, hayrat, ikkilanish.

Yuz ifodasi nutq harakteriga mos kelishi kerak. Gid yuzidagi zerikarlilik va sovuqqonlik sayyohlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Notiq chehrasi eshituvchilarga nisbatan charaqlab turishi lozim.

Gid o'z mimik imkoniyatlarini o'rganishi va takomillashtirishi kerak. L.A.Vvedenskaya va L.G.Pavlovalar bu borada quyidagilarni maslahat beradilar: Qoshlar, lablar va peshona bilan nima ro'y berayotganini bilish tavsiya etiladi. Agar qoshni qovoq qilib, peshonani ajin qilib yurishga odatlangan bo'lsangiz, qovog'ingizni, peshonani ochib yurishni o'rganing. Mimikamiz ifodali bo'lishi uchun oyna oldida bir necha 'emotsional ko'rinishlarni tasvirlang (g'amgin, xursand, baxtsiz, nafrat). Mimika o'zgarayotganini va u kerakli emotsiya berayaptimi yo'qmi kuzating».

Shuni yodda tutish lozimki, «ilhombaxsh» notiq mimikasi – auditoriya hissiyotini jumbushga keltiruvchi yaxshi vositadir.

maqsadida tez aytishlardan tashqari, har kun 20 daqiqadan she'riy matnlarni o'qishlari va har kunlik hayotlarida o'z nutqlarini kuzatishlari tavsiya qilinadi. Bu ishlar 1,5-2 oydan so'ng o'z natijasini beradi. Talabalar nutqi ravon va diksiyalari yaxshiroq bo'ladi. Ular katta ishtiyoq bilan publistik chiqishlarni, ilmiy yoki madaniy tadqiqotlar elementlari mavjud ekskursiya matnlarini o'qiydilar.

Gid nutqidagi yana bir muhim sifat bu *hissiyotlik*, ya'ni notiqning his-hayajonga, tuyg'uga berilib so'zlashidir. Bir turdagi his -hayajon bilan masalan, Ulug' Vatan urushidagi g'alaba, olimlar kashfiyotlari, o'lkaning ekologik muammosi haqida gapirib bo'lmaydi.

Gid nutqi ham aqlga va ham ongning emotsional-sezgirlik tomonlariga ta'sir o'tkazishi kerak. Psixofiziologlarning fikricha, hissiyotlar (emotsiya) bilan gapirish nutqni qabul qilish sxemasini o'zgartiradi, fikrlash, xotira va diqqatga ta'sir qiladi.

Tanishib chiqqan o'quv qo'llanmaning bu bo'limi gid nutqi texnikasi va madaniyatini takomillashtirish bo'yicha resentlar jamlanmasi emas. Uning vazifasi – gidga tili ustida ishlash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilab olishga yordam berishdir.Ijodiy shaxsga esa bu jarayon uzluksiz davom etishi kerak. Boy, to'g'ri, toza, obrazli, ifodali, eshituvchiga tushunarli nutqni shakllantirish gid professional ustaligini takomillashtirish ishlarining tarkibiy qismlaridir.

4. Noverbal muloqot

Jest va mimikalar(noverbal muloqot)- notiq o'z tuyg'ulari va fikrlarini har xil harakatlar bilan chambarchas bog'liqligidir. Ular o'z-o'zidan, nutq mazmunidan kelib chiqqan holda paydo bo'ladi. Intonatsiya, urg'ular va talaffuzlar bilan ritmik uyg'unlashgan holda, jestlar auditoriya e'tiborini chiqishlarning u yoki bu qismiga qaratishga, bildirilayotgan fikrlarga notiqning munosabatini belgilashga yordam beradi.

Notiqlik san'ati nazariyasida notiqlar foydalanadigan, chuqur ishlab chiqarilgan jestlar tasnifi mavjud. Jestlarning quyidagi turlarga ajratish mumkin: *ritmik, emotsional (hissiyotli), ko'rsatuvchi rekonstruksiyalovchi, ishora qiluvchi, tasviriy, simvolik* va boshqalar.

Ekskursiya amaliyotida *ko'rsatuvchi rekonstruksiyalovchi, ishora qiluvchi* jestlardan foydalana olishni bilish kerak.

Ko'rsatuvchi jestlarni qarashlar, bosh harakati, qo'l barmoqlar bilan amalga oshirish mumkin. Ko'rsatuvchi jestlarda birinchi darajali rol qo'lga beriladi. Ko'rsatuvchi jestni ko'rsatilishi mumkin bo'lgan

obektlar mavjud bo'lganda ishlatish tavsiya etiladi (yodgorlik, yodgorlik fragmenti, memorial taxta, tabiat ob'ekti).

Rekonstruksiyalovchi jestlar sayyohlarga saqlanmagan bino va inshootni tasavvur qilishga yordam beradi. Bu jestlar bilan gid sayyohlarga kerakli tasavvurlarni paydo qila olishi kerak.

Ishora qiluvchi jestlar sayyohlarni ob'ektlar oldida to'g'ri joylashishlarini ta'minlaydi. Ular yordamida guruhning bir ob'ektdan ikkinchi ob'ektga harakatlari yo'naltiriladi, avtobusdan tushish yoki aksincha o'z o'rinlarini egallash taklif etiladi.

Kerakli (zaruriy) jestlardan tashqari gid ma'nosiz, "parazit" jestlar haqida ham tushunchaga ega bo'lishi kerak. Ular parazit so'zlar kabi chiqishlarga salbiy ta'sir qilib, ma'nosini buzadi. Bular tez-tez takrorlanayotgan bosh harakati, soch turmagini to'g'rilash, kostyum tugmasini o'ynash, boshni qashish va boshqalar. Bunday takroriy harakatlar eshituvchilarni charchatadi.

Gid nafaqat o'z nutqini balki, noverbal muloqat tili hisoblanmish o'z jestlarini ham diqqat bilan kuzatishi kerak. Chunki ozmi-ko'pmi gidning guruh bilan munosabati samaradorligi ularga ham bog'liq. Jestlarni ongli, ifodali ishlatish qoidalari yaxshi ton qoidalari bilan o'xshash: ular bilan tug'ilmaydi, ular o'rganilib, hayotiy me'yorga aylanadi.

Notiq his-tuyg'ularining muhim ko'rsatgichi bu uning *yuz ifodasi. mimikasidir*. Mimika eshituvchilarga notiqni yaxshi tushinish, qanday hissiyotlarni boshdan kechirayotganini anglashga imkon beradi. Mimika ko'pgina tuyg'u va kechinmalarni uzata oladi: xursandchilik, g'am, nafrat, taajub, hayrat, ikkilanish.

Yuz ifodasi nutq harakteriga mos kelishi kerak. Gid yuzidagi zerikarlilik va sovuqqonlik sayyohlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Notiq chehrasi eshituvchilarga nisbatan charaqlab turishi lozim.

Gid o'z mimik imkoniyatlarini o'rganishi va takomillashtirishi kerak. L.A.Vvedenskaya va L.G.Pavlovalar bu borada quyidagilarni maslahat beradilar: Qoshlar, lablar va peshona bilan nima ro'y berayotganini bilish tavsiya etiladi. Agar qoshni qovoq qilib, peshonani ajin qilib yurishga odatlangan bo'lsangiz, qovog'ingizni, peshonani ochib yurishni o'rganing. Mimikamiz ifodali bo'lishi uchun oyna oldida bir necha emotsional ko'rinishlarni tasvirlang (g'amgin, xursand, baxtsiz, nafrat). Mimika o'zgarayotganini va u kerakli emotsiya berayaptimi yo'qmi kuzating».

Shuni yodda tutish lozimki, «ilhombaxsh» notiq mimikasi – auditoriya hissiyotini jumbushga keltiruvchi yaxshi vositadir.

5. Gidning guruh bilan aloqasi

Ekskursiya muvaffaqiyati ko'p hollarda gid bilan ekskursiya guruhi o'rtasida shakllangan kerakli aloqaga, bir-birini tushunishdagi iliq psixologik muhitga bog'liq. Bunday aloqani o'rnatish gidning professional vazifasidir.

Auditoriya bilan munosabat, aloqa nima? Psixologlarning ta'kidlashicha, aloqa (kontakt) bu notiq va auditoriya ruhiy (psixik) ahvolidagi umumiylik, bu so'zlovchi va eshituvchi o'rtasidagi o'zaro tushunishdir. U hamjihatlikda fikrlash faoliyai asosida, notiq va eshituvchi bir xil muammoni yechayotganlarida, bir xil savollarni tahlil qilayotganlarida paydo bo'ladi, yani notiq – o'z chiqishi mavzusini bayon qila turib, eshituvchi esa – uning fikri rivojini kuzata turib. Agar notiq bir narsa haqida so'zlasayu, eshituvchi boshqa narsa haqida o'ylasa, unda aloqa mavjud bo'lmaydi.

Aloqa gid guruh oldida chiqishi bilanoq yo'lga qo'yilishi kerak. Bu yerda quyidagi maqol amal qiladi «Kiyim bo'yicha kutib olib, aql bo'yicha kuzatadilar». Hammasi gid tashqi ko'rinishidan boshlanadi. Uning kiyimi toza. ozoda, makiyaji – oddiy, qo'llari parvarishlangan bo'lishi shart. A.F.Koni maruzachilarga bu masala borasida quyidagi maslahatlarni bergan (zamonaviy gidlarga ham taaluqli): "Oddiy va toza kiyinish lozim. Kostyumga alohida ajralib turadigan hech narsa bo'lmasligi kerak (har xil ranglar, g'aroyib fason); iflos kostyumlar yomon taasurot uyg'otadi. Buni yodda tutish zarur, chunki yig'ilganlarga psixologik ta'sir nutqdan avval, notiq auditoriya nazdida paydo bo'lgan onlardan boshlanadi"

Bir kuni ekskursiyalardan biriga shunday voqea sodir bo'lgan. Yoshi anchaga borgan yuqori eridutsiyali, malakali mutaxassis, talabalar oldiga ekskursiyaga kechikib boradi. Keyin nafasini rostlab avtobusga chiqadi. Qisqacha «Hammaga Salom!» deb, tez harakat bilan shapkasini yechib, soch turmaklarini buzadi. Uni tartibga-keltirmay chiqish so'zini boshlaydi. Talabalar orasida shovqin keza boshlaydi, hamma gidning tashqi ko'rinishini muhokama qila boshlaydi, uning hikoyasi esa hech kimni qiziqtirmas edi. Ekskursiya boshlanishi gidning nojo'ya harakati, e'tiborsizligi tufayli buziladi. Gid auditoriya diqqatini jalb qilish uchun ko'p kuch sarfladi, bunga esa u ekskursiya mavzusini chuqur bilganligi va uni yetkaza olishi tufayli qiyinchilik bilan erishdi.

Auditoriya bilan aloqa o'rnatishda gidning *chiqish* so'zi ham muhim rol o'ynaydi. U yorqin, mazmunli, obrazli, kamgina reklamali (ular ushbu ekskursiyani tanlab to'g'ri qilganlarini ishontirish kerak) bo'lishi lozim.

Birinchi daqiqalardayoq gid faol bo'lishi zarur. Faol notiq flegmatik – notiqdan ko'ra eshituvchilar diqqatini kuchliroq jalb qiladi. "Notiq bor kuchini muloqot qilishga harakat qilayotganini va maqsadga jon bilan kirishayotganini odamlar sezishlari kerak. Notiq ongida uning *o'zi, auditoriya* va *uning nutqi* ajralmas birdamlik paydo qilsalargina auditoriya bilan haqiqiy aloqaga (kontakt) erishiladi. Shunda so'zlar to'g'riroq tanlanadi, nutq ifodaliroq bo'ladi, eshituvchilarga esa qabul qilish faollashadi, ong va hissiyotlarga chuqurroq ta'sir ko'rsatiladi." (Nejin 1973y).

Albatta, gid nutqi va hikoyasi gid va guruh o'rtasidagi mustahkam aloqani o'rnatishda asos hisoblanadi. Mazmunli, yangi ma`lumotlar bilan boyitilgan dolzarb hikoya va gidning yuqori nutq madaniyati eshituvchilar diqqatini tortadi.Gid doimiy aloqani saqlab qolishi uchun ekskursiyadagi guruhlar tarkibi xususiyatini hisobga olish zarur.

Gid ekskursiya jarayonida guruhda hammani ko'rib turishi lozim. Lekin ko'rish aloqasining mavjudligi gid hammani va har kimni doimiy ko'rayapti degani emas, buni iloji ham yo'q. Agar gid nutqi jarayonida guruhning bir tomonidan ikkinchi tomoniga, hech kimni e`tibordan qoldirmasdan, ko'z tashlab tursa, har bir eshituvchi bilan aloqa taasurotini shakllantirishi mumkin, Gid guruhdagi faqat bir-ikki kishiga murojaat qilishi noto'g'ri (berilayotgan materialga ularning reaksiyasini aniqlash uchun).

Guruh va gid o'rtasida o'rnatilgan yaxshi aloqa uning ishidagi muvaffaqiyatga zamin yaratadi. Agar uni diqqat bilan eshitayotganlarini ko'rsa, gid yanada ilohomlanadi, materiallarni ishonchli va hissiyotli bayon qiladi, ovozi yanada ishonchliroq chiqadi. Uning qaddi o'z ko'zi va eshituvchilar ko'zida tiklangandek bo'ladi.

Auditoriya bilan zaif aloqa gapirayotgan odamga salbiy ta'sir ko'rsatadi. U xato qila boshlaydi, o'zini yo'qotadi, vaziyatni nazorat qila olmaydi.

Aloqa o'rnatish, auditoriya e'tiborini qozonish, ekskursiya muvaffaqi-yatini ta'minlaydi, axborot uzatishda muhim shart hisoblanadi, eshituv-chilarga kerakli ta'sir o'tkazish va ularga zaruriy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi..

Tayanch iboralari: Gid nutqiga qo'yilgan talablar, gid nutqining tarkibi, kamgaplik va sergaplik, ovoz kuchi, ovoz tezligi, hikoya qilishda ovoz kuchining ahamiyati, nutqdagi *tanaffuz*, notiqlik san'atida talaffuz, diksiya, noverbal muloqot, ritmik, emotsional (hissiyotli), ko'rsatuvchi-

rekonstruksiyalovchi, ishora qiluvchi, tasviriy, simvolik jestlar.gidning guruh bilan munosabati.

Mustaqil nazorat qilish uchun savollar:

1. Gid nutqiga qo'yilgan talablar.
2. Nutqdagi shtamplar haqida aytib bering.
3. Gid professional terminlar va xorijiy so'zlardan qachon foydalanishi kerak?
4. Gid nutqining tarkibi.
5. Hikoya qilishda ovoz kuchining ahamiyati.
6. Ovoz tezligi(tempi) nima?
7. Notiqlik san'ati nazariyasida tanaffusning roli.
8. Gid noverbal muloqotdan qachon foydalanishi kerak?
9. Gid guruh bilan aloqani qanday o'rnatishi kerak?
10. Gid o'z mumkin imkoniyatlarini qanday aniqlashi mumkin?

Mavzu 9. O‘zbekistonning ziyoratchilik ekskursiya maskanlari

Reja:

1. Ziyoratchilik turizmining rivojlanishi
2. Mamlakatimiz viloyatlarida joylashgan ziyoratgohlar

1. Ziyoratchilik turizmining rivojlanishi

Jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayonida xalqaro turizm sohasi tobora jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Ayniqsa, xalqaro turizm sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida eng yuqori serdaromadli va dinamik holatda o‘sib borayotgan tarmoqlardan biriga aylanib bormoqda. Jahon turistik tashkiloti (JTT) ma’lumotlariga ko‘ra, turizm sohasiga butunjahon investitsiya kapitallari umumiy miqdorining qariyib 7 foizi, butun iste’mol harajatlarining 11 foizi, butunjahon soliq tushumining 5 foizdan ko‘prog‘i, xalqaro xizmat ko‘rsatish va servis tarmoqlarining uchdan bir qismi to‘g‘ri keladi.

Halqaro turizm sohasi jahon xo‘jaligining transport, aloqa, savdo-sotiq, qurilish industriyasi, qishloq xo‘jaligi, iste’mol mollari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari (yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari) bilan chambarchas holda rivojlanib bormoqda va jahon iqtisodiyotida ijtimoiy hamda iqtisodiy taraqqiyotning katalizatori sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Hozirgi kunda xalqaro turizmning eng muhim tarmoqlaridan biri diniy ya’ni ziyoratchilik turizmi bo‘lib hisoblanadi. Ziyoratchilik turizmning shakllanish tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Ya’ni uning ilk bor vujudga kelishi antik davriga to‘g‘ri keladi. Ziyoratchilik turizmning asosiy paydo bo‘lgan maskanlari qadimgi greklar va rimliklar vatani bo‘lib hisoblanadi. Qadimda greklar va rimliklar ibodatxonalar va cherkovlar qurib, ularda sig‘inishganlar. Ziyoratchilarning sayyohat qilishidan asosiy mahsadi aziz avliyo joylarga qadam ranjida qilishi, sig‘inish chog‘ida ruhiy jihatdan yengillashishi, ko‘ngillarning poklanishi, og‘ir kasallik lardan xolos bo‘lmoqligi, qilib quygan gunoh ishlarini ollohdan so‘rab kechirishlarini, safar chog‘ida safdoshlari bilan ma’naviy yaqinlikda bo‘lishni orzu-umid qilishadilar. Ziyoratchi sayyohlar safarga chiqishida o‘z orzu umidlariga erishish, yaratganga shukronlar aytib uning izzat hurmatini bajo keltirishni o‘zko‘ngillaridan o‘tkazadilar.

Hozirgi kunga kelib dunyoda ziyoratchilik sayyohligining 10 dan ortiq yirik markazlari mavjud bo‘lib, ular yer sharining deyarli hamma qit’alarida joylashgandir.

Musulmon olamida ziyorat qilish makonlari ham anchagina. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa jonajon O'zbekistonimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos ko'p. Ular qatoriga Janubiy Qozog'iston viloyati, Turkiston shahridagi Axmad Yassaviy maqbarasi; Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Zangiota majmuasi; Toshkent shahridagi Shayx Xivanda Taxur maqbarasi. Qaldirg'och-biya maqbarasi, Yunusxon maqbarasi; Hazrati Imom majmuasi; Abubakr Muhammad Kaffal Shashi maqbarasi; Shayx Zayniddin bobo maqbarasi; Samarqand viloyati Payariq tumani Hartang qishlog'idagi Imom Al-Buxoriy majmuasi; Oqdaryo tumani Dahbed qo'rg'onidagi Maxtumi A'zam maqbarasi; Samarqand shahridagi Shohi Zinda, Amir Temur, Ruhobod, Xo'ja Doniyor, Motrudiy, Murod avliyo, Xo'ja Axror Vali, Oq saroy, Cho'ponota maqbaralari; Buxoro shahridagi– Ismoil Samoniy, Chashmai Ayub, Sadriddin Buharzi, Bohovuddin Naqshbandiy, Buyon Kulixon, Chor Bakr maqbaralari; Xorazm viloyatida Uch avliyo, Said Allovuddin maqbarasi; Qashqadaryo viloyatida–Jahongir, Dorus Saodat, Dorut Tilovat majmuasi, Ko'k gumbaz masjidi; Surxondaryo viloyatida - Hakim at-Termiziy majmuasi; Sulton Saodat ibodatxona yodgorligi, Fayoztepa ibodatxonasi; Jizzax viloyatida–Sadr Vaxs avliyo (Avliyoota) majmuasi; Farg'ona viloyatida Daxmon Shaxon go'rxonasi Mozorixon maqbarasi kabilar ziyoratchi sayyohlarni o'ziga jalb qilib keladigan maskanlar bo'lib hisoblanadi.

2. Mamlakatimiz viloyatlarida joylashgan ziyoratgohlar

Imom Ismoil al-Buhariy-majmuasi. Bu majmua Samarqand shahridan 12km uzoqlikda Payariq tumani Hartang qishlog'ida joylashgan. Hozirgi kunda imom Ismoil al-Buxoriy memorial majmuasi 10 gektardan ortiq maydondan iborat bo'lib, bir paytning o'zida bir yarim ming kishi namoz o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan masjid, moviy rangda bezatilgan gumbazli maqbara, ilm dargohi va ma'muriy binodan iborat. Majmua 1998 yilda qaytadan qurib ta'mirlandi va Markaziy Osiyodagi eng yirik, go'zal va muqaddas sajdagoh joylardan biriga aylantirildi. Ziyorat uchun kelib ketadigan sayyohlar soni toborako'payib bormoqda.

Imom Ismoil al-Buxoriy 810 yil 20 iyul oyida Buxoro shahrida tug'ilgan. U yoshligida o'tkir zehnli, xotirasi kuchli bo'lib, o'n yoshidan boshlab hadisni o'rgana boshlagan. Keyinchalik hadislarni to'plash maqsadida Hijoz, Misr, Iroq, Xuroson kabi mamlakatlarga sayohatga chiqadi va to'plagan hadislarni «Aljami as-Saxix» yoki «As-Saxix»

(Haqiqiy to'plam) nomi bilan ataladigan kitobini bosmadan chiqaradi. Bu asar musulmon olamida islom dinini targ'ibot va tashviqot qilishda Qurondan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Imom Ismoil al-Buxoriy o'z davrida 7400 taga yaqin hadislarni to'plab, ularni birma-bir tekshirib chiqadi, hamda ularning mazmun- mohiyatiga qarab, huquqiy, tarixiy, biografik, ahloqiy, tibbiy turkumlarga bo'lib o'rganadi. Keyinchalik u 15 tadan ortiq hadis ilmiga oid asarlarni yozib qoldiradi va buyuk siymolar darajasiga ko'tarilgan shaxslar qatoridan o'rin egallaydi. Imom Ismoil al-Buxoriy 870 yil 1 sentyabrda Hartang qishlog'ida vafot etgan.

Shohi Zinda ansambli. Shohi Zinda ansambli Samarqand shahridagi eng muhim sajdagoh maskanlaridan biri bo'lib, temuriylar avlodi dafn etilgan majmuadir. Bu qadimgi qabriston Samarqand shahrining shimoliy-sharqiy qismida ya'ni eski shaharning Afrosiyob tepaligida joylashgan. Majmuaning markaziy qismida Qusam ibn-Abbos qabri joylashgan. U Samarqandda islom dinini targ'ibot va tashviqot qilganligi uchun avliyo darajasiga ko'tarilgan shaxsdir.

Shohi Zinda arxitektura ansambli XIV-XV asrlarda qurilgan nodir, kamdan-kam uchraydigan qurilish inshooti bo'lib hisoblanadi va ziyoratchi sayyohlarni o'ziga jalb qiluvchi muhim maskanlardan hisoblanadi.

Mahdumi A'zam maqbarasi Samarqand viloyatida yana bir qadamjo maskanlardan biridir. Bu ziyorat maskani viloyatning Oqdaryo tumani Dahbed qo'rg'onchasida joylashgan.

Mahdumi A'zam asli Namangan viloyati, Kosonsoy tumanida 1462 yilda tug'ilib, 1542 yili 80 yoshida Dahbedda vafot etgan. U o'z davrida yuqori obruy va martabaga ega bo'lgan Sayid Jaloliddin Xo'ja Axmad oilasida tug'ilib- o'sib o'tkir zehnli yigitga aylanadi. Xo'ja Axmad Koson iy yoki Mahdumi A'zam XV asr ikkinchi yarmi va XVI asr boshlarida sufizm ta'limotining yirik namoyondalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Uning yozib qoldirgan bir qator asarlari «Majmuat ul - Risoli» to'plami shaklida bizgacha yetib kelgan. Alloma Maxdumi A'zam qabrini ziyorat qilish maqsadida sayyohlar mamlakatimizning turli hududlaridan kelishadi.

Avliyo xo'ja Doniyor qabristoni. Samarqand shahridagi yana bir ziyorat qilinadigan joylardan biri hisoblanadi. Bu qabriston Samarqand shahrining shimoliy qismida Afrosiyob tepaligi o'rtasidan oqib o'tadigan Siyob ariqining chap qirg'og'ida joylashgan. Bu yerda xo'ja Doniyor yoki bibliyo avliyosi Danil jasadining bir qismi (ayrim man'balarga ko'ra oyoq qismi, boshqa man'balarda ko'rsatishicha – qo'l qismi) sohibqiron Amir

Temur buyrug'iga binoan XV asrda Iroqning Mosul shahridan keltirilib ko'miladi. XX asr boshlariga kelib xo'ja Doniyor qabri ustiga mavzoley quriladi. Hozirgi kunda bu maskanga dunyoning ko'pgina mamlakatlaridan ziyoratchi sayyohlar kelib ketishadi.

Hazrati Bahovuddin Naqshbandiy majmuasi. Shayx, avliyo Bahovuddin Naqshbandiy majmuasi Buxoro viloyati Kogon tumani Qasri Orifon qishlog'ida joylashgan. Hazrati Bahovuddin Naqshbandiy o'z davrida sohibqiron Amir Temurning ma'naviy ustozi bo'lgan. U yoshligida to'quvchi bo'lib, keyinchalik esa to'quvchilar kasb-korining piri va temirchi naqshkor usta darajasiga ko'tarilgan shaxsdir. Shayx Bahovuddinning asl ismi Said Muhammad Bahovuddin bo'lib, u 1318 yilning muharram oyida tavallud topgan va 1389 yil mart oyida vafot etgan. Bahovuddin Naqshbandiy Buxoroi sharifda butun dunyoga tarqalgan darveshlar ta'limoti «Naqshbandiya» ga asos solgan shaxs hisoblanadi. U o'z ta'limotida kishilarni ilm olishga, mehnat qilishga da'vat qiladi.

Shayx Bahovuddin Naqshbandiy me'morial majmuasi 1545 yili Abdulazizxon tomonidan qurilgan bo'lib, unda ikkita ayvonli masjid, minora, madrasa va daxmadan iborat. Ushbu majmua mustaqillik yillarida qaytadan ta'mirlandi va ajoyib ziyoratchi sayyohlar maskaniga aylantirildi.

Abduxoliq G'ijduvoniy memorial ansambli. Bu inshoot Buxoro viloyatining G'ijduvon shahri markazida joylashgan.

Abduxoliq G'ijduvoniy yoki xo'ja Abd al-Xaliq Abd al-Djamil G'ijduvoniy Buxoro viloyatining G'ijduvon shahrida tavallud topgan. U dindorlar oilasida tug'ilgan bo'lib, masjid imomi bo'lib ishlagan. Abduxoliq G'ijduvoniy ilmga qiziquvchan bo'lgan va u yoshligida Qur'oni karimni yod bilgan. Uning yozgan asarlari «Risola-yi tariqat», «Risola-yi Sahabiya», Vasiyat-noma», «Zikr al-Xaliq G'ijduvoniy» kabi asarlari bizgacha yetib kelgan. O'z asarlarida islom dinini omma o'rtasidagi keng ko'lamda targ'ibot va tashviqot qilishga chaqiradi. Abduxoliq G'ijduvoniy 95 yil umr ko'rgan va mazkur ansambl hududiga dafn etilgan.

Surxandaryo viloyatida asosiy ziyoratgoh obidalar va tarixiy yodgorliklarning aksariyat qismi Termiz, Angor va Sherobod tumanlarida joylashgan. Bu tarixiy obidalar viloyatda IX asrdan boshlab qurila boshlangan. Ulardan eng muhimi **Hakim at Termiziy ansambli** bo'lib hisoblanadi.

Hakim At Termiziy ansambli (XII-XV asrlar) Amudaryoning o'ng qirg'og'ida eski Termiz shahri xududida joylashgan. Bu majmuada

sufiylik ("Hakimiy") oqimining asoschisi Abu Abdulla Muhammad bini Ali bini Huseyn al-Hakimi Termiziy qabri joylashgan bo'lib, u muqaddas va aziz qadamjolardan biridir.

Hakim at-Termiziy islom olamidagi eng ko'zga ko'ringan 98 ta shayxlar nomayonlaridan biri bo'lib hisoblanadi. U taxminan eramizning 749-750 yillarida Termizda tug'ilgan va 120 yoshida 869 yili yovuz bosqinchilar tomonidan o'ldirilgan. U o'z davrida Termiz ota, Hakim Termiziy (Termiz donishmandi) nomiga sazovar bo'lgan shaxsdir.

Hakim at-Termiziy 30 ga yaqin ma'naviy-falsafiy harakterga ega bo'lgan asarlarni yozib qoldirgan buyuk allomalardan biri hisoblanadi. Uning ilmiy ishlari falsafa, tarix, tibbiyot, astronomiya, qurilish. huquqshunoslik, matematika, tilshunoslik fanlariga mansub bo'lib ensiklopedist (qomuschilik) olim darajasiga ko'tarilgan shaxsdir. U birinchilardan bo'lib sharh kalendarini tuzgan olimdir.

Hakim at-Termiziy o'z davrida sayidlarning buyuki bo'lib, juda ta'lantli, gapga chechan, notiq va hikmatli so'zlarni to'plagan dono ulamolardan biri bo'lgan. Mutaxassislar fikricha Hakim at-Termiziy tomonidan yozib qondirilgan uning asarlari islom olamida hanuzgacha o'z kuch-qudrati va qadr-qiymatini yo'qotgani yo'q. Ulamoning qabri ustiga XII asrda katta hashamatli maqbara qurilgan. Qabr ustiga o'rnatilgan yodgorlik -marmar toshdan iborat bo'lib, turli xil naqsh san'ati va tosh o'ymakorligi bilan bezatilgan.

Viloyatdagi ikkinchi bir muhim qadamjolardan biri **Sulton Saodat ibodatxonasidir.** Bu ibodatxonada (XII-XIV asrlarda) Termiz saidlari ya'ni Muhammad payg'ambarning to'g'ridan-to'g'ri avlodlari dafn etilgan maskandir. Ibodatxona markazida Said Hasan al-Amirning hoki ko'milgan.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy maqbarasi viloyatning Sherobod tumanida joylashgan. Bu maqbara IX asrda yashagan mashhur (illohiyotchi) hadisshunos Muhammad ibn Iso Savra ibn Muso ibn ad-Dahkak Abu iso al Busha at-Termiziynikidir.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy Termiz shahrida tug'ilib taxminan 892-893 yillarda vafot etgan. U dunyodagi eng mashhur oltita hadischilardan biribo'lgan.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy Xuroson, Iroq, Xijoz kabi shaharlarda yashab hadislarni to'plagan. Uning ma'naviy ustozlari va ma'naviyat xomiysi Imom al-Buxoriy, Abu Dovud Sijjistoniylar hisoblangan. U islom ilmida ismshunoslik, huquqshunoslik, sharhlovchi, tasavvufshunoslik (sufizmshunoslik) sohalari bilan shug'ullanishgan. Abu

Isc Muhammad at-Termiziy asarlari ichida "Al-Jam as-Saxix", "Ash-Shamoil an-Navovita", "Kitob al-aql va-l-xavo" va boshqa islom ilmini targ'ibot-tashviqot qiladi. Ayniqsa uning kitoblaridan "Ash-Shamoil an-Navoviya Muhammad payg'ambarning hayotiga bag'ishlangan bo'lib, u juda noyob, bebaho tarixiy asar hisoblanadi. Ushbu asar mudaris olim Sayid maxmud Taroziy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan (M. Hoshimov, 2001).

Zangiota ansambli. Ushbu qadamjo Toshkent viloyatining Zangiota tumanida joylashgan qadimgi tarixiy obidadir.

Zangiotaning asl ismi Oyxo'ja bo'lib, uning tanasi qora rangda bo'lganligi sababli zangiota ya'ni "qoraota" laqabiga ega bo'lishgan. Zangiota qadimgi Shoshda (hozirgi Toshkent sh.) tug'ilgan. Uning tug'ilgan yili noma'lum. U 1258 yilda vafot etgan. Zangiota cho'ponlar (chorvadorlar) piri bo'lib, Axmad Yassaviy avlodlaridandir. Zangiota va uning oilasi Anbar bibi qabrlari ustiga XIV asrda sohibqiron Amir Temur buyrug'iga binoan maqbara, masjid, madrasa va minora qurilgan. Hozirgi kunda ushbu maskanga kelib-ketuvchi ziyoratchi sayyohlar soni ortib bormoqda.

Mustaqillik yillarida respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning bevosita rahbarligida juda ko'pgina aziz, avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan ta'mirlanib, asl holatiga keltirildi. Bir qancha qadamjo joylar xushmanzara, obod, ziyoratgoh maskanlarga aylantirildi. Ular qatoriga Bahovuddin Naqshbandiy, G'ijduvoniy, Imom al-Buxoriy, Mantumi A'zam, Shohizinda, Motrudiy, Hakim at-Termiziy, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralari musulmon olamining beqiyos, go'zal ziyoratqiladigan va ma'naviy ruhlanadigan joylariga aylantirildi.

Tayanch iboralar: Ziyoratchilik turizmi, Imom Ismoil al-Buhariy-majmuasi. Shohi Zinda ansambli, Mahdumi A'zam maqbarasi, Hazrati Bahovuddin Naqshbandiy majmuasi, Abduxoliq G'ijduvoniy memorial ansambli. Hakim at-Termiziy ansambli, Zangiota ansambli.

Mustaqil nazorat qilish uchun savollar:

1. Ziyoratchilik turizmi rivojlanishining ahamiyati?
2. Mamlakatimiz viloyatlarida joylashgan ziyoratgohlar haqida nimalar bilasiz?
3. Imom Ismoil al-Buhariy-majmuasi haqida so'zlab bering.
4. Shohi Zinda ansambli tarixi haqida nimalar bilasiz?

5. Mahdumi A'zam maqbarasi haqida so'zlab bering.
6. Hazrati Bahovuddin Naqshbandiy majmuasi haqida nimalar bilasiz?
7. Abduxoliq G'ijduvoniy memorial ansambli haqida so'zlab bering.
8. Hakim at Termiziy ansambli haqida malumot bering.
9. O'z viloyatingiz (tuman) da joylashgan tarixiy obidalar haqida nimalarni bilasiz?

Mavzu 10. Turizmda maxsus turlar

Reja:

1. Turizmdagi asosiy va maxsus turlar
2. Turizmdagi asosiy turlarning tarifi
3. Turizmdagi maxsus turlarning tarifi
4. Maxsus turlarni turizmda shakllantirish

1. Turizmdagi asosiy va maxsus turlar

Turizmning barcha turlari ishlab chiqarish va insoniyatning ijodi va yaratuvchilik sohalaridan kelib chiqgan. Ziyoratgoh joylar, tarixiy obidalar, diniy rahnomalarning dahmalari jahonning mashhur kishilari hayotidir. Faqatgina ekologik turizm turlari tabiat mahsuli hisoblanadi.

Ishlab chiqarish sohalarining, insoniyatni yoki insonlar guruhining mo'jizakor, mukammal va chiroyli yoki kerakliligi tufayli hayratomuz ko'rinishga ega bo'lgan mahsulotlari, inshootlari insonlar oqimini o'ziga jalb qilishi turizm sohasini keltirib chiqardi, sohadagi turlarning ko'payib borayotganligi ham ana shu omillarga bog'liq.

Dunyoning 7 mo'jizasini ko'rish, ularning siru-asrorlari bilan tanishishga qiziqish qadim sivilizatsiyada turistlar oqimini tashkil qilganligi malum. Bu yerda birgina «turizm» so'zi hali kashf qilinmagan, tarifi berilmagan edi.

O'zga yerlardagi odamlarni, tabiatni ko'rishga qiziqish, asosiy hollarda boylik izlash uchun chiqgan kishilar hozirda buyuk geografik kashfiyotchilar nomini olgan. Bu davr ham jahonda turizmning rivojlanishida alohida bosqich hisoblanadi.

Hozirga kelib inson o'zining qiziqishi sohalarini ko'rib ulgurish, qoniqish olish, o'rganish, tanlash xususiyatlari va imkoniyat darajalaridan to'g'ri foydalanish uchun ishlab chiqarish sohalarini, tabiiy biologik resurslarni, insonlarning yashash tarzlarini alohida-alohida turizm sohasiga aylantirdi.

Dastlab inson o'zida paydo bo'lgan e'tiqod hissi nuqtai-nazaridan o'z dinidagi barkamol insonlar, avliyo va shayxlarga, keyinchalik ularning qabriga sig'indi, bu harakatlari unga xotirjamlik, osoyishtalik, keltirishini sezdi. Bunday harakatlar turizmda ziyoratgoh yoki diniy turizm nomini oldi.

Keyinchalik o'tmishdagi o'z ajdodlari qurgan mo''jizakor, mahobatli qurilish inshootlariga, insoniyatning mashhur sarkardalari qurdirgan

qasrlarni ko‘rishga intildi. Bu harakatlar hozirda tarixiy obidalar turizmi deb nomlangan.

Shu tariqa turizmning turlari ro‘yxati to‘lib bordi. Hozirgi rossiyalik mutaxassislarning yozishicha jahonda turizmning asosiy turlari 20-22 yo‘nalishdan iborat.

Qayd qilingan fikr, mulohazalar shuning uchun ham keltirildiki, turizmdagi maxsus turlar ro‘yxatini tuzishdan oldin turizmdagi asosiy turlarning mohiyatiga to‘xtalish zarurati bor. Asosiy turlar bilan maxsus turlar mohiyatini, mazmunini taqqoslash bu turlarni bir-biridan ajratish xususiyatlarini, sabablarini tushuntira oladi.

2. Turizmdagi asosiy turlarning tarifi

Talabalardan turizmning turlarini sanab bering degan savolga talaba - ichki turizm, xalqaro turizm, kiruvchi turizm, chiquvchi turizm, avtoturizm deb keyinchalik ziyoratgoh turizmi, ekologik turizm, sport turizmi deb davom etadi.

Javobdan malum bo‘ladiki, talaba turizmning turlarini statistika uchun kerak bo‘ladigan turistlar oqimini hisobga oladigan ichki, xalqaro, kirish va chiqish turistlar harakatiga qo‘shib yubormoqda. Ichki, xalqaro, kirish va chiqish turizmi deganda turistlarning sonini hisobga olish va o‘sish yoki kamayishga qarab rejalashtirish ishlarini amalga oshirish tushuniladi. Bu ko‘rsatgichlar turizmdagi tur emas. Turizmdagi tur turistning malum bir qiziqish obekti-turistik resurs – makonni anglatadi.

Turizm rivojlangan mamlakatlarda qaysi turlar ro‘yxatga olingan va qaysi belgilar asosida turni nomlashganligini bilmaganimiz pand bermoqda.

Aleksandrova A.Yu. ma’lumotlari bo‘yicha turizmdagi maxsus turlar qo‘yidagilar iborat:

1. Shahar turizmi.
2. Ishchanlik turizmi.
3. Qishloq turizmi.
4. Ekologik turizm.
5. Sport turizmi.
6. Ziyoratgoh turizmi.

Bu turlarni tahlil qilganimizda **sport turizmi to‘rtta** turga ajratilgan:

* tog‘ sport chang‘i turizmi;
* golf turizmi;
* dayv turizmi;

* ekstremal holatlardagi turizm.

Yuqoridagi turizm turlarini maxsus yoki asosiy deb ajratish xususiyatlarini topish qiyin. Ekologik, ziyoratgoh va sport turizmlari jahonda eng katta turistlar oqimini tashkil qiladigan turlar hisoblanadi. Golf, Dayv turizmi va eksterimal turizm turlarini diniy, tarixiy, ekologik va sport turizmi turlariga tenglashtirib bo'lmaydi. Demak Rossiya davlati turizmida turizmdagi turlar darajalarga ajratilgan emas.

Tur – ma'lum marshrutda, ma'lum muddatda taqdim etiladigan, turli xizmatlar (joylashtirish, ovqatlantirish, transport xizmati, maishiy, turistik ekskursiya va boshqa xizmatlar to'plamidir).

Butunjahon turizm tashkilotining (VTO) – ma'lumotlari bo'yicha turizmda beshta (turini) istiqbolli yo'nalish deb e'lon qilgan.

1. Sarguzasht turizmi.

Bu tur asosan tog' cho'qqilariga chiqish, suv osti kemalarida sayohat qilish va «erning oxiri» ga sayohat yo'nalishlarida rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda bu turni tog' so'qmoqlari, cho'llar bo'ylab va Orol dengizi havzasiga sayohat marshrutlari bo'yicha rivojlantirish mumkin.

2. Dengiz va suv havzalari bo'ylab sayohat turizmi.
3. Madaniyatni o'rganish turizmi.
   a. diniy ziyoratgoh turizmi.
   b. Madaniy-tarixiy turizm.
4. Ekoturizm.
5. Mavzuli turizm.
   a. iqlimni o'rganish.
   b. hayvonot olamini o'rganish.
   c. o'simlik dunyosini o'rganish.
   d. paleontologiyani o'rganish.

Qayd qilingan ro'yxatda bizning **fikrimizcha** katta turistlar oqimini tashkil qiluvchi turlar jamlangan.

Turizmning shakllari va turlari deyilganda xalqaro statistika sayohatlarining yo'nalishlari bo'yicha qo'yidagi shakllarni ajratish mumkin.

1. Ichki turizm – o'z davlati chegarasida sayohat. Ekspertlar xulosasiga ko'ra sayoh 80-100 km dan oshgan masofaga sayohat qilsa, turizm sayyohi deyiladi
2. Kirish turizmi - O'zbekistonga boshqa davlatlardan turistlarning kelishi.

3. Chiqish turizmi – agar O‘zbekistonlik Malayziyaga sayohat qilsa. chiqish turizmi (turist) bo‘ladi. Malayziyaga borgandan keyin, u turist Malayziya uchun kirish turizmiga kiradi.
4. Milliy turizm – ichki va chiqish turizm shakllarini birlashtiradi.
5. Xalqaro turizm – kirish va chiqish turizmlaridan tashkil topadi.

Shuning uchun ham rossiyalik mutaxassislar adabiyotidagi chalkash tasniflardan foydalanib O‘zbekistonda turizmning qaysi turlarini rivojlantirish istiqbollari borligiga to‘xtalish fikrimizcha to‘g‘ri bo‘ladi.

Umuman olganda turizmning turlarini belgilashda O‘zbekiston uchun qulay bo‘lgan usulni qo‘llashimizni hech kim taqiqlamaydi. Respublikamizda turizmni rivojlantirishga jadal kirishilayotgan ekan, turizmdagi turlarni salohiyatiga qarab, ularga keladigan turistik oqimlarga qarab ma’lum bir guruhlarga ajratishimiz mumkin.

Turistik resurslar salohiyatiga qarab Respublikamizda turizmdagi quyidagi asosiy turlarni rivojlantirish mumkin va bu turlarni asosiy turlar deb qabul qilish lozim.

Diniy turizm - Islom dini olamidagi mashhur kishilarning qabrlarini ziyorat qilish. Makkaga, Madinaga haj va umra safarlari. Buxoro, Samarqand, Shaxrisabz shaharlariga kelib masjidlarda «juma» namozlarini o‘qish.

Tarixiy obidalar turizmi - Buxoro, Xiva, Samarqand, Shaxrisabz, Toshkent shaharlaridagi va Respublikamiz tumanlaridagi tarixiy obidalarni ko‘rishga qiziqish.

Ekologik turizm - Vatanimizning go‘zal tabiat mintaqalariga, noyob o‘simliklar olami va hayvonot dunyosiga, 4 faslning iqlimiy xususiyatlarini ko‘rishga qiziqish.

Arxeologik turizm - Samarqand, Buxoro, Xorazm shaharlarining qoldiqlari, qadimiy qalalar harobalari, ko‘hna qadimiy Markaziy Osiyo xalqlari hayoti haqidagi arxeologik topilmalarga qiziqish.

Sport turizmi - Xalqimizning hozirda jahon bo‘yicha ommaviylashib borayotgan milliy kurash, tennis, futbol, chang‘i sporti, boks va boshqa musobaqalariga qiziqish.

Sog‘lomlashtirish turizmi - Vatanimizning sog‘lomlashtirish markazlarida, kurort va sanatoriyalarida, minėral, shifobaxsh suvlari maskanlarida, shifobaxsh qum- balchiqlarida, ma’danli suvlari manzillarida davolanishga qiziqish.

Rekreatsion turizm - Tabiat bag‘ridagi mo‘jizakor go‘shalarda, tog‘ o‘rmonlaridagi shifobaxsh daraxtlar ichida, tabiiy sharsharalar, zilol buloqlar yonida vaqtinchalik dam olishga qiziqish.

Ovchilik turizmi - Respublikamizda ov qilishning huquqiy-qonuniy me'yorlari yaratilganligi, ovchilik maydonlarining katta hududlarni egallashi, ovchilik obektlarining aniqligi, ovda harakatlanishning erkinligidan qurol va qurolsiz ovchilikka qiziqish.

Kasbiy faoliyat turizmi - kasbiy faoliyat yuzasidan chet davlatlarga borishga, chet elliklarning respublikamizga kelishiga, tijoratchilar, tadbirkorlar, savdogarlar, qo'shma korxonalar tuzuvchilarning mamlakatlardagi o'z kasbi faoliyati doirasida malakalar oshirish, mahsulotlar, asbob-uskunalar va zamonaviy texnologiyalarni sotib olishga yoki tanishishga qiziqish.

Ilmiy turizm - Vatanimizda va xorijda talim olish, xalqaro ilmiy markazlarda o'qish, xalqaro yirik Universitetlarda ilmiy-amaliy malakalarini oshirish, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar, simpoziumlarga qatnashish, xalqaro ilmiy grant loyihalarni bajarishga, magistratura, aspirantura va doktoranturani xorij mamlakatlarda , vatanimizda o'tkazishga qiziqish.

Savdo turizmi - Vatanimizda va xorijda faqat savdogarchilik masalalariga, mol olib kelish va olib ketish, ayriboshlash, savdo markazlari ochish, narx-navo o'zgarishiga, valyutalar bahosiga, yangi bozorlarga, haridor talab mollar savdosiga qiziqish.

Ijtimoiy turizm - Davlat tomonidan yoki shaxs ishlab turgan korxona hisobidan sayohatga chiqish, sog'lomlashtirish, dam olish maskanlariga, kurort va sanatoriyalarga borishga qiziqish.O'zbekistonda bunday imtiyozlarni O'zbekiston kasabachilar uyushmasi federatsiyasi ishlab chiqadi.

Ekskursiya (tanishuv, ko'rish) turizmi - bu tur asosan mamlakat ichkarisida ko'proq rivojlanadi. Yakka shax syoki guruh bo'lib tashabbuskor (o'qituvchi, ekolog, injener, mutaxassis) boshliq rahbarligida qisqa muddatlarda o'lkashunoslik, tarixiy, madaniyat muzeylarini botanika bog'larini, zavod, fabrikalarning ish faoliyatlarini, yaqin masofalardagi oromgohlar, tabiiy landshaftlarni, hayvonot bog'lari, suv va daryo havzalarini ko'rishga qiziqish.

Shaharsozlik turizmi - O'z vatanida va xorij davlatlaridagi zamonaviy shaharlarni ko'rishga qiziqish. Toshkent, Samarkand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz shaharlaridagi yangi obidalar va yangi tipda kengaytirilgan shaharlar, ayniqsa cho'llarimizda bunyod etilgan Navoiy, Zarafshon, Uchquduq shaharlariga qiziqish ichki turizmda ham xalqaro turizmda ham o'zining turistik bozorini topishni taminlashimiz lozim.

Qayd qilingan 14 ta turizm turi Respublikamizda talablar darajasida rivojlanishi mumkin. Chunki bu turizm turlariga (ichki va tashqi turizmda) turistlarning qiziqishlari haqida batafsil malumotlar bor. *Ikkinchidan*, qayd qilingan turlarning turistik resurslari - obektlari xilma-xilligi, mazmundorligi, diqqatga sazovorligi, ulug'vorligi, muqaddasligi, noyobligi, betakrorligi jihatlari, ko'rinishlari tariflari shiddatli ravishda televideniye, internet axborotlar tizimida reklama qilinmoqda.

Shuningdek, turizm rivojlangan davlatlardagi tajribalardan malumki bu turlarga turistlarning oqimi juda katta masshtablarda bo'ladi. Shuning uchun ham qayd qilingan turlar turizmdagi asosiy turlar deb kelinmoqda va shunday nomlash ham to'g'ri bo'ladi.

3.Turizmdagi maxsus turlarning tarifi

Turizmning maxsus turlari haqida Respublikamizda birinchi so'zni aytgan va bu turlarning dastlabki ro'yxatini tuzgan M.T.Aliyeva hisoblanadi.

M.T.Aliyeva turizmdagi maxsus turlarni quyidagicha qayd qilgan:

1. Madaniyatga qiziqish turizmi.
2. Tabiatga qiziqish turizmi.
3. Qishloq turizmi.
4. Fermerlar hayoti turizmi.
5. Piyoda va vilosepidda harakatlanish **turizmi.**
6. Ixtisoslashgan motivlardagi turizm.
7. Etnik turizm.
8. Diniy ziyoratgoh turizmi
9. Kasbiy faoliyat turizmi.
10. Sog'inish turizmi.
11. Sarguzasht turizmi.
12. Ekologik turizm.

M.T.Aliyeva o'zining malumotlarida turizmning maxsus turlarini quyidagi tarif bo'yicha ajratadi - «Turizmning ushbu turlariga biror rayonning o'ziga xos, farq qiluvchi xususiyatlari bilan tanishish maqsadidagi sayohati kiradi. Bu sayohatlar turistlarda shakllangan (havaskorlik va professional)qiziqishlardan kelib chiqadi. Maxsus turlarga turizmning kichik ko'lamli noananaviy turlari ham kiradi.»

Mazkur tarif bo'yicha ekologik turizm, diniy ziyoratgoh turizm va tabiatga qiziqish turizmlari kichik ko'lamli emas balki, eng ommaviy turistik oqimni tashkil qiladigan turizm turlari hisoblanadi. Shuning uchun

ham turizmdagi bu uchala tur turizmning asosiy turlari ro'yxatiga turishi bizningcha to'g'ri bo'ladi.

Shuningdek, piyoda va velosipedda harakatlanish turizmning turi emas balki, turistning xohish - istagi bilan o'zi tanlagan harakatlanish vositasidir. Agar turistning bu kabi harakatlarini tur deb qabul qilsak avto turizm, samolyot turizmi, temir yo'l turizmi yoki tuya va eshak turizmi degan mazmunsiz turistik atamalar paydo bo'ladiki, bu atamalarni yaratish aslo mumkin emas. Turistning transport turlaridan foydalanishi turizmda transport xizmatlariga kirishni bilish unchalik murakkab tushuncha emas.

Ro'yxatdagi ixtisoslashgan motivlardagi turizm turi turizmdagi aniq turni anglatmaydi. Chunki turizmdagi hozirgi turlarning barchasi malum bir turistik resursga - obektga qiziqish natijasida xuddi, aynan shu turistik resursning – obektning yoki resurslarning – obektlarning nomiga ixtisoslashgan, nomlangan. Masalan: arxeologik turizmi - qadimiy shaharlar, obidalar, sivilizatsiya qoldiqlarining ochilib hozirgi ko'rinishini olishi; ekologik turizmi – betakror tabiat va uning resurslari, biologik xilma-xillik, tabiiy mintaqalar landshafti; ovchilik turizmi - ovchilik obektlari - qushlar, hayvonlar, baliqlar. Ikkinchidan ixtisoslashgan motivlardagi turizm turlari hali malum emas.

Ro'yxatdagi etnik turizmi va sog'inish turizmlarini va qishloq turizmi va fermerlar hayoti turizmlarini mazmuni va mohiyati jihatidan etnik va sog'inish turizmi, qishloq va fermerlar hayoti turizmini agroturizm deb atasak to'g'ri bo'ladi.

Turizmdagi maxsus turlarni aniqlashda M.T.Aliyevaning – «kichik ko'lamli, noananaviy turlar» tarifi asosiy mezon qilib olindi. Shuningdek turizmdagi barcha asosiy (katta ko'lamli, ananaviy) turlar insonning ishlab chiqarish, bunyodkorlik, izlanuvchanlik, tarixga, tabiatga, o'tmishga qiziqishdan kelib chiqganligini hisobga olsak, kichik ko'lmali noananaviy turizm turlarini ham ushbu ishning o'rganish obektlari – xalqimizning qadimdan hayot kechirishi davomida hozirgacha saqlab kelgan va yanada rivojlanib borayotgan ijodkorlik, yaratuvchanlik mehnati, kasbkorlik yo'nalishlari sohalari, milliy urf-odatlari, milliy o'yinlari, milliy madaniyati va sanati, shuningdek, betakror tabiatimizning tarixiy-ekologik iqlim jarayonlari ta'sirida hosil bo'lgan mo'jizakor, hayratomuz ko'rinishlardir.

Shu jumladan muzeylarimizni zooparklarni va xotira bog'larini, majmualarni ham maxsus turlarga kiritishimiz mumkin.

4. Maxsus turlarni turizmda shakllantirish

Turizm resurslarini ro'yxatga olishda va malum bir obektning turizm resursi bo'la olishligi o'rganilgandan keyin bu obektga yoki tabiiy makonga yoki ishlab chiqarish sohasiga «turizmi» so'zini qo'shish bilan hal qilinmaydi. Masalan: hunarmandchilik sohasini «hunarmandchilik turizmi» kabilar.

Ishlab chiqarish resurslarini turizm resurslariga aylantirishdagi dastlabki talab mamlakatda ichki va tashqi turistlarni birinchi navbatda qiziqtira oladigan soha yoki obektni o'rganish to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz. O'rganiladigan obekt oddiy istemolda emasligi xalqimizning o'ziga xos bo'lgan bejirim buyumlarining boshqa davlatlarda ishlab chiqarmasligi, urf-odatlarning milliyligi yoki milliy o'yinlarning boshqa davlatlardagi xalqlar hayotida umuman yo'qligi, milliy sanatkorlik ijodlari mujassam bo'lishi birinchi navbatda chet ellik turistlarni jalb qiladi.

Bunday obektlarga masalan hunurmandchilik, yoki ustachilikni olganimizda dastlab dunyoning barcha davlatlarida yashayotgan xalqlarning ham o'ziga xos milliy hunarmandchilik va milliy ustachilik sohalari albatta bor. Biz ishlab chiqarishdagi milliy hunarmandchilik yoki ustachilikda o'zimizning hunarmandchilik yoki ustachilik sohalari buyumlarining noyobligi, go'zal-bejirimligi, mustahkamligi, bu buyumlarda sanatkorlikning, kishilarni hayratga soladigan ijod namunalarining ko'pligidan, boshqa davlatlardagi xuddi shunday buyumlar, mahsulotlardan ancha ustunligiga e'tibor berishimiz lozim bo'ladi.

Masalan, kashtachilikdagi ikki yo'nalish: oddiy kashtachilik va zardo'zli kashtachilikning boshqa davlatlarda yashayotgan xalqlarning kashtachiligidan ustunligi shundan iboratki so'nggi vaqtlarda O'zbekistonga kelib ketayotgan davlat rahbarlari, Bosh vazirlar, mashhur adiblarga, xalqaro miqiyosdagi taniqli rahbarlar, sport va san'at yulduzlariga maxsus marosimlarda zardo'zli to'n va do'ppi kiydirilmoqda. Ikkala buyum ham faqat o'zbekistonliklar uchun milliy buyum xillari hisoblanadi. E'tibor qilsak qozoq, qirg'iz, turkmanistonliklarning ham to'nlari, do'ppilari, o'zlarining milliyligini ko'rsatib turadi.

Binobarin, Markaziy Osiyo xalqlarining kelib chiqishlari deyarli bir, yashash manzillarining yaqin-qo'shni ekanligidan bizdagi do'ppi va zardo'zi to'n tikish ularda ham bo'lishi mumkin edi. Lekin qadimiy tub joy aholining buyumlar yaratishdagi milliy urf-odatlari va iqlim xususiyatlari, bayram tantanalarda kiyish odatlari va xush ko'rishlari nuqtai – nazaridan

Markaziy Osiyo xalqlarida qayd qilingan ikala buyumni tikishda turli uslub, tanlash va yo'nalish hosil bo'lgan. Demak, bizdagi milliy do'ppichilik va zardo'zi to'n tikish qo'shni davlatlarda rivojlanmagan ekan dunyoning boshqa bironta davlatlarida bizdagidek usullari umuman yo'q hisoblanadi. (Xitoy xalq respublikasidagi uyg'ur xalqida ham zardo'zi kashtachilik rivojlangan). Bu xulosalardan milliy qo'l hunarmandchiligidagi do'ppichilik va zardo'zi to'n tikishni xalqaro turizm obekt– resursi sifatida maxsus turlar ro'yxatiga qo'shsa to'g'ri bo'ladi.

Xalqimizning milliy o'yinlaridan turizm sohasida foydalanishning juda katta imkoniyatlari borligini ilg'ash qiyin emas. Masalan, qushlarni urishtirish o'yini yoki musobaqasi dunyoning juda ko'p mamlakatlarida bor. Bizda qushlarning xo'roz urishtirish va bedana urishtirish o'yinlari bor. Bu qushlarni urishtirish musobaqalari O'zbekiston Respublikasida juda ommalashagan. Xo'roz urishtirishning jahon birinchiligi ham o'tkaziladi.

Endi, ichki turizmda bu o'yinlar hozir ham shaharlar, tumanlarning bozor maydonlarida o'tkaziladi. Xalqaro turizmda albatta bu «urishtirish» o'yinlari ommaviylashmaydi. Chet ellarda juda kam sonli ishqibozlar bu o'yinlarga qiziqib kelishi mumkin. Bozorlarda esa asosan vaqti bor va to'satdan nigohi tushgan, bozorga kelgan kishilar bu o'yinlarni tomosha qilishadi. Bu o'yindan turizm maqsadlarida foydalanilsa ham «kichik ko'lamli, noananaviy tur» bo'lib qolaveradi. Bu o'yinlarni turizmga jalb qilishning eng zarur tomoni shundan iboratki, ichki turizmda ham tashqi - xalqaro turizmda ham qayd qilingan «yangi turdan» yo'l-yo'lakay, turistlarning ko'ngil ochar o'yinlarni, dam olishni xoxlagan vaqtlarida foydalanish, turistdlarga taklif qilish mumkin. Albatta bunday taklif xizmatlar pullik bo'ladi.

Turizmdagi maxsus turlarni aniqlish va ro'yxatga olish, kuzatish, ustaxonalardagi hunarmandlar va ustalarning faoliyat va ishlab chiqargan buyumlarini tomosha qilib shunday xulosaga kelish mumkinki, turizmda foydalanish uchun ro'yxatga olayotgan aksariyat turlardan ichki turizmda ekskursiya- tanishuv turizmida xalqaro turizmda esa qo'shimcha tur manbalari sifatida (turistga taklif qilish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, suratga yoki videoga olish va hako'zolar) foydalanish mumkin.

Tayanch iboralar: Turizmdagi asosiy turlar, turizmdagi maxsus turlar, milliy hunarmandchilik va milliy ustachilik, milliy o'yinlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Turizmdagi asosiy turlariga haqida ma'lumot bering.
2. Turizmdagi maxsus turlar haqida ma'lumot bering.
3. Milliy hunarmandchilik va milliy ustachilik sohalarining maxsus turlarni yaratishda tutgan o'rni?
4. Milliy o'yinlarimizning turizmni rivojlantirishdagi o'rni haqida gapirib bering.

Mavzu 11. Turizmdagi maxsus turlarning tasnifi, tavsifi va geografiyasi

Reja:

1. Turizmdagi maxsus turlarning tasnifi va tavsifi.
2. Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi.

1. Turizmdagi maxsus turlarning tasnifi va tavsifi

Tasniflash har qanday sohaga muhim, to'liq malumotlar beruvchi, soha rivojini rejalashtirishda asosiy manba bo'luvchi, jadvalli muhim ma'lumotnomadir. Tasniflashda o'rganilayotgan sohaning barcha jihatlari, xilma-xilliklari, ma'lumotlari bo'lishi lozim.

Maxsus turizm turlarining ro'yxatini tuzishda ba'zi bir turlar ma'lumotlarning yo'qligi tufayli qolib ketishi mumkin. Bunday turlar aniqlanib, to'liq tavsifi, ta'rifi berilganidan keyin turizmdagi o'rni, talabga javob berilishi belgilanganidan keyin tasnifga qo'shimcha qilib kiritiladi.

Turizmdagi maxsus turlar hozircha turizm turlari emas. Bu haqda birinchi bobda to'liq aytildi. Biz turizmda maxsus turlar bo'lishi mumkinligin hisobga olib, madaniyat sohalari, hunarmandchilik, milliy o'yinlar va ishlab chiqarish sohalari nomlanishiga turizm so'zini qo'shib turizmdagi maxsus turlar ro'yxatini – tasnifini keltirishga harakat qildik.

1. Milliy madaniyatga qiziqish turizmi.

Xalqimizning urf-odatlari, tildagi shevalar, oila hayoti, kattalar va yoshlar munosabatlari, salomlashish, mehmon kutish va mehmondorchilik, to'y va diniy marosimlar, oila bayramlari, oiladagi huquqlar, kelin va sunnat to'ylari, uy tutish va hokazolarga qiziqish.

2. Agroturizm

Qishloqlarning turli- tumanligi va tabiiy –tarixiy davrda yuzaga kelishi, qishloq aholisi hayoti, fermerlar hayoti va faoliyatiga qiziqish.

3. Etnik va sog'inish turizmi

Xalqlar, ellar, urug'lar, ularning yashash tarzi, millatlarning urf-odatlari, kelib chiqishi tarixi, joylashishi, o'zaro aloqalari. Xalqlarning, millatlarning har xil sabablar bilan dunyo bo'ylab tarqalib ketishi, ularning bir-birlariga ketilishi, sog'inishi, qo'msashidagi ichki va xalqaro turizm.

4. Milliy sanat turizmi

Milliy sanat, milliy folklor, qo'shiqchilik, milliy raqslar, askiyalar, laparlar aytishuvlar, rassomchilik va haykaltaroshlik, baxshilar,o'lan aytish qo'shiqchilik lari kabi sanat turlariga qiziqish. Bu tur quyidagi yo'nalishlarga bo'linadi:

1.1. Qo'shiqchilik va raqs san'ati yo'nalishlari.
2.2. Baxshilar qo'shiqchiligi maktablari.
3.3. Askiyalar, laparlar, aytishuvlarga qiziqish.
4.4. Milliy rassomchilik va haykaltaroshlik.
5.5. Milliy folklor turlari.

5. Tabiiy – tarixiy tasvirlar turizmi

Tabiat muzeylari va tabiat haykallari, tog' qoyatoshlaridagi qadimiy rasmlar, o'lkashunoslik va milliy xalq hayoti tarixiy muzeylariga qiziqish. Bu turham quyidagiyo'nalishlarni o'z tarkibiga oladi:

1.1. Tabiat muzeylari va tabiat haykallari
2.2. O'lkashunoslik muzeylari
3.3. Milliy xalq hayoti tarixi muzeylari
4.4. Qoyatoshlaridagi qadimiy rasmlar
5.5. Hayvonot bog'lari.

6. Milliy hunarmandchilik turizmi

Milliy hunarmandchilikning turlari, milliy hunarmandchilikdagi yo'nalishlar, xalq – memor, xalq- usta shiori va reklamasi, milliy hunarmandchilik buyumlarining mukammal va mo'jizakorligiga qiziqish. Bu turizm turi quyidagi tarmoqlarga bo'linib ketadi:

6.1. Duradgorlik va uning maktablari.
6.2. Kulolchilik va uning maktablari.
6.3. Kashtachilik, zardo'zlik, milliy liboslar(do'ppi, to'n, belbog'lar) tikishdagiyo'nalishlar.
6.4. Milliy ustachilik
  6.4.1 Temirchilik
  6.4.2 Misgarlik
  6.4.3 Musiqasozlik
  6.4.4 Beshiksozlik
  6.4.5 Aravasozlik
  6.4.6 Sandiqsozlik
  6.4.7 Egarsozlik
  6.4.8 Mahsido'zlik
  6.4.9 Gilamchilik va palos to'qish.

7. Milliy o'yinlar turizmi.

Markaziy Osiyo xalqlarida milliy o'yinlar nomini olgan o'ziga xos musobaqalari, mardlik, jasurlikni namoyish qiluvchi bellashuvlar va Dune xalqlarida ko'plab uchraydigan hayvonlar va parrandalarni urishtirishga qiziqish. Bu tur quyidagiyo'nalishlardan iborat:

7.1. Ko'pkari-uloq.

7.2. Milliy kurash.
7.3. Qo'chqor urishtirish.
7.4. Xo'roz urishtirish.
7.5. Bedana urishtirish.
7.6. Darbozlik

8. G'orshunoslik turizmi

O'lkamizdagi tarixiy g'orlar,g'orlar haqidagi malumotlar, tarixiy shaxslar hayoti bilan bog'liq g'orlar, paleontologik g'orlar, g'orlardan o'tmishda va hozirda foydalanish, yer osti qasrlariga sayohatga qiziqish.

9. Sirk turizmi

Sirkdagi mashhur kishilar - sanatkorlar, sehrgarlar, gipnozchilar va hayvonot turlari ishtirokidagi o'yin dasturlariga qiziqish.

10. Agroturizm

Mamlakatimizdagi asosiy ekinlar, milliy gulchilik, introduksiya, o'simliklar seleksiyasiga, qishloqdagi dehqonchilik, polizchilik, meva-sabzavotchilik, bahorikor va sug'orma dehqonchilikga qiziqish.

11. Xalqaro polvonlar bellashuvi turizmi

Vatanimizda xalq polvonlari o'yinlari va xalqaro polvonlarning bellashuviga qiziqish.

12. Hayot uchun xavfli sport o'yinlari turizmi

Bu turlar asosan xorij mamlakatlarida rivojlanib bormoqda. Hayot uchun xavfli sport o'yinlari turizmdagi bazi bir turlar faqat jahonda faqat bitta davlatda rivojlangan (masalan, korrido Portugaliyada, asov otni jilovlash Ispaniyada) bo'lib turizm mavsumida bu hayot uchun xavfli o'yinlarni millionlab turistlar hayajon, qo'rquv va qiziqish bilan tomosha qiladilar. Bur turlarni ba'zida ekstremal turizm turlari deb ham atashadi.

12.1. Beys jamping - baland qoya va binolardan parashyutda sakrash.
12.2. Xeliskiing - chang'ida vertolyotdan qorli tik qoyaga sakrash.
12.3. Dayving – suv ostiga sho'ng'ish.
12.4. Keyv-dayving - suv osti g'orlariga sayohat.
12.5. Bull– rayding – asov ho'kizni (buqani) jilovlash.
12.6. Korrido – asov otni jilovlash.
12.7. Syorfing – okean, dengizning shiddatli, baland to'lqinlaridan taxta chang'ida suzib o'tish.
12.8. Strikaging – avtomobillar serqatnov tik tog' yo'lidan pastga qarab roliklı taxtaga yotib harakatlanish.
12.9. Skalolazing – tik qoyalarga, baland binolarga himoyasiz, arqonsiz va asboblarsiz chiqish.

12.10. Velokross - velosipedda havoda mashqlar bajarish, noqulay joylarga chiqish va tushish.

12.11. Motokross – mototsiklda yonayotgan obektlardan sakrab o'tish.

12.12. Rafting - o'ta tez oqadigan, havfli shovvalar, kamarlar bor daryo oqimi bo'ylab maxsus qayiqlarda suzish.

12.13. Dorbozlik - himoyasiz va shartli himoyada baland bino, baland qoya va keng suv havzalariga tortilgan arqondan yurib o'tish.

12.14. Niagara - baland, sersuv sharsharalardan (bochka ichida, maxsus kiyimda va hak.) balanddan suv, bilan pastga tushish.

12.15. Koinot - kosmik kemada kosmonavtlar bilan fazoga borib kelish.

12.16. Ralli- Parij shahridan Afrika sahrolari orqali avtomobillarda, mototsikllarda Dakar shahrigacha bo'lgan sportbirinchiligi.

12.17. Zaharli ilonlar, chayonlar orasida o'tirish, ilon o'ynatish.

Keltirilgan maxsus turlarning tasnifidan malum bo'ldiki O'zbekistonda turizmning maxsus - «kichik ko'lamli, noananaviy» turlarining «katta ko'lamli, ananaviy» turlarga aylantirishda juda katta turistik salohiyati bor ekan. Keltirilgan 12 ta maxsus turlardan 11 turini turizmda shakllantirish mumkin. Bu turlar ham ko'pqirraliligi va ko'pvariantliligi jihatidan o'ziga xos, betakror ijodiy yaratuvchanlik yo'nalishlariga, tarmoqlariga bo'linib ketadi.

Mazkur turlarga ichki va ayniqsa xalqaro turistlarni jalb qilish, taklif qilishdagi tashkiliy tadbirlar ishlab chiqilsa, maxsus turlardan turizmda foydalanishning dastlabki rejalari amalga oshirilgan bo'ladi. Ichki turizmda maxsus turlarning ommaviy rivojlanmayotganligining bosh sababi maxsus turlar manzillariga marshrutlarning yo'qligi, bu turlar manzillarini hatto ekskursiyaga chiquvchilar ham, shuningdek shaharlarda yashayotgan aholining ham ko'pchiligi bilmasligidir.

Bu holatning yana bir sababi qadimiy xalq hunarmandchiligi maskanlari, xalq ustalari haqida kam yozilishi, radio, ommaviy axborotlar va televideniyeda malumotlar, reklamalarning juda siyrak holatda berilayotganidir. Aks holda Samarkand shaxriga boshqa viloyat va shaharlardan kelgan mehmonlar albatta xalq ustalari, hunarmandlari ishlarini tomosha qilishga qiziqish tufayli bunday joylarga ekskursiyalar, tashriflar qilishi mumkin edi.

Doimo yodda saqlashimiz lozimki, O'zbekiston azaldan xalq hunarmandchiligi bilan mashhur bo'lib kelgan. Hozirgi vaqtda respublikada xalq hunarmandchiligi asosida estalik buyumlar ishlab

chiqaruvchi 500 ga yaqin korxona mavjud. Ular chinni va sopol buyumlar, pichoqlar, sopol o'yinchoqlar, zardo'zi mahsulotlar, gilam, poloslar va milliy kiyimlar va boshqa buyumlar ishlab chiqarmoqda.

Turizmdagi maxsus turlarning tavsifi bo'yicha hozircha hayot uchun xavfli sport turlari turizmlarini rivojlantirib bo'lmaydi. Chunki bu turlarni tashkil qilish hozircha boshlanmagan.

Hayotga xavf soluvchi sport o'yinlari turizmning ayrim turlarini tadbirkorlar keyinroq tashkil qilishi mumkin. Sarguzasht va hayotga xavf soluvchi sport o'yinlari turizmning huquqiy- qonuniy meyorlari bizda ham ishlab chiqilmagan.

Maxsus turlarning ayrim turlarini hozirdanoq ommaviylashtirishning katta imkoniyatlari bor. Masalan, tobora unutilib borayotgan dorbozlik o'yinlarini qaytadan tiklash, doimiy dorbozlik maskanlarini belgilash lozim. Bunday holatda turistlarni bu o'yinlarga taklif qilish vaqtlari aniq bo'ladi. Xuddi shuningdek, ko'pkari-uloq 2-3 oy davom etadigan, turistlarning katta oqimlarini o'ziga jalb qiladigan g'oyat qiziqarli turistik obekt. Bu turni ommaviylashtirish uchun eng muhim muammo turistlarni kutib olish, xizmatlarni tashkil qilish, joylashtirish, dam olish, ovqatlantirish va tunashi sharoitlarini tashkil qilish ishlarining haligacha boshlanmaganligidir.

Maxsus turlarning tavsifi va tasnifini tayyorlashdagi ma'lumotlarning tahlili natijasida shunday asosiy xulosaga kelish mumkinki, bu turlardan turizmda foydalanish istiqbollari juda katta va murakkab muammolarni yechishni talab qilmaydi. Dastlab tashkiliy jarayonlar va bu turlarning reklamasini ishlab chiqarish va turizm bozoriga chiqarish talab qilinadi.

2. Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi

Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi aniq manzillar bo'yicha aniqlanmagan. Maxsus turlarni hosil qiluvchi ishlab chiqarish sohalari, xalq hunarmandchiligi markazlari, milliy o'yinlar rayonlari va hokazolar hozirgacha aniq manzillar bo'yicha ro'yxatga olinmagan.

Samarqand shahridagi O'lkashunoslik va O'zbekiston xalqlari tarixiy muzeyidan ham O'zbekistonda hunarmandchilik rivojlangan tumanlar, yoki milliy folklor guruhlari, zardo'zlik yoki milliy o'yinlarning aniq geografik manzillari topilmadi.

Shuning uchun ham turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi asosan so'rov, savdo - tijoratdagi axborotlar, og'zaki hikoyalar, ko'p yillik

ekspeditsiyalarda **yuruvchilar axborotlari va hayotiy kuzatuvlar** asosida tuziladi (1-jadval).

1-jadval

Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi

№	**Turizmdagi maxsus turlar**	**Turizmda qiziqish, foydalanish obekti**	**Ommaviy rivojlangan, joylashgan tumanlar**
1	Milliy madaniyatga qiziqish turizmi	Urf-odatlar, oila hayoti, milliy etiket, kattalar va yoshlar munosabati, uy tutish, kelin to'y, sunnat to'y, mehmon kutish va mehmondorchilik marosimlari	O'zbekiston Respublikasining barcha viloyatlari, shaharlari, tumanlari, qishloqlari
2	Qishloq va fermer hayoti turizmi	Qishloqlarning turli-tumanligi va tabiiy – tarixiy davrda yuzaga kelishi, qishloq aholisi hayoti, fermerlar hayoti va faoliyatiga qiziqish.	Respublikamiz hududlaridagi qishloqlar, tog'dagi qishloqlar, suv havzalaridagi qishloqlar
3	Etnik va **sog'inish** turizmi	Xalqlar, ellar, urug'lar, ularning yashash tarzi, millatlarning urf-odatlari, kelib chiqishi tarixi, joylashishi, o'zaro aloqalari. Xalqlarning, millatlarning har xil sabablar bilan dune bo'ylab tarqalib ketishi, ularning bir-birlariga intilishi, sog'inishi	-O'zbekiston va dunyo mamlakatlari doirasida - O'zbekiston Respublikasi va qo'shni Markaziy Osiyo davlatlari
4	Sarguzasht turizmi	Tabiat mintaqalariga,	O'zbekistonda

		uzoq yurtlarga, ellarga, tog‘larga tavakkali gayoki reja asosida piyodayoki trans-portdayo‘lga chiqish	rivojlantirishga qiziqish judakam
5	Milliy san’at turizmi	Milliy san’at, qo‘shiqchilik, raqs, rassomchilik, baxshilar hayoti, askiyalar, laparlar, milliy folklor	O‘zbekiston Respublikasining hududlarida
	5.1 Qo‘shiqchilik	5.1 Xorazm usuli	Xorazm, Buxoro, Qoraqalpog‘iston viloyatlari
		5.1 2. Samarkand usuli	Zarafshon vodiysi
		5.1 3. Farg‘ona usuli	Farg‘ona vodiysi
	5.2. Qo‘shiqchilik-da baxshilar faoliyati	5 2.1 Qashqadaryo-Surxondaryo usuli	Qashqadaryo viloyati, Surxondaryo viloyati,
		5 2 2.Zarafshon – Nurota usuli	Samarkand viloyati, Navoyi viloyati
		5 2 3. Xorazm usuli	Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston
	5 3 Raqs san’ati	5 3.1. Xorazm usuli	Xorazm, Buxoro viloyatlari
		5 3 2. Qoraqalpoqcha usuli	Qoraqalpog‘iston
		5 3 3. Buxorocha usul	Buxoro viloyati, Tojikiston Respublikasi
		5 3 4. Farg‘onacha usul	Farg‘ona viloyati, Toshkent viloyati,
	5.4 Askiyalar, Aytishuvlar	5.4.1. Askiyalar	Farg‘ona vodiysi
		5.4 2. Aytishuvlar	Qoraqalpog‘iston, Xorazm
	5 5 Milliy rassomchilik	5 5.1. Rassomchilik	Samarkand, Buxoro, Xiva, Toshkent
		5 5 2 Haykaltaroshlik	Samarkand shaxri,

	va haykal-taroshlik		Toshkent shaxri
	5.6. Milliy folklor san'ati	5.6.1. «Boysun» folklori	Surxondaryo viloyati, Boysun tumani
		5.6.2 «Lazgi» folklori	Xorazm viloyati
		5.6.3 «Besh qarsak» folklori	Samarkand viloyati Urgut tumani
		5.6.4 «Oyguloyim» folklori	Qoraqalpog'iston
6	Tabiiy-tarixiy tasvirlar turizmi 6.1 Tabiat muzeylari	6.1.1 Sharsharalar	«Arslonbob»-Farg'ona
		6.1.2. Qadimiy buloqlar	"Baxmal", "Forish", «G'allaorol» tumanlari Jizzax viloyati, «Nurota» tumani, Navoiy viloyati va hok.
	6.2 Qoyatoshlar-dagi qadimiy rasmlar	6.2.1. Tabiat haykallari	Urgut tumani, Nurobod tumani, Samarkand viloyati, «G'allaorol» tumani Jizzax viloyati, Nurota tumani Navoiy viloyati
	6.3 Hayvonot bog'lari	6.3.1 Noyob hayvonlar yashash tarzi	Toshkent shahri Termez shaxri
	6.4. O'lkashunoslik muzeylari	6.4.1. Dune tabiatidagi hayvon va parrandalar kolleksiyasi	Viloyatlar markazi bo'lgan shaharlar
7	Milliy hunarmandchilik turizmi 7.1 Duradgorlik va uning maktablari	7.1.1. Yog'ochga o'yma shakl solish	Xorazm usuli, Urgut usuli, Samarkand usuli, Buxoro usuli, Farg'ona usuli
		7.1.2. Sovg'alar, shkatulkalar	Buxoro usuli, Samarkand usuli
	7.2. Kulolchilik va uning maktablari	7.2.1. Sopol buyumlar yasash	Xorazm usuli, Buxoro usuli, Samarkand usuli, Farg'ona usuli

	7.3.Kashtachilik	7.3.1.Matoga rangli gul solish	Buxoro usuli, Samarkand usuli, Jizzax usuli, Cho'llik lar usuli
		7.3.2.Zardo'zi kashtachilik	Urgut usuli, Buxoro usuli, Samarkand usuli, Farg'ona usuli
	7.4. Milliy Liboslar	7.4.1. Milliy do'ppi	Farg'ona viloyati, Namangan viloyati, Buxoro viloyati, Xorazm viloyati
		7.4.2. Milliy to'n	Xorazm viloyati, Surxondaryo viloyati, Toshkent viloyati, Farg'ona viloyati, Jizzax viloyati
		7.4.3.Atlas va beqasam buyumlar	Marg'ilon shaxri
		7.4.4. Baxmal buyumlar	Samarkand shaxri
	7.5 Milliy Ustachilik	7.5.1.Temirchilik, qadimiy asboblar	Respublikadagi tumanlar
		7.5.2.Misgarlik	Samarkand, Buxoro, Farg'ona, Xiva
		7.5.3. Musiqasozlik	Samarkand Xorazm, Farg'ona Vodiysi
		7.5.4.Beshiksozlik	Samarkand, Buxoro, Farg'ona Vodiysi
		7.5.5. Aravasozlik	Qo'qon
		7.5.6. Sandiqsozlik	Urgut, Samarkand, Buxoro, Farg'ona Vodiysi
		7.5.7.Egarsozlik	Baxmal Tumani, Jizzax viloyati, Qashqadaryo

			viloyati
		7.5.8. Mahsido‘zlik	Namangan
		7.5.9. Gilamchilik	Xorazm viloyati, Jizzax viloyati, Nurota tumani Navoiy viloyati,
		7.5.10.Palos to‘qish	Cho‘lxalqi, Jizzax va Navoiy viloyati
8	Milliy o‘yinlar turizmi 8.1.Ko‘pkari – uloq	8.1. Chavandozot ustidagi tortishuvga marraga uloq olib borish - ko‘pkari	Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy
9	8.2. Milliy kurash	8.2.Polvonlar kurashi musobaqasi	Buxoro viloyati, Qashqadaryo viloyati, Surxondaryo viloyati
10	8.3. Qo‘chqor Urishtirish	8.3. Qo‘chqor urishtirish musobaqasi tomoshasi	Xorazm, Qoraqalpog‘iston, Buxoro viloyatlari
11	8.4. Xo‘roz Urishtirish	8.4. Xo‘rozlar jangi tomoshasi	Samarkand shahri, Buxoro shahri, Farg‘ona vodiysidagi shaharlar
12	8.5. Bedana Urishtirish	8.5. Bedanalar jangi tomoshasi	Samarkand, Buxoro, Farg‘ona vodiysidagi shaharlar
12	8.6.Dorbozlik	8.6 Baland tortilgan arqonda yurish, o‘yin ko‘rsatish	Toshkent viloyati, Farg‘ona viloyati
14	G‘orshunoslik turizmi	9.Tabiatdagi yer osti qasrlariga sayohat. 9.1 Amir Temur g‘origa qiziqish	O‘zbekiston hududidagi g‘orlar (400 makonda), Qashqadaryo viloyati
15	Agroturizm	10 Xalqimizning dehqonchilik usullariga qiziqish(xalqaro turizm uchun)	O‘zbekistonning sug‘oriladigan yerlar hududlari

16	Xalqaro polvonlar bellashuvi turizmi	Xorij mamlakatlarida	Xorij mamlakatlarida
17	Hayotuchun xavfli sporto'yinlari turizmi	Xorij mamlakatlarida	Xorij mamlakatlarida

Maxsus turlarning geografiyasini o'rganishdan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:.

1. Turizdagi maxsus turlarning Respublikamizning deyarli barcha hududlarida manzillari bor. Jadvaldagi malumotlar dastlabki. kuzatuvlar natijasi bo'lib turizmdagi maxsus turlarning biz bilmagan manzillari ham juda ko'plab tumanlar, shaharlar va qishloqlarda faoliyatko'rsatib kelayotganligini anglash, tushunish qiyin emas.
2. Respublikamizdagi maxsus turlarning aksariyat turlari shaharlarimizda va tumanlarda joylashgan. Ayniqsa Buxoro, Samarkand, Toshkent, Xiva, Shahrisabz shaharlarida boshqa xalqlarda, maalakatlarda uchramaydigan mo'jizaviy, insonni hayratga soladigan, sovg'abop va umumiy foydalanishga juda zarur bo'lgan osori-atiqa buyumlar, qadimiy asbob-uskunalar ishlab chiqarilmoqdaki, ichki va xalqaro turizmda bunday imkoniyatlardan hanuzgacha foydalanilmay kelinayotganligining o'zi afsuslanarli holdir.
3. Turizmdagi maxsus turlardan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Farg'ona vodiysi va Shahrisabz shaharlarida majmuali foydalanishning tashkiliy jihatlari tezkor usullarda ishlab chiqilishi kerak.

Malumki, xalqaro turistlar oqimi qayd qilingan shaharlarda kuzatilmoqda. Bu turistlar asosan tarixiy va madaniy obidalarga va ziyoratgoh joylarga tashrif qilmoqdalar. Ana shu turistlarni ushbu shaharlardagi maxsus turizm turlariga takliflar qilish, qiziqtirish usullarini qo'llash vaqti keldi.

Bunday maqsadlarni, rejalarni amalga oshirish uchun shaharlardagi maxsus turlarning jahon andozalari bo'yicha shakllantirilgan, sifatli naqshlangan buklov reklamalarini o'zbek-rus va ingliz tillarida axborot va tushuntirishlar bilan mehmonxonalar, turistik firmalarga tarqatish va bu buklovlarni xorij davlatlardan kelgan turistlar bepul yoki sovg'a sifatida olishlarini taminlash amalda kutilgan usullardan bo'lishi shubhasizdir.Bu buklovlar turist vataniga qaytgandan keyin uning ko'plab vatandoshlarini qiziqtirishi mumkin.

4. Turizmdagi maxsus turlarning hunarmandchilik, ustachilik markazlari shaharlarda joylashganligi uchun shahardagi talabalar, kollej va akademik liseylar o'quvchilarini shuningdek atrof tumanlardagi maktablar o'quvchilarini imtiyozli ekskursiya usulida bu hunarmandchilik va ustachilik markazlarini ko'rishlarini taminlash ichki turizmning rivojiga ijobiy tasir ko'rsatishini yaxshi anglashimiz kerak.
5. Turizmdagi maxsus turlardagi milliy o'yinlarimizni turistik firmalar yoki turistik tashkilotlar tashkil qilishiga aslo hojat yo'q. Bu o'yinlarni xalqimiz o'z mavsumlarida doimo tashkil qilmoqdalar. Turizm sohasidagi mutaxassislarning vazifasi turitslarni bu milliy o'yinlarga taklif qilish hisoblanadi. Taklifgacha esa o'yinlarga yetib borish marshrutlari aniqlangan va turistlarga ko'rsatiladigan barcha xizmatlar ko'rsatish majmualari, sharoitlari yaratilishi talab qilinadi.

Tayanch iboralar: Turizmdagi asosiy va maxsus turlar, turizmdagi maxsus turlarning tasnifi va tavsifi, madaniyatga qiziqish turizmi, tabiatga qiziqish turizmi, qishloq turizmi, fermerlar hayoti turizmi, ixtisoslashgan motivlardagi turizm, etnik turizm, diniy ziyoratgoh turizmi, kasbiy faoliyat turizmi, sog'inish turizmi, sarguzasht turizmi, ekologik turizm.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

6. Turizmdagi asosiy va maxsus turlar haqida ma'lumot bering?
7. Turizmdagi asosiy turlarning tarifi.
8. Turizmdagi maxsus turlarning tarifi.
9. Maxsus turlarni turizmda shakllantirish yo'llari haqida ma'lumot bering?
10. Turizmdagi maxsus turlarning tasnifi va tavsifi.
11. Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi.
12. Sizning viloyatingiz (tuman) da turizmning qaysi maxsus turlarini rivojlantirish mumkin?

Mavzu 12. Turizm sohasida ko‘ngilochar faoliyat

Reja:

1. Turistik dam olish dasturini tasniflash
2. Turizm sohasida animatsiya xizmati

1. Turistik dam olish dasturini tasniflash

Ma’lumki XXI asr dunyo olimlari tomonidan turizm asri deb e’tirof etilmoqda.Ushbu industriya bugungi kunda eng ko‘p va tez daromad keltiradigan soha o‘sish davrini boshidan kechirmoqda. tadqiqotchilarning fikricha, yaqin orada ushbu soha yiliga 1 mlrd.dan ziyod kishiga xizmat qilish salohiyatiga ega bo‘lishi mumkin.

Jahon turizm bozorida O‘zbekiston ham o‘z nufuzi va salohiyatiga ega, chunki mamlakatimizda 1548 dan ortiq arxitektura yodgorliklari, 2586 nafar arxeologik yodgorliklar ro‘yxatga olingan.

Turizm nisbatan rivojlangan hamda chet ellik turistlarga xizmat ko‘rsatayotgan shaharlar beshligiga Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz shaharlari kiradi.

Tashrif buyurayotgan mehmonlarga jahon talablariga mos keladigan xizmatlarni taklif etish turizm sohasining asosiy shartlaridan biri bo‘lib kelmoqda.Bu xizmatlarni sifatli tashkil etib, uni amaliyotda qo‘llash, mamlakatimizga kelayotgan turistlar oqimini ko‘paytirishi mumkin

Zamonaviy turizm faoliyati o‘z texnologiyalarida uch asosiy ko‘rsatmani hisobga olishi lozim:

- turistlarning faol va mazmunli faoliyatga yo‘naltirilganligi;
- har bir turistning individual ehtiyojlarini hisobga olish;
- iste’molchi o‘z buyurtmasini amalga oshira boshlashi yoki yo‘llanmani sotib olish bosqichida ma’lumot beriladigan ilmiy asoslangan me’yor va standartlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish.

Istalgan turmahsulot har qanday holda ham bozorning hamma segmenti uchun birxil bo‘lmaydigan rekreatsion xizmat ko‘rsatish elementlarini o‘z ichiga olishi kerak. Shuning uchun turistik xizmat ko‘rsatishni tashkil etuvchilar o‘z mijozlarini yaxshi bilishlari zarur. Turistik dam olish dasturining quyidagi taxminiy tasnifini taklif qilish mumkin:

A. Sayohatqilish maqsadibo‘yicha:

- turistik-sog‘lomlashtirish yo‘nalishlari (faol harakat bilan, cho‘milish, tog‘ chang‘isi);
- ekskursiya-bilish;

- sport (turli sport turlari bilan shug'ullanish);
- o'rgatuvchi (tilni, alohida sport turlarini, hunarlarni o'rganish);
- tomosha-ko'ngil ochish (teatr, kino, yarmarkalar, festivallarga borish);
- qiziqishlar bo'yicha turlar (ov, baliq ovi, meva va qo'ziqorin terish, badiiy va musiqiy ijod);
- etnik va maishiy turlar, ya'ni, milliy madaniyat va noan'anaviy turmush tarzini o'rganish;
- to'y sayohatlari;
- ish va kongress turlar;
- ishlab chiqarish va tanishtirish dasturlari va h.k.

B. Harakatlanish usuli bo'yicha:

- statsionar turlar;
- yo'nalishli turlar;
- xich-xayking (avtostop bilan sayohat qilish);
- velo turlar va boshqalar.

V. Sayohatqatnashchilari tarkibi bo'yicha:

- guruhli turlar;
- individual turlar;
- oilaviy turizm: bolalar va o'smirlar turizmi;
- yoshlar turizmi;
- "Uchinchi", "to'rtinchi" yoshdagi odamlar turizmi va boshqalar.

Ta'kidlash lozimki, dasturlarning bu ro'yxatini tugadi deb hisoblash kerak emas. Turizmning aynan dasturiy yo'nalishi ahamiyatli darajada tarkibi bo'yicha o'zgaruvchan va moda, qiziqishlar, eskirish va qiziqishning yo'qolishi kabi oldindan aytib bo'lmaydigan yo'nalishlarga bog'liq. Shuning uchun vaqt o'tishi bilan yangi dasturlar turlari paydo bo'ladi, avvalgilari esa yo'qoladi. Menejerlar vazifasi - talab va ehtiyojlarni kuzatib borish va o'zgarishlarga o'z vaqtida ta'sir javobini qaytarishdan iborat.

2. Turizm sohasida animatsiya xizmati

Turistlarga xizmat ko'rsatish menejmentining dolzarb yo'nalishlaridan biri animatsiya, ya'ni, xizmat ko'rsatish dasturlari, turistlar dam olishi va hordiq chiqarishini jonlantirishdir.

Animatsiya - bu bo'sh vaqtni o'tkazishning maxsus dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha faoliyatdir.

Bunga turistlar va ekskursantlarni "tirilgan" tarixiy personajlar kutib oladigan animatsion shou-muzeylar yoki kechasi mehmonxonada turistlar ishtirokida shoular tashkil qilishlar kiradi.

Animatsion dasturlar sport o'yinlari va musobaqalarini, raqs kechalarini, o'yin, ma'naviy qiziqishlar sohasiga kiruvchi mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi.

Turli xil liboslarga asoslangan turistik mahsulotlar - bu animatsion turizmning avangard yo'nalishlaridan yana bittasidir. Bunga misol - turistlarning Amerika ranchosida dam olishi bilan birga tashkil etilgan tur bo'lib, unda turistlarga kovboy kiyimlari beriladi, otda yurish va kovboylik mahoratlari o'rgatiladi. Bunday turlar turistlarda katta qiziqish uyg'otadi.

Sport yoki etnofolklor, sarguzasht yoki xobbi turlar animatsiyasi ssenariysi va harakteriga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega. Biroq bu yerda bevosita turistlarni qatnashtirish asosida dasturni jonlantirish muhimdir. Boshqa yo'nalish - bu mehmonxona va dam olish markazlarida turistlar dam olishini bevosita animatsiyalashtirish.

Hozirda mamlakatimizning qariyb barcha shaharlarida milliy uslubda bezatilgan xususiy mehmonxonalar, restoranlar ochilgan.Turistlarni o'sha yerlarga olib borib, qadimiy an'anarimiz, urf-odatlarimizni ko'rsatib berish mumkin.

Animatorlar (ko'p hollarda yoshlar) turistlar bilan doimiy ravishda ishlashadi. Ularning asosiy vazifasi - mijozlarni zeriktirib qo'ymaslikdir. Animatorlar, odatda, forma sifatida turistlar uzoqdan ko'rishlari va tanib olishlari uchun ochiq rangli futbolka tanlashadi. Futbolkada uning ismi va u biladigan tillar davlatlari bayroqlari bor kartochka bo'ladi. Ular xushmuomala bo'lishadi va turistlar bilan eski tanishlardek ko'rishadilar. Mijozlar yuzini eslab qolish - ularning professional majburiyatidir.

Animatorlar ishi qiziq va quvnoq bo'lishi bilan birga og'ir hamdir. Ertalab ular aerobik mashg'ubtlarini o'tkazadilar, turistlarni ko'ngil ochishlarini tashkil qiladilar. Kunduzi turistlar bilan ekskursiyaga va do'konlarga boradilar. Kechqurun shou va bardagilar zerikib qolmasligini ham ta'minlashlari kerak. Kimnidir raqsga taklif qilish, kim bilandir shunchaki suhbatlashish lozim. Shuning uchun ham, odatda, yoshlar animator bo'lib ishga kiradilar.

Til to'sig'i mavjudligi bemalol suhbatlashishga yordam bermaydi va animatorlarga qo'yiladigan birinchi talablar kamida ikki xorijiy tilni bilishdir. Shundagina animator turli davlatlardan kelgan turistlar bilan ishlay oladi va juda keng aqli mutaxassisga aylanadi.

Turlarni animatsiyalashtirish va tashkil etish uchun bayramlar nishonlanadigan sanalar kalendaridan foydalanish katta ahamiyatga egadir Turistning u yoki bu sanaga qiziqishi, bu qiziqishlarning "jonlantirilgan". turistning o'zi qatnashadigan ko'rinishda tashkil etilishi xizmat ko'rsatish dasturini yanada jonlantiradi. Masalan: Milliy, o'zbekona to'y marosimlarimizga turistlar qatnashishini taminlash.Ularga milliy kelin-kuyovlar kiyimini kiydirib, yor-yorni sahnalashtirish.

Animatorlar ishining yaxshi misoli sifatida "Klub Med" kurortlari tizimi klublarini keltirsa bo'ladi. "Klub Med" ga animator bo'lib ishga kirgan odamlar haqiqatda ham bilimi va universalligi bilan ajralib turadi. Ular nafaqat yosh, chaqqon bo'lishi, balki kamida ikkita tilni bilishi. hamma bilan til topishib keta olishi lozim. Bu yerda alohida lavozim – GO-fransuz tilidan olingan Gentils Organizateurz so'zining qisqartmasi - "yoqimli tashkilotchilar" bo'lishi mumkin. GOning asosiy vazifasi - "Klub Med"ning barcha shaharchalari ajralib turadigan erkinlik va tabiiylik muhitini yaratishdan iborat. Agar barda biror kishi zerikayotgan bo'lsa. albatta, GOning yoniga o'tkazishadi va suhbatga tortishadi. Ular doimo biror hazil yoki qiziqarli narsani boshlashlari mumkin. Mijozlarni ham bu yerda hurmat bilan - GM - Gentils Members so'zining qisqartmasi - "klubning yoqimli a'zolari" deb atashadi. Animatorlar sababli "Klub Med"ning istalgan shaharchasida dam olish haqiqiy bayramga aylanadi.

Har safar yangi bayramlarni tashkil qilish qimmatga tushishi bois. doimiy harakatdagi animatsion dasturlarni sotish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, turizmda animatsiya formulasini quyidagi kompleks ko'rinishida qabul qilish mumkin: qiziqishlardan foydalanish, ekspozitsiyalarni jonlantirish. harakatlarga turistlarni jalb qilish, tomoshalarning turli-tumanligi.

Turizm animatsiyasi uslubiy asoslarini quyidagicha shakllantirish mumkin:

- operatorning hordiq chiqarish va tomoshalar markazlari, festival marosim tashkilotchilari bilan o'zaro yaqin munosabatda bo'lish, shuningdek, xizmat ko'rsatish dasturiga tadbirlar ma'lumotlarini faol qo'shib borish;
- sodir bo'layotgan tadbirning psixologik qabul qilinishi va tematikasini hisobga oladigan dam olish (tadbir) ssenariysini tuzish;
- ob-havo va boshqa sabablarga ko'ra dasturga o'zgartirish kiritilganda animatorlaniing turistlar bilan ishlashi. Umuman animatsion turizm faoliyati deganda xordiq chiqarish-tomosha va servis komplekslarining har bir turist dam olishiga va xizmat ko'rsatishga

shaxsiy yondashuvning o'zaro yaqin hamkorligini tushunishimiz mumkin.

Asosiy vazifa turistga qiziqarli bo'lishi, o'zini dastur qatnashchisi sifatida his qilishi, yaxshi dam olish uchun qulaylik mavjudligidir.

Shunday qilib, turizm aholining bir joydan ikkinchi joyga pul topish maqsadi uchun emas, balki ma'naviy, ruxiy va jismoniy hordiq chiqarish maqsadida harakat qilib yurishidir Bunday harakatni sodir qilish turistlarni qabul qilish uchun O'zbekistonda yirik salohiyat mavjud. Gap bunday salohiyatdan samarali foydalana olishda.

Tayanch iboralar: Animatsiya, animatsion dastur, animatorlar.

Mustaqil nazorat qilish uchun savollar:

1. Turistik dam olish dasturini tasniflashni tushuntiring.
2. Turizm sohasida animatsiya xizmati
3. Animatorlar kimlar?
4. Turizm animatsiyasi uslubiy asoslari haqida tushuncha bering.
5. Animatsiya faoliyatini mamlakatimizda rivojlantirish uchun nimalar qilish zarur?